Особое внимание уделяется экспериментальным наблюдениям три- и четырёхпротонных резонансов. В $^{12}C^{12}C$- столкновениях при энергии 3.37–4.2 А ГэВ впервые зарегистрированы трипротонный резонанс с массой 2920 МэВ и шириной 2.1 МэВ [7], а также два четырёхпротонных резонанса с массами 3890 и 3920 МэВ и узкими ширинами 1.2–1.3 МэВ [8]. Формирование таких состояний объясняется α-кластерной структурой ядра ^{12}C: при фрагментации α-кластеров пары протонов с противоположными спинами могут объединяться с дополнительными протонами из других кластеров, формируя три- и четырёхпротонные молекулы [7,8].

Таким образом, изучение многопротонных состояний не только расширяет представления о структуре ядер и механизмах сильного взаимодействия, но и открывает новые возможности для поиска короткоживущих мультибарионных конфигураций, имеющих значение как в ядерной, так и в элементарночастичной физике [8].

Экспериментальные материалы и методы. Для изучения образования многопротонных резонансных состояний использовались данные столкновений ядер углерода с углеродом при энергии 3.37–4.2 А ГэВ на синхротронотроне в Объединённый институт ядерных исследований (Дубна, Россия) [7,8]. Экспериментальный материал состоял из 20527 инклюзивных столкновений $^{12}C^{12}C$, зарегистрированных с помощью 2-метровой пузырьковой камеры пропана (C_3H_8), облучённой пучками дейтронов, α-частиц и ядер углерода с импульсом 4.2 ГэВ/с на нуклон [7].

Методика выделения столкновений на ядра углерода из взаимодействий с молекулами пропана подробно описана в [7]. Протоны визуально идентифицировались с высокой эффективностью на основе ионизации для моментов до 750 МэВ/с, при этом нижний предел регистрации составлял 140 МэВ/с в лабораторной системе. Средняя относительная ошибка определения момента $\langle \Delta P/P \rangle$ для визуально идентифицированных протонов составляла (5.0±0.3)% [7]. Ошибка определения угла рассеяния между парами протонов не превышала 1 градуса.

Для анализа образования многопротонных резонансных состояний рассматривались протоны с импульсом $0.2 \leq p \leq 0.74$ ГэВ/с, происходящие из фрагментации мишеневого ядра углерода, исключая так называемые «испарительные» протоны и протоны от ядра-источника [7,8].

Спектры инвариантной массы для трёх- и четырёхпротонных систем строились с учётом среднего значения ошибки $\langle \Delta M \rangle$, включающей вклад угловой неопределённости рассеяния пар прото-

нов. В качестве фонового распределения использовалась сумма нескольких гауссовских функций, а для аппроксимации пиковых структур применялась релятивистская функция Брейт-Вигнера [8]:

$$BW(M)=\frac{\Gamma M M_0}{(M^2-M_0^2)^2-\Gamma^2 M_0^2}.$$

Использование такого подхода позволило выявить трипротонный резонанс с массой M(ppp) = 2920 ± 2 МэВ и шириной Г = 2.1 ± 0.8 МэВ [7], а также два четырёхпротонных резонанса с массами M(pppp)=3890 и 3920 МэВ и узкими ширинами Г=1.2–1.3 МэВ [8].




Рис. 1. Экспериментальное распределение инвариантной массы (●) трехпротонов M(ppp) в полном ансамбле d^{12}C-, α^{12}C- и ^{12}C^{12}C-столкновений при 4.2 А ГэВ/с для событий с числом протонов, равным трем и более. Пунктирная гистограмма – фоновое распределение. Сплошная гистограмма – результат аппроксимации суммой функций.

Инклюзивные сечения образования резонансных состояний оценивались через отношение числа событий, превышающих фон, к общему числу рассмотренных столкновений, с учётом полного сечения неупругих взаимодействий ^{12}C^{12}C [7,8].

Таким образом, описанная экспериментальная методика позволила с высокой точностью исследовать образование краткоживущих многопротонных состояний и оценить их основные характеристики: массу, ширину и вероятность образования в ядро-ядерных столкновениях при промежуточных энергиях [7,8].

Результаты и обсуждение. Экспериментальные данные показывают, что в адрон-ядерных и ядро-ядерных столкновениях при промежуточных энергиях формируются краткоживущие многопротонные резонансные состояния. В частности, наблюдались узкие дипротонные резонансы с массами около 2117 МэВ и шириной Г=4 МэВ, образовавшиеся в системе «ppπ^+» при столкновениях ^{12}C^{12}C при 4.2 А ГэВ/с [7]. Предполагается, что эти резонансы возникают за счёт захвата π^+-мезона двухпротонным кластером с близкой скоростью.




Рис. 3. Распределение инвариантной массы ppπ^+-системы частиц в ^{12}C^{12}C-соударениях при 4.2 А ГэВ/с. Точки – эксперимент, штриховая гистограмма – фоновое распределение, построенное как сумма двух Гауссовских функций вне области пиковой структуры, сплошная гистограмма – результат аппроксимации экспериментального спектра суммой фонового распределения и Брейт-Вигнеровской функцией .

Аналогично, исследование трёхпротонной системы показало наличие узкого пика при $M_{(ppp)}$= 2920 МэВ с шириной Г = 2.1 ± 0.8 МэВ и временем жизни $t=3.1\cdot10^{-22}$ с [7]. Этот резонанс наблюдался только в событиях с четырьмя протонами в конечном состоянии, что указывает на влияние α-кластерной структуры ядра углерода на механизм образования трёхпротонных состояний.

Заключение. В данной работе представлен обзор и объединение экспериментальных данных по образованию многопротонных резонансных состояний в адрон-ядерных и ядро-ядерных столкновениях при промежуточных и высоких энергиях. Основные выводы следующие:

1. Дипротонные резонансы с массами около 2117 МэВ и узкими ширинами Г=4 МэВ подтверждают возможность образования краткоживущих двухпротонных кластеров, которые могут захватывать мезоны для образования более сложных систем.
2. Трёхпротонные резонансы при $M_{(ppp)}$ = 2920 МэВ обнаружены в событиях с четырьмя протонами в конечном состоянии. Их образование объясняется α-кластерной структурой ядра углерода и механизмом объединения двухпротонных молекул с дополнительным протоном.
3. Все наблюдаемые многопротонные состояния характеризуются узкими ширинами масс, что указывает на существование запретов на быстрый распад на отдельные нуклоны в соответствии с законами сохранения спина, изотопического спина и четности.
4. Совокупность результатов экспериментов позволяет предложить единый механизм формирования многопротонных состояний: разрушение α-кластеров ядра-мишени приводит к образованию двух- и трёхпротонных кластеров, которые взаимодействуют друг с другом и с мезонами, формируя устойчивые на короткое время коллективные состояния.

Таким образом, проведённое исследование подтверждает существование краткоживущих многопротонных резонансов и открывает перспективы для дальнейших экспериментов по изучению мультикварковых состояний и кластеризации нуклонов в ядрах. Эти данные имеют важное значение для понимания динамики сильного взаимодействия, структуры ядер и возможных механизмов образования сложных адронных состояний в высокоэнергетических столкновениях.

Список использованной литературы:

(1). В.Н.Батурин и др., Препринт ЛИЯФ 1750, с. 29 (1991).
(2). Jaffe R.L. Phys. Rev. Lett., 1977, v. 38, № 5, p. 195.
(3). Auer I.P. et al., Phys. Lett., B, 1977, v. 67, № 113, p. 113.
(4). Доркин С.М. и др., Препринт ОИЯИ 34-81-791, Дубна, 1981, с. 13.
(5). S.K.Choi et al., Phys. Rev. Lett. 91, 262001 (2003).
(6). R.Aaij et al., Phys. Rev. Lett. 115, 072001 (2015).
(7). К. Олимов и др. “Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”, [2025-7], с. 35
(8). K.Olimov, O.Esanmurodov, Kh.K.Olimov, Sherzod Kholbutaev and B.S.Yuldashev. International Journal of Modern Physics E. Vol. 32, № 9 (2023) 2350051 (11 pages).

Yalg‘ashev Burxon Fayzullayevich (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’limda matematika va tabiiy fanlar” kafedrasi mudiri, fan doktori, dotsent),
Xudayberdiyev Zokir Bozorboyevich (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unversiteti “Nazariy va injenerlik mexanikasi” kafedrasi dotsenti (PhD); E-mail: xudayberdiyevz@mail.ru),
Isroilov Sherzod Narkazakovich (Samarqand davlat Texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Navoiy innovatsiyalar univeristeti katta o‘qituvchisi; E-mail: sherzodisroilov780@gmail.com)

UCH QATLAMLI TRANSVERSAL-IZOTROP KONUSSIMON QOBIQNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANGANLIK HOLATI VA BO‘YLAMA-RADIAL TEBRANISHLARI

Annotatsiya. *Ushbu ishda uch qatlamli transversal-izotrop konussimon qobiqning bo‘ylama-radial tebranishlari masalasi qaralgan. Uch qatlamli konussimon qobiq qatlamlari transversal-izotrop materialdan iborat deb faraz qilinib, elastiklik nazariyasining asosiy tenglamalari asosida bo‘ylama-radial tebranish tenglamalari sistemasi keltirib chiqarilgan. Qobiq qatlamlari ixtiyoriy nuqtalaridagi ko‘chishlar va kuchlanishlar uchun analitik ifodalar olingan hamda ular qatlamlar orasidagi kontakt shartlari va chegaraviy shartlar orqali o‘zaro bog‘langan. Hosil qilingan bo‘ylama-radial tebranish tenglamalari sistemasi yechilgan va olingan natijalar asosida ko‘chishlar hamda kuchlanishlarning qobiq bo‘ylab taqsimlanishi grafiklar ko‘rinishida tasvirlangan. Olingan natijalar qatlamli konussimon konstruksiya elementlarini dinamik hisoblashda va loyihalashda qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *qatlam, transversal-izotrop material, bo‘ylama-radial tebranish, chegaraviy shart, tebranish tenglamasi, ko‘chish, kuchlanish.*

НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПРОДОЛЬНО-РАДИАЛЬНЫЕ КОЛЕБАНИЯ ТРЕХСЛОЙНОЙ ТРАНСВЕРСАЛЬНО-ИЗОТРОПНОЙ КОНИЧЕСКОЙ ОБОЛОЧКИ

Аннотация. *В данной работе рассматривается задача продольно-радиальных колебаний трехслойной трансверсально-изотропной конической оболочки. Предполагая, что слои трехслойной конической оболочки состоят из трансверсально-изотропного материала, на основе основных уравнений теории упругости выведена система уравнений продольно-радиальных колебаний. Получены аналитические выражения для перемещений и напряжений в произвольных точках слоев оболочки, которые связаны между собой условиями контакта между слоями и граничными условиями. Полученная система уравнений продольно-радиальных колебаний решена, и на основе полученных результатов распределение перемещений и напряжений по оболочке представлено в виде графиков. Полученные результаты могут быть использованы при динамическом расчете и проектировании элементов слоистых конических конструкций.*

Ключевые слова: *слой, поперечно-изотропный материал, продольно-радиальное колебание, граничное условие, уравнение колебания, перемещение, напряжение.*

STRESS-STRAIN STATE AND LONGITUDINAL-RADIAL OSCILLATIONS OF A THREE-LAYER TRANSVERSAL-ISOTROPIC CONICAL SHELL

Annotation. *This work examines the problem of longitudinal-radial oscillations of a three-layer transverse-isotropic conical shell. Assuming that the layers of the three-layer conical shell consist of transversally isotropic material, a system of longitudinal-radial oscillation equations was derived based on the fundamental equations of elasticity theory. Analytical expressions for displacements and stresses at arbitrary points in the shell layers were obtained, which are related to the contact conditions between the layers and the boundary conditions. The resulting system of longitudinal-radial oscillation equations is solved, and based on the obtained results, the distribution of displacements and stresses across the shell is presented in the form of graphs. The obtained results can be used in the dynamic calculation and design of elements of layered conical structures.*

Keywords: *layer, transverse-isotropic material, longitudinal-radial oscillation, boundary condition, oscillation equation, displacement, voltage.*

Kirish. Zamonaviy mashinasozlik, aviatsiya va raketa texnikasi, kemasozlik hamda qurilish sohalarida qatlamli qobiqsimon konstruksiya elementlari keng qo‘llanilmoqda. Bunday elementlar yuqori mustahkamlik va bikrlikni kichik massa bilan uyg‘unlashtirgani sababli muhandislik amaliyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, konussimon qobiqlar reaktiv dvigatellarning soplolari, uchish apparatlarining burun qismlari, rezervuarlar, quvurlarning o‘tish uchastkalari va turli akustik qurilmalarda asosiy konstruktiv element sifatida uchraydi. Ekspluatatsiya jarayonida bunday konstruksiyalar dinamik yuklanishlar ta'siriga uchraydi, shu sababli ularning tebranish jarayonlarini ishonchli matematik modellar asosida o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi [13].


Qatlamli qobiqlarni tayyorlashda, ko‘pincha, kompozit materiallar ishlatiladi. Bunday materiallarning ko‘pchiligi xossalari bir yo‘nalishda boshqa yo‘nalishlardan farq qiladigan, ya’ni, transversal-izotrop muhit sifatida modellashtiriladi. Materialning anizotropiyasi va qatlamlarning turli fizik-mexanik xossalarga ega bo‘lishi qobiqdagi kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Shu bois klassik izotrop qobiqlar nazariyasiga asoslangan yondashuvlar bunday konstruksiyalarning dinamik xattiharaka-tini yetarli aniqlikda tavsiflay olmaydi [4].

Anizotrop va qatlamli qobiqlar nazariyasini rivojlantirishga S.G.Lexnitskiy, S.A.Ambarsumyan, E.I. Grigolyuk va boshqa olimlar katta hissa qo‘shgan. Elastik jismlarning tebranish tenglamalarini elastiklik nazariyasining uch o‘lchovli tenglamalari asosida aniq yechimlardan kelib chiqib qurish usuli I.G.Filippov va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv keyinchalik transversal-izotrop silindrik qobiqlar va sterjenlarning tebranishlarini o‘rganishda qo‘llanilgan jumladan, X.X.Xudoynazarov tadqiqotlari. Biroq uch qatlamli transversal-izotrop konussimon qobiqlarning bo‘ylama-radial tebranishlari masalasi hozirga qadar yetarlicha o‘rganilmagan. Konussimon geometriya tenglamalarning koeffitsiyentlari koordinataga bog‘liq bo‘lishiga olib keladi, bu esa masalani silindrik qobiqlarga nisbatan ancha murakkablashtiradi [5–6].

Ushbu maqolaning maqsadi uch qatlamli transversal-izotrop konussimon qobiqning bo‘ylama-radial tebranish tenglamalarini keltirib chiqarish, qobiq qatlamlaridagi ko‘chishlar va kuchlanishlar uchun ifoda-

larni aniqlash, hosil bo‘lgan tenglamalar sistemasini yechish hamda olingan natijalarni grafik ko‘rinishda tahlil qilishdan iborat.

Masalaning qo‘yilishi. Ichki hamda tashqi sirtlariga bo‘ylama va radial kuchlar ta’sir qiluvchi uch qatlamli transversal-izotrop konussimon qobiqning bo‘ylama-radial tebranishlarini tadqiq qilamiz. (r, θ, z) silindrik koordinatalar sistemasi boshini uch qatlamli konussimon qobiqning kichik ko‘ndalang kesimiga joylashtiramiz (1-rasm).



1-rasm. Uch qatlamli konussimon qobiq.

Bunda Oz – o‘qini uch qatlamli konussimon qobiqning simmetriya o‘qi bo‘ylab, Or – o‘qini uch qatlamli konussimon qobiqning ko‘ndalang kesimi radiusi bo‘ylab yo‘naltiramiz. Bu yerda z-bo‘ylama, r-radial va θ-burchak koordinatalaridir [6]. Uch qatlamli konussimon qobiqning qatlamlari materiallari transversal-izotrop deb hisoblaymiz. Konussimon qobiqning yasovchisi bilan markaziy o‘qi orasidagi burchakni α bilan, uzunligini l bilan va $z = 0$ kichik ko‘ndalang kesimi ichki radiusini r_0 bilan belgilaymiz. Ichki qatlamning qalinligi h_1, o‘rta qatlamning qalinligi h_0 va tashqi qatlamning qalinligi h_2 bo‘lsin deb faraz qilamiz. U holda $z = 0$ kesimdan l masofadagi kesim uchun ichki radius, ya’ni, ichki qatlamning ichki radiusi $r_l^{(1)} = r_0 + l\tan\alpha$, ichki qatlamning tashqi radiusi, o‘rta qatlam uchun ichki radius $r_l^{(0)} = r_0 + l\tan\alpha + h_1$, o‘rta qatlamning tashqi radiusi, tashqi qatlam uchun ichki radius $r_l^{(2)} = r_0 + l\tan\alpha + h_1 + h_0$ va tashqi qatlam uchun tashqi radius $r_l^{(3)} = r_0 + l\tan\alpha + h_1 + h_0 + h_2$ bo‘ladi. Ushbu uch o‘lchovli uch qatlamli konussimon qobiq jismi elastiklik nazariyasi qonunlariga bo‘y-sinadi deb hisoblaymiz.

Masala o‘qqa nisbatan simmetrik bo‘lganligi uchun uch qatlamli konussimon qobiq nuqtalari ko‘-chish vektorlarining bo‘ylama va radial komponentlari, kuchlanish tenzori komponentalarining bo‘ylama, radial, buralma hamda bo‘ylama-radial komponentalari, deformatsiya tenzorining esa $\varepsilon_{rr}^{(m)}, \varepsilon_{\theta\theta}^{(m)}, \varepsilon_{zz}^{(m)}$ va $\varepsilon_{rz}^{(m)}$ komponentalari noldan farqli bo‘ladi. Qolgan komponentlari esa nolga teng bo‘ladi.

Transversal-izotrop uch qatlamli konussimon qobiq nuqtalarida kuchlanishlar va deformatsiyalar orasida quyidagi bog‘lanishlar mavjud bo‘ladi [3]:

$$\begin{aligned}
\sigma_{rr}^{(m)} &= C_{11}^{(m)}\frac{\partial U_r^{(m)}}{\partial r} + C_{12}^{(m)}\frac{U_r^{(m)}}{r} + C_{13}^{(m)}\frac{\partial U_z^{(m)}}{\partial z};\\
\sigma_{\theta\theta}^{(m)} &= C_{12}^{(m)}\frac{\partial U_r^{(m)}}{\partial r} + C_{11}^{(m)}\frac{U_r^{(m)}}{r} + C_{13}^{(m)}\frac{\partial U_z^{(m)}}{\partial z};\\
\sigma_{zz}^{(m)} &= C_{13}^{(m)}\left(\frac{\partial U_r^{(m)}}{\partial r} + \frac{U_r^{(m)}}{r}\right) + C_{33}^{(m)}\frac{\partial U_z^{(m)}}{\partial z};\\
\sigma_{rz}^{(m)} &= C_{44}^{(m)}\left(\frac{\partial U_r^{(m)}}{\partial z} + \frac{\partial U_z^{(m)}}{\partial r}\right).
\end{aligned} \tag{1}$$

bu yerda $C_{ij}^{(m)}$–transversal-izotrop material uchun elastiklik o‘zgarmaslari.

Harakat tenglamalariga (1) ifodalarni qo‘yish orqali, uch qatlamli konussimon qobiq qatlamlari nuq-talarining $U_z^{(m)}$– bo‘ylama va $U_r^{(m)}$– radial ko‘chishlarini ifodalovchi quyidagi harakat tenglamalari sis-temasiga ega bo‘lamiz:

$$\tilde{C}_{11}^{(m)}\left(\frac{\partial^2\widetilde{U}_r^{(m)}}{\partial r^2}+\frac{1}{r}\frac{\partial\widetilde{U}_r^{(m)}}{\partial r}-\frac{1}{r^2}\widetilde{U}_r^{(m)}\right)-$$
$$-\tilde{C}_{44}^{(m)}k^2\widetilde{U}_r^{(m)}-k\left(\tilde{C}_{13}^{(m)}+\tilde{C}_{44}^{(m)}\right)\frac{\partial\widetilde{U}_z^{(m)}}{\partial r}=\rho_m p^2\widetilde{U}_r^{(m)};$$
$$\tilde{C}_{44}^{(m)}\left(\frac{\partial^2\widetilde{U}_z^{(m)}}{\partial r^2}+\frac{1}{r}\frac{\partial\widetilde{U}_z^{(m)}}{\partial r}\right)-k^2\tilde{C}_{33}^{(m)}\widetilde{U}_z^{(m)}+ \tag{2}$$
$$+k\left(\tilde{C}_{44}^{(m)}+\tilde{C}_{13}^{(m)}\right)\left(\frac{\partial\widetilde{U}_r^{(m)}}{\partial r}+\frac{\widetilde{U}_r^{(m)}}{r}\right)=\rho_m p^2\widetilde{U}_z^{(m)};$$

Uch qatlamli konussimon qobiqning bo‘ylama-radial tebranishlari ichki va tashqi $f_n^{(i)}(z,t)$, $f_{S_2}^{(i)}(z,t)$ dinamik kuchlar ta'siri natijasida vujudga keladi, deb faraz qilinadi. Shu sababli transversal-izotrop xususiyatga ega uch qatlamli konussimon qobiqning $r_l^{(3)}$-tashqi va $r_l^{(1)}$– ichki sirtlarida quyidagi chegaraviy shart o‘rinli bo‘ladi:

$$\sigma_{rr}^{(i)}-2F_i'(z)\sigma_{rz}^{(i)}+\left(F_i'(z)\right)^2\sigma_{zz}^{(i)}=\left(1+\left(F_i'(z)\right)^2\right)f_n^{(i)};$$
$$F_i'(z)\left(\sigma_{rr}^{(i)}-\sigma_{zz}^{(i)}\right)+\left(1-\left(F_i'(z)\right)^2\right)\sigma_{rz}^{(i)}=\left(1+\left(F_i'(z)\right)^2\right)f_{S_2}^{(i)}. \tag{3}$$

(3) ifoda $i=1$ da ichki sirt uchun chegaraviy shartni va $i=2$ da tashqi sirt uchun chegaraviy shartni ifodalaydi.

Bundan tashqari, o‘rta qatlam bilan ichki va tashqi qatlamlar orasida quyidagi dinamik va kinematik kontakt shartlar o‘rinli bo‘ladi:

$r_l^{(0)}$ sirtda

$$U_r^{(1)}=U_r^{(0)};\ U_z^{(1)}=U_z^{(0)};\ \sigma_{rr}^{(1)}=\sigma_{rr}^{(0)};\ \sigma_{zz}^{(1)}=\sigma_{zz}^{(0)}. \tag{4}$$

$r_l^{(2)}$ sirtda

$$U_r^{(0)}=U_r^{(2)};\ U_z^{(0)}=U_z^{(2)};\ \sigma_{rr}^{(0)}=\sigma_{rr}^{(2)};\ \sigma_{zz}^{(0)}=\sigma_{zz}^{(2)}. \tag{5}$$

bu yerda: $U_r^{(m)}(r,z,t)$ va $U_z^{(m)}(r,z,t)$ uch qatlamli konussimon qobiq qatlamlari nuqtasi radial va bo‘ylama ko‘chishlari.

Demak, uch qatlamli konussimon qobiqning ichki va tashqi dinamik yuklanishlar ta’siri ostida yuzaga keladigan bo‘ylama-radial tebranishlari haqidagi masalani yechish (3) tenglamalarni (4) va (5) kinematik va dinamik kontakt shartlarhamda nolga teng boshlang‘ich shartlar bilan yechishdan iborat bo‘lar ekan.

Masalaning yechimi. Uch qatlamli transversal-izotrop konussimon qobiqning bo‘ylama-radial tebranish tenglamalarini chiqarish uchun (2) harakat differensial tenglamalar sistemasini (3) chegaraviy, (4) va (5) kontakt shartlar bilan birgalikda yechamiz. Bir qancha matematik amallar va soddalashtirishlarni bajarganimizdan so‘ng quyidagi differensial tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\left\{Q_{11}\frac{\partial^4}{\partial t^2\partial z^2}+Q_{12}\frac{\partial^4}{\partial z^4}+Q_{13}\frac{\partial^3}{\partial t^2\partial z}+Q_{14}\frac{\partial^3}{\partial z^3}\right\}U_{r,0}^{(0)}+\left\{P_{11}\frac{\partial^4}{\partial t^2\partial z^2}+\right.$$
$$\left.+P_{12}\frac{\partial^4}{\partial z^4}+P_{13}\frac{\partial^3}{\partial t^2\partial z}+P_{14}\frac{\partial^3}{\partial z^3}\right\}\xi U_{r,1}^{(0)}+\left\{R_{11}\frac{\partial^4}{\partial t^2\partial z^2}+R_{12}\frac{\partial^4}{\partial z^4}\right\}U_{z,0}^{(0)}+ \tag{6}$$
$$+\left\{J_{11}\frac{\partial^4}{\partial t^2\partial z^2}+J_{12}\frac{\partial^4}{\partial z^4}\right\}\xi U_{z,1}^{(0)}=\left\{H_{11}\frac{\partial^3}{\partial t^2\partial z}+H_{12}\frac{\partial^3}{\partial z^3}\right\}f_n^{(1)};$$
$$\left\{Q_{21}\frac{\partial^4}{\partial t^2\partial z^2}+Q_{22}\frac{\partial^4}{\partial z^4}+Q_{23}\frac{\partial^3}{\partial t^2\partial z}+Q_{24}\frac{\partial^3}{\partial z^3}\right\}U_{r,0}^{(0)}+\left\{P_{21}\frac{\partial^4}{\partial t^2\partial z^2}+\right.$$
$$\left.+P_{22}\frac{\partial^4}{\partial z^4}+P_{23}\frac{\partial^3}{\partial t^2\partial z}+P_{24}\frac{\partial^3}{\partial z^3}\right\}\xi U_{r,1}^{(0)}+\left\{R_{21}\frac{\partial^4}{\partial t^2\partial z^2}+R_{22}\frac{\partial^4}{\partial z^4}\right\}U_{z,0}^{(0)}+ \tag{7}$$
$$+\left\{J_{21}\frac{\partial^4}{\partial t^2\partial z^2}+J_{22}\frac{\partial^4}{\partial z^4}\right\}\xi U_{z,1}^{(0)}=\left\{H_{21}\frac{\partial^3}{\partial t^2\partial z}+H_{22}\frac{\partial^3}{\partial z^3}\right\}f_n^{(1)};$$
$$\left\{Q_{31}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+Q_{32}\frac{\partial^2}{\partial z^2}+Q_{33}\frac{\partial}{\partial z}+Q_{34}\right\}U_{r,0}^{(0)}+\left\{P_{31}\frac{\partial^4}{\partial t^4}+P_{32}\frac{\partial^4}{\partial t^2\partial z^2}+\right.$$

$$+P_{33}\frac{\partial^4}{\partial z^4}+P_{34}\frac{\partial^3}{\partial t^2\partial z}+P_{35}\frac{\partial^3}{\partial z^3}+P_{36}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+P_{37}\frac{\partial^2}{\partial z^2}+$$
$$+P_{38}\frac{\partial}{\partial z}+P_{39}\Big\}\xi U_{r,1}^{(0)}+\Big\{R_{31}\frac{\partial}{\partial z}+R_{32}\Big\}U_{z,0}^{(0)}+\Big\{J_{31}\frac{\partial^3}{\partial t^2\partial z}+$$
$$+J_{32}\frac{\partial^3}{\partial z^3}+J_{33}\frac{\partial^2}{\partial z^2}+J_{34}\frac{\partial}{\partial z}+J_{35}\Big\}\xi U_{z,1}^{(0)}=\Big(1+\big(F_2'(z)\big)^2\Big)f_n^{(2)}; \quad (8)$$

$$\Big\{Q_{41}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+Q_{42}\frac{\partial^2}{\partial z^2}+Q_{43}\frac{\partial}{\partial z}+Q_{44}\Big\}U_{r,0}^{(0)}+\Big\{P_{41}\frac{\partial^4}{\partial t^4}+P_{42}\frac{\partial^4}{\partial t^2\partial z^2}+$$
$$+P_{43}\frac{\partial^4}{\partial z^4}+P_{44}\frac{\partial^3}{\partial t^2\partial z}+P_{45}\frac{\partial^3}{\partial z^3}+P_{46}\frac{\partial^2}{\partial t^2}+P_{47}\frac{\partial^2}{\partial z^2}+$$
$$+P_{48}\frac{\partial}{\partial z}+P_{49}\Big\}\xi U_{r,1}^{(0)}+\Big\{R_{41}\frac{\partial}{\partial z}+R_{42}\Big\}U_{z,0}^{(0)}+\Big\{J_{41}\frac{\partial^3}{\partial t^2\partial z}+$$
$$+J_{42}\frac{\partial^3}{\partial z^3}+J_{43}\frac{\partial^2}{\partial z^2}+J_{44}\frac{\partial}{\partial z}+J_{45}\Big\}\xi U_{z,1}^{(0)}=\Big(1+\big(F_2'(z)\big)^2\Big)f_{S_2}^{(2)}; \quad (9)$$

bu yerda Q_{ij}, P_{ij}, R_{ij}, J_{ij} va H_{ij} uch qatlamli konussimon qobiqning geometrik hamda fizik parametrlariga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarmas koeffitsiyenlar. Masalan:

$$Q_{11}=\rho_1F_1'(z)r_l^{(1)}\frac{\left(C_{13}^{(1)}+C_{44}^{(1)}\right)}{C_{11}^{(1)}C_{11}^{(1)}}\left(C_{13}^{(1)}+2C_{44}^{(1)}\right);\ \ldots\ldots$$

(6)-(9) tenglamalar sistemasidagi $U_{r,0}^{(0)}$, $U_{z,0}^{(0)}$, $U_{r,1}^{(0)}$ va $U_{z,1}^{(0)}$ izlanuvchi funksiyalar. Ular uch qat-lamli konussimon qobiqning markaziy o‘qidan ξ masofada joylashgan o‘rta qatlamdan tanlangan sirtdagi ko‘chish vektorining komponentalari hisoblanadi. Uch qatlamli konussimon qobiqning qatlamlaridagi ko‘-chish va kuchlanishlarni topish uchun qatlamlardagi ko‘chish va kuchlanishlarni ham $U_{r,0}^{(0)}$, $U_{z,0}^{(0)}$, $U_{r,1}^{(0)}$ va $U_{z,1}^{(0)}$ izlanuvchi funksiyalar orqali ifodalaymiz:

Uch qatlamli konussimon qobiqning ichki qatlamidagi ko‘chishlar quyidagicha:

$$U_z^{(1)}=U_{z,0}^{(0)}+\xi\ln\left(r_l^{(0)}/\xi\right)U_{z,1}^{(0)};$$
$$U_r^{(1)}=\frac{r}{2}\Bigg[U_{r,0}^{(0)}+\Bigg(\rho_0\frac{1}{C_{11}^{(0)}}\left(\ln\left(\frac{r_l^{(0)}}{\xi}\right)-\frac{1}{2}\right)\frac{\partial^2}{\partial t^2}-\frac{C_{44}^{(0)}}{C_{11}^{(0)}}\left(\ln\left(\frac{r_l^{(0)}}{\xi}\right)- \quad (10)$$
$$-\frac{1}{2}\Big)\frac{\partial^2}{\partial z^2}+\frac{2}{\left(r_l^{(0)}\right)^2}\Bigg)\xi U_{r,1}^{(0)}+\left(\ln\left(\frac{r_l^{(0)}}{\xi}\right)-\frac{1}{2}\right)\frac{\partial}{\partial z}B_1^{(0)}\xi U_{z,1}^{(0)}\Bigg];$$

Uch qatlamli konussimon qobiqning o‘rta qatlamidagi ko‘chishlar quyidagicha:

$$U_z^{(0)}=U_{z,0}^{(0)}+\frac{\xi}{2}U_{z,1}^{(0)};$$
$$U_r^{(0)}=\frac{r}{2}U_{r,0}^{(0)}-\frac{r}{4}\frac{\partial}{\partial z}B_1^{(0)}\xi U_{z,1}^{(0)}-\left(\frac{r\rho_0}{4}\frac{1}{C_{11}^{(0)}}\frac{\partial^2}{\partial t^2}-\frac{r}{4}\frac{C_{44}^{(0)}}{C_{11}^{(0)}}\frac{\partial^2}{\partial z^2}-\frac{1}{r}\right)\xi U_{r,1}^{(0)}; \quad (11)$$

Uch qatlamli konussimon qobiqning tashqi qatlamidagi ko‘chishlar quyidagicha:

$$U_z^{(2)}=U_{z,0}^{(0)}+\ln\left(r_l^{(2)}/\xi\right)\xi U_{z,1}^{(0)};$$
$$U_r^{(2)}=\frac{\left(r_l^{(2)}\right)^2}{2r}U_{r,0}^{(0)}+\Bigg(\rho_0\frac{1}{C_{11}^{(0)}}\frac{\left(r_l^{(2)}\right)^2}{2r}\left(\ln\left(\frac{r_l^{(2)}}{\xi}\right)-\frac{1}{2}\right)\frac{\partial^2}{\partial t^2}- \quad (12)$$
$$-\frac{C_{44}^{(0)}}{C_{11}^{(0)}}\frac{\left(r_l^{(2)}\right)^2}{2r}\left(\ln\left(\frac{r_l^{(2)}}{\xi}\right)-\frac{1}{2}\right)\frac{\partial^2}{\partial z^2}+\frac{1}{r}\Bigg)\xi U_{r,1}^{(0)}+$$
$$+\frac{\left(r_l^{(2)}\right)^2}{2r}\left(\ln\left(\frac{r_l^{(2)}}{\xi}\right)-\frac{1}{2}\right)\frac{\partial}{\partial z}\tilde{B}_1^{(0)}\xi U_{z,1}^{(0)}.$$

$\sigma_{\theta\theta}^{(1)}$, $\sigma_{zz}^{(1)}$ va $\sigma_{rz}^{(1)}$ kuchlanishlar ham xuddi shunday ifodalanadi. Xuddi shunday uch qatlamli konussimon qobiqning orta qatlamidagi ko‘chish va kuchlanishlar quyidagicha:

$$\sigma_{rr}^{(1)} = q_{11}^{(1)} U_{r,0}^{(0)} + n_{11}^{(1)} \frac{\partial}{\partial z} U_{z,0}^{(0)} + \left\{ p_{11}^{(1)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + p_{12}^{(1)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + p_{13}^{(1)} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} + j_{11}^{(1)} \frac{\partial}{\partial z} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

$$\sigma_{\theta\theta}^{(1)} = q_{21}^{(1)} U_{r,0}^{(0)} + n_{21}^{(1)} \frac{\partial}{\partial z} U_{z,0}^{(0)} + \left\{ p_{21}^{(1)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + p_{22}^{(1)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + p_{23}^{(1)} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} + j_{21}^{(1)} \frac{\partial}{\partial z} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

$$\sigma_{zz}^{(1)} = q_{31}^{(1)} U_{r,0}^{(0)} + n_{31}^{(1)} \frac{\partial}{\partial z} U_{z,0}^{(0)} + \left\{ p_{31}^{(1)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + p_{32}^{(1)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + p_{33}^{(1)} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} + j_{31}^{(1)} \frac{\partial}{\partial z} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

$$\sigma_{rz}^{(1)} = \left\{ n_{41}^{(1)} \frac{\partial^5}{\partial t^4 \partial z} + n_{42}^{(1)} \frac{\partial^5}{\partial t^2 \partial z^3} + n_{43}^{(1)} \frac{\partial^5}{\partial z^5} \right\} U_{z,0}^{(0)} + \left\{ j_{43}^{(1)} \frac{\partial^5}{\partial t^2 \partial z^3} + \right.$$
$$\left. + j_{44}^{(1)} \frac{\partial^5}{\partial z^5} + j_{45}^{(1)} \frac{\partial^4}{\partial t^4} + j_{46}^{(1)} \frac{\partial^4}{\partial t^2 \partial z^2} + j_{47}^{(1)} \frac{\partial^4}{\partial z^4} \right\} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

Uch qatlamli konussimon qobiqning bo‘ylama-radial tebranishlarida hosil bo‘ladigan o‘rta qatlamning qolgan $\sigma_{\theta\theta}^{(0)}$, $\sigma_{zz}^{(0)}$ va $\sigma_{rz}^{(0)}$larni ham izlanuvchi $U_{r,0}^{(0)}$, $U_{z,0}^{(0)}$, $U_{r,1}^{(0)}$ va $U_{z,1}^{(0)}$ funksiyalar orqali ifo-dalaymiz:

$$\sigma_{rr}^{(0)} = \left\{ q_{14}^{(0)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + q_{15}^{(0)} \right\} U_{r,0}^{(0)} + n_{11}^{(0)} \frac{\partial}{\partial z} U_{z,0}^{(0)} +$$
$$+ \left\{ p_{11}^{(0)} \frac{\partial^3}{\partial t^2 \partial z} + p_{12}^{(0)} \frac{\partial^3}{\partial z^3} + p_{13}^{(0)} \frac{\partial}{\partial z} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} + j_{11}^{(0)} \frac{\partial}{\partial z} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

$$\sigma_{\theta\theta}^{(0)} = \left\{ q_{21}^{(0)} \frac{\partial^6}{\partial t^4 \partial z^2} + q_{22}^{(0)} \frac{\partial^6}{\partial t^2 \partial z^4} + q_{23}^{(0)} \frac{\partial^6}{\partial z^6} + q_{24}^{(0)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + q_{25}^{(0)} \right\} U_{r,0}^{(0)} +$$
$$+ n_{21}^{(0)} \frac{\partial}{\partial z} U_{z,0}^{(0)} + \left\{ p_{21}^{(0)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + p_{22}^{(0)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} + j_{21}^{(0)} \frac{\partial}{\partial z} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

$$\sigma_{zz}^{(0)} = q_{31}^{(0)} U_{r,0}^{(0)} + \left\{ p_{31}^{(0)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + p_{32}^{(0)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + p_{33}^{(0)} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} +$$
$$+ n_{31}^{(0)} \frac{\partial}{\partial z} U_{z,0}^{(0)} + j_{31}^{(0)} \frac{\partial}{\partial z} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

$$\sigma_{rz}^{(0)} = \left\{ n_{41}^{(0)} \frac{\partial^5}{\partial t^4 \partial z} + n_{42}^{(0)} \frac{\partial^5}{\partial t^2 \partial z^3} + n_{43}^{(0)} \frac{\partial^5}{\partial z^5} \right\} U_{z,0}^{(0)} +$$
$$+ \left\{ p_{41}^{(0)} \frac{\partial^4}{\partial t^2 \partial z^2} + p_{42}^{(0)} \frac{\partial^4}{\partial z^4} + p_{43}^{(0)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} +$$
$$+ \left\{ j_{41}^{(0)} \frac{\partial^5}{\partial t^4 \partial z} + j_{42}^{(0)} \frac{\partial^5}{\partial t^2 \partial z^3} + j_{43}^{(0)} \frac{\partial^5}{\partial z^5} + j_{44}^{(0)} \frac{\partial^3}{\partial t^2 \partial z} + j_{45}^{(0)} \frac{\partial^3}{\partial z^3} \right\} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

Uch qatlamli konussimon qobiqning tashqi qatlamida hosil bo‘ladigan kuchlanishlarni ham $U_{r,0}^{(0)}$, $U_{z,0}^{(0)}$, $U_{r,1}^{(0)}$ va $U_{z,1}^{(0)}$ izlanuvchi funksiyalar orqali ifodalaymiz.

$$\sigma_{rr}^{(2)} = \left\{ q_{11}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + q_{12}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + q_{13}^{(2)} \right\} U_{r,0}^{(0)} + n_{11}^{(2)} \frac{\partial}{\partial z} U_{z,0}^{(0)} + \left\{ p_{11}^{(2)} \frac{\partial^4}{\partial t^4} + p_{12}^{(2)} \frac{\partial^4}{\partial t^2 \partial z^2} + \right.$$
$$\left. + p_{13}^{(2)} \frac{\partial^4}{\partial z^4} + p_{14}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + p_{15}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + p_{16}^{(2)} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} + \left\{ j_{11}^{(2)} \frac{\partial^3}{\partial t^2 \partial z} + j_{12}^{(2)} \frac{\partial^3}{\partial z^3} + j_{13}^{(2)} \frac{\partial}{\partial z} \right\} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

$$\sigma_{\theta\theta}^{(2)} = \left\{ q_{21}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + q_{22}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + q_{23}^{(2)} \right\} U_{r,0}^{(0)} + n_{21}^{(2)} \frac{\partial}{\partial z} U_{z,0}^{(0)} + \left\{ p_{21}^{(2)} \frac{\partial^4}{\partial t^4} + p_{22}^{(2)} \frac{\partial^4}{\partial t^2 \partial z^2} + \right.$$
$$\left. + p_{23}^{(2)} \frac{\partial^4}{\partial z^4} + p_{24}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + p_{25}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + p_{26}^{(2)} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} + \left\{ j_{21}^{(2)} \frac{\partial^3}{\partial t^2 \partial z} + j_{22}^{(2)} \frac{\partial^3}{\partial z^3} + j_{23}^{(2)} \frac{\partial}{\partial z} \right\} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

$$\sigma_{zz}^{(2)} = \left\{ q_{31}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + q_{32}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + q_{33}^{(2)} \right\} U_{r,0}^{(0)} + n_{31}^{(2)} \frac{\partial}{\partial z} U_{z,0}^{(0)} + \left\{ p_{31}^{(2)} \frac{\partial^4}{\partial t^4} + p_{32}^{(2)} \frac{\partial^4}{\partial t^2 \partial z^2} + \right.$$
$$\left. + p_{33}^{(2)} \frac{\partial^4}{\partial z^4} + p_{34}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + p_{35}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + p_{36}^{(2)} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} + \left\{ j_{31}^{(2)} \frac{\partial^3}{\partial t^2 \partial z} + j_{32}^{(2)} \frac{\partial^3}{\partial z^3} + j_{33}^{(2)} \frac{\partial}{\partial z} \right\} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

$$\sigma_{rz}^{(2)} = q_{41}^{(2)} \frac{\partial}{\partial z} U_{r,0}^{(0)} + n_{41}^{(2)} U_{z,0}^{(0)} + \left\{ p_{41}^{(2)} \frac{\partial^3}{\partial t^2 \partial z} + p_{42}^{(2)} \frac{\partial^3}{\partial z^3} + p_{43}^{(2)} \frac{\partial}{\partial z} \right\} \xi U_{r,1}^{(0)} +$$
$$+ \left\{ j_{41}^{(2)} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + j_{42}^{(2)} \right\} \xi U_{z,1}^{(0)};$$

bu yerda q_{ij}, p_{ij}, n_{ij} va j_{ij} uch qatlamli konussimon qobiqning geometrik va fizik parametrlariga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarmas koeffitsiyenlar.

Xulosa. Ushbu maqolada transversal-izotrop uch qatlamli konussimon qobiqning bo‘ylama-radial tebranishlari masalasining to‘liq matematik modeli ishlab chiqildi. Matematik amallar va soddalashtirishlar natijasida qobiqning bo‘ylama-radial tebranishlarini to‘liq tavsiflovchi yakuniy tenglamalar sistemasi va uch qatlamli konussimon qobiqning ichki, o‘rta hamda tashqi qatlamlaridagi ko‘chish va kuchlanishlarni aniqlovchi ifodalar keltirib chiqarildi. Uch qatlamli konussimon qobiqning bo‘ylama-radial tebranish tenglamalari sistemasi yechilib izlanuvchi funksiyalar topiladi. Topilgan izlanuvchi funksiyalar ko‘chish va kuchlanishlarning ifodalariga qo‘yilib, har bir qatlamning ko‘chish va kuchlanishlari aniqlanadi.

Olingan natijalar uch qatlamli konussimon qobiqlarning dinamik xususiyatlarini nazariy jihatdan chuqurroq tushunishga xizmat qilib, aviatsiya, gidrotexnika inshootlari, transport vositalari va qurilish sanoatida qo‘llaniladigan yengil va yuqori mustahkamlikka ega ko‘p qatlamli konstruksiyalarni loyihalashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Григолюк Э.И., Чулков П.П. Устойчивость и колебания трехслойных оболочек. М., Машиностроение, 1973, 170 с.

(2). Григолюк Э.И., Чулков П.П. Критические нагрузки трехслойных цилиндрических и конических оболочек. Новосибирск, Зап. Сиб. кн. изд-во, 1966, 221 с.

(3). Ильгамов М.А., Иванов В.А., Гулин Б.А. Прочность, устойчивость и динамика оболочек с упругим заполнителем. М., “Наука”, 1977, 331 с.

(4). Латифов Ф.С. Колебания оболочек с упругой и жидкой средой. Баку, “Элм”, 1999, 164 с.

(5). Худойназаров Х.Х., Халмурадов Р.И., Ялгашев Б.Ф. Продольно-радиальные колебания упругой цилиндрической оболочки с вязкой сжимаемой жидкостью // КиберЛенинка, 2021.

(6). B.F.Yalgashev, E.A.Ismoilov, Z.B.Khudayberdiyev Torsional Vibrations of Layered Cylindrical Viscoelastic Shells and Rods // AIP Conference Proceedings 2637, 030023 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0118588. Published Online: 20 October 2022.

Qurbonov Ergash Qurolovich (Jizzax davlat Pedagogika universiteti dotsenti; ergash_qurbonov68@mail.ru)

LOBACHEVSKIY TEKISLIGINING PUANKARE YARIM TEKISLIK MODELI VA UNING GEODEZIK CHIZIQLARI

Annotatsiya. *Uch o‘lchovli yevklid fazosida regulyar holida Lobachevskiy tekisligi to‘laligicha mavjud emas. Shuning uchun bu geometriyani uning modellari yordamida o‘rganish qulayroqdir. Maqolada Lobachevskiy tekisligining Puankare yuqori yarim tekislik modeli hamda uning geodezik chiziqlari aniqlangan. Avvalo modelning asosiy tushunchalari hamda metrikasi aniqlangan. Puankarening yuqori yarim tekislik modeli metrikasidan foydalanib, Eyler-Lograng tenglamalari vositasida modelning geodezik chiziqlari aniqlangan. Natija shundan iboratki, modelning geodezik chiziqlari aylana yoylaridan hamda vertikal to‘g‘ri chiziqlardan iborat.*

Kalit so‘zlar: *Puankare modeli, giperbolik to‘g‘ri chiziq, vertikal to‘g‘ri chiziq, Eyler-Lograng tenglamalari, yuqori yarim tekislik.*

МОДЕЛЬ ВЕРХНЕЙ ПОЛУПЛОСКОСТИ ПУАНКАРЕ, ПЛОСКОСТИ ЛОБАЧЕВСКОГО И ЕЁ ГЕОДЕЗИЧЕСКИЕ ЛИНИИ

Аннотация. *В трёхмерном евклидовом пространстве плоскость Лобачевского в обычном виде не существует целиком. Поэтому изучать эту геометрию более удобно с помощью её моделей. В статье рассматриваются модель верхней полуплоскости Пуанкаре плоскости Лобачевского и её геодезические линии. Прежде всего определены основные понятия и метрика модели. С использованием метрики модели верхней полуплоскости Пуанкаре геодезические линии модели определены посредством уравнений Эйлера–Лагранжа. Полученный результат показывает, что геодезические линии модели состоят из дуг окружностей и вертикальных прямых линий.*

Ключевые слова: *модель Пуанкаре, гиперболическая прямая, вертикальная прямая, уравнения Эйлера–Лагранжа, верхняя полуплоскость.*

THE POINCARÉ UPPER HALF-PLANE MODEL OF THE LOBACHEVSKIAN PLANE AND ITS GEODESIC LINES

Annotation. *The Lobachevskian plane does not exist entirely in its usual form in three-dimensional Euclidean space. Therefore, it is more convenient to study this geometry using its models. This paper considers the Poincaré upper half-plane model of the Lobachevskian plane and its geodesic lines. First, the fundamental concepts and the metric of the model are defined. Using the metric of the Poincaré upper half-plane model, the geodesic lines of the model are determined by means of the Euler–Lagrange equations. The result shows that the geodesic lines of the model consist of arcs of circles and vertical straight lines.*

Keywords: *Poincaré model, hyperbolic line, vertical straight line, Euler–Lagrange equations, upper half-plane.*

Kirish. Lobachevskiy geometriyasiga bag‘ishlangan o‘zbek tilida yozilgan o‘quv qo‘llanmalarning, ilmiy maqolalarning mavjud emasligining o‘zi bu geometriyaga bag‘ishlangan maqolalar yozish bugungi kunning birinchi raqamli vazifasi ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Skopus jurnallari tarkibiga kirucvhi jurnallarda keyingi besh yillikda nashirdan chiqqan maqolalarga e’tibor qilsak, Lobachevskiy geometriyasiga bag‘ishlangan kam sonli maqolalarni uchratish mumkin. Bulardan Lobachevskiy geometriyasini o‘rganish, unga bag‘ishlangan maqolalar yozish bugungi kunning dolzarb masalalarida biri ekanligi kelib chiqadi. Mazkur maqolada Lobachevskiy tekisligining klassik modellaridan Puankarening yarim tekislik modeli va uning geodezik chiziqlari keltirilgan. Barcha ilmiy manbalarda lobachevskiy tekisligining geodezik chiziqlari bilan bog‘liq masalarni yechishda Puankarening yarim tekislik modelida qabul qilingan asosiy tushunchalardan to‘g‘ridan to‘gri fodalanilgan. Nima uchun ko‘pburchaklarni yasashda, ularning yuzalarini aniqlashda uzunlik sifatida aylana yoylarida foydalanish mumkinligi qayd etilmagan. Aniq qilib aytganda, Puankare yarim tekislik modelida qabul qilingan asosiy tushunchalarini aksioma sifatida qabul qilib, undan to‘g‘ridan to‘gri foydalanilgan. Ushbu maqolada, avvalo, modelning metrikasi keltirilgan. Bu metrikaga Eyler-Logranj tenglamasini tatbiq etish natijasida Lobachevskiy tekisligining geodezik chiziqlari aylana yoylaridan hamda vertikal nurlardan iborat ekanligi isbot qilingan.

Adabiyotlar tahlili. [1] maqolada giperbolik tekislikda interpolatsion geometrik subdivision bo‘linish sxemalari o‘rganilgan. Giperbolik interpolatsion geometrik subdivision bo‘linish sxemasi bu giperbolik tekislikda oldindan berilgan nuqtalardan foydalanib, har bir bosqichda yangi nuqtalar hosil qiladigan va limitga o‘tish natijasida berilgan nuqtalarning barchasidan o‘tuvchi silliq egri chiziq hosil qiluvchi geometrik algoritmdir. Mualliflar giperbolik geodeziklar va giperbolik trigonometriyadan foydalanib, egri chiziqlarni hosil qilish usullarini ishlab chiqqanlar.

[2] maqolada giperbolik tekislik uchun baritsentrik koordinatalar tushunchasi ishlab chiqilgan. Boshqacha aytganda, mualliflar barycentrik koordinatalarning giperbolik tekislikdagi ko‘rinishini aniqlaganlar. Mualliflar giperbolik tekislikda berilgan ko‘pburchakning uchlarida yotgan nuqtalar orqali shu ko‘pburchakning ichida yotgan nuqtani aniqlaydilar. Su maqsadda nuqtaning uch xil koordinatalari kiritiladi. Ko‘pburchak ichida yotgan nuqtani oddiy aylana yoylari bilan uchlarda yotgan nuqtalar bilan tutashtirish mumkin. Natijada ichkarida yotgan nuqtadan uchlargacha bo‘lgan masofa va bu masofa bilan tomonlar orasida burchaklar hosil bo‘ladi. Yangi koordinatalar shular asosida yaratilgan. Shuningdek, bu koordinatalarning Puankare disk modelidagi ko‘rinishi ham o‘rganiladi. Ish geometriyani kompyuter grafikasi, sirtlarni deformatsiya qilish va geometrik modellashtirish bilan bog‘laydi.

[3] Ushbu maqolada Puankare yuqori yarim tekisligi giperbolik fazo sifatida qaralib, unda akustik to‘lqinlarning tarqalishi matematik odellashtirilgan. Muallif, dastlab, variatsion prinsipdan foydalanib modelni quradi, so‘ngra Puankare yarim tekisligining geometrik va fizik xususiyatlarini tahlil qiladi. Maqolaning oxirida akustik potensialning to‘g‘ri to‘rtburchak sohadagi sonli misoli keltiriladi.

[4] maqolada Puankare yuqori yarim tekisligida magnit maydon ta’siridagi Shredinger operatorlari o‘rganilgan. Mualliflar tekislikdagi Akira Ivatsukaning ilmiy natijalarini giperbolik geometriyadagi ko‘rinishini ishlab chiqadilar va doimiy magnit maydondan og‘ishlar ostida spektrning barqarorligini tadqiq qiladilar. Maqola bevosita Puankare yuqori yarim tekisligi modelida bajarilgan.


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Puankare yarim tekisligida geodezik chiziqlarni aniqlash masalasi analitik va variatsion yondashuv usulida aniqlangan. Tadqiqotning asosiy metodologik g‘oyasi geometriyaning tayyor natijalaridan bevosita foydalanish emas, balki Puankare yarim tekisligida berilgan metrikadan kelib chiqib, geodezik chiziqlarning differensial tenglamalarini hosil qilish va ularni analitik usulda yechishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida yuqori yarim tekislik qaraladi. Unda yarim tekislik metrikasi olinadi. Ushbu metrika asosida egri chiziqning uzunligi uchun funksional tuziladi. Geodezik chi-

ziqlar mazkur funksionalning ekstremallari sifatida qaralib, ularga Eyler–Lagranj tenglamalari tadbiq etildi. Natijada funksiyalarini bog‘lovchi differensial tenglamalar sistemasi hosil qilindi. Mazkur sistema Puankare yarim tekisligi metrikasiga mos geodezik chiziqlarning differensial tenglamalari sifatida qabul qilindi.


Tahlil va natijalar. Keyingi bosqichda hosil qilingan differensial tenglamalar sistemasi analitik usullar yordamida yechildi. Tenglamalar sistemasining yechimlari orqali geodeziklarning umumiy ko‘rinishi aniqlanib, ularning geometrik shakli tadqiq qilindi. Bunda yechimlarning boshlang‘ich shartlarga va integrallash konstantalariga bog‘liqligi hamda ularning Puankare yarim tekisligidagi joylashuvi tahlil qilindi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotning yakuniy bosqichida olingan analitik yechimlar geometrik nuqtayi nazardan talqin qilindi. Xususan, markazi cheksiz uzoqlashgan nuqtada joylashgan aylana yoylari hamda vertikal to‘g‘ri chiziqlar differensial tenglamalar sistemasining yechimlari ekanligi ko‘rsatildi. Shu asosda ushbu egri chiziqlarning Puankare yarim tekisligidagi geodezik chiziqlar ekanligi teorema ko‘rinishida ifodalanib, analitik hisoblashlar orqali isbotlandi.

1.1. Lobachevskiy tekisligining Puankare yarim tekislik modeli. Yevklid tekisligini ixtiyoriy gorizontal joylashgan a to‘g‘ri chiziq bilan ikkita yarim tekisliklarga ajratamiz. Yuqori yarim tekislikni Lobachevskiy tekisligi, uning nuqtalarini Lobachevskiy tekisligining nuqtalari sifatida, markazi gorizontal to‘g‘ri chiziqda joylashgan yuqori yarim aylana yoylarini hamda gorizontal to‘g‘ri chiziqqa vertikal bo‘lgan yuqori yarim b to‘g‘ri chiziqlarni Lobachevskiy tekisligining to‘g‘ri chiziqlari sifatida, gorizontal to‘g‘ri chiziqda yotgan nuqtalarni Lobachevskiy tekisligining cheksiz uzoqlashgan nuqtalari sifatida qabul qilamiz. Natijada Lobachevskiy tekisligining yuqori yarim tekislik modeli hosil bo‘ldi.



Quyidagi rasmda Puankarening yuqori yarim tekislik modelida parallel va uzoqlashuvchi to‘g‘ri chiziqlarning o‘zaro joylashuvi keltirilgan.



Endi modelda qabul qilingan asosiy tushunchalarni dekart talqinlarini keltiramiz. Aniq qilib aytganda yuqori yarim vertikal to‘g‘ri chiziqlar hamda hamda yuqori yarim aylana yoylari haqiqatdah ham Lobachevskiy tekisligining to‘g‘ri (geodezik) chiziqlari ekanligini ko‘rsatamiz.

1.2. Puankare yuqori yarim tekislik modelining geodezik chiziqlari. Keltirilganlardan yuqori yarim tekislik modelni quyidagi ko‘rinishda belgilash mumkin:

$$H_2 = \{M(x,y) : y > 0\}$$

(Ox) abssissalar o‘qini gorizontal a to‘g‘ri chiziq sifatida qabul qilamiz. U holda uning tenglamasi $y = 0$ ko‘rinishida bo‘ladi. Yevklid tekisligining metrikasi

$$ds^2 = dx^2 + dy^2$$

ko‘rinishda ekanligidan foydalanib, Puankarening yuqori yarim tekislik modelining metrikasini hosil qilish mumkin:

$$ds^2 = \frac{dx^2 + dy^2}{y^2} \quad (1.1)$$

Agar shu metrika to‘g‘ri bo‘lsa, koordinatalar boshidan ordinatalar o‘qining istalgan nuqtasigacha bo‘lgan masofa cheksiz kata bo‘lishligi kerak. Chunki gorizontal to‘g‘ri chiziqqa, ya’ni, (Ox) abssissalar o‘qiga tegishli bo‘lgan nuqtalar modelning cheksiz uzoqlashgan nuqtalaridir. Ma’lumki, ordinatalar o‘qi bo‘ylab masofani aniqlash uchun $x = 0$ deb alish kerak. U holda izlanayotgan masofa:

$$ds = \sqrt{\frac{dx^2 + dy^2}{y^2}} = \frac{\sqrt{dx^2 + dy^2}}{y},$$

$$s = \int_0^c \frac{dy}{y} = \ln|c| - \ln|0| = \ln|c| - \infty = \infty$$

Demak, ordinatasi nolga, abssissasi istalgan songa teng bo‘lgan har-qanday nuqta modelning cheksiz uzoqlashgan nuqtasi ekan.

1.1-teorema. H_2 yuqori yarim tekislik modelining geodezik chiziqlari yuqori yarim

$$(x-a)^2 + y^2 = R^2$$

aylana yoylaridan hamda yuqori yarim vertikal

$$x(t) = d, \;\; y = y(t) = t, \;\; t > 0$$

to‘g‘ri chiziqlardan iborat.

Isbot. Yuqori yarim tekislik modelining geodezik chiziqlari $y = y(x), \; y > 0$ ko‘rinishdagi tenglamaga ega bo‘lsin. U holda

$$dy = y'(x)dx \Leftrightarrow ds = \frac{\sqrt{dx^2 + dy^2}}{y} = \frac{\sqrt{1 + (y')^2}}{y}dx$$

Bundan Logranj funksiyasi

$$L(y, y') = \frac{\sqrt{1 + (y')^2}}{y} \quad (1.2)$$

ko‘rinishda ekanligi kelib chiqadi. Endi (1.2) Logranj funksiyasiga mos keluvchi Eyler-Logranj tenglamasini keltiramiz:

$$\frac{d}{dx}\left(\frac{\partial L}{\partial y'}\right) - \frac{\partial L}{\partial y} = 0$$

y va y' larni o‘zgaruvchilar sifatida qabul qilib, Logranj funksiyasidan hosilalar olamiz:

$$\frac{\partial L}{\partial y'} = \frac{y'}{y\sqrt{1 + (y')^2}}, \qquad \frac{\partial L}{\partial y} = -\frac{\sqrt{1 + (y')^2}}{y^2}$$

Topilgan xsusiy hosilalarni Eyler-Logranj tenglamasiga qo‘yamiz. U holda

$$\frac{d}{dx}\left(\frac{y'}{y\sqrt{1 + (y')^2}}\right) + \frac{\sqrt{1 + (y')^2}}{y^2} = 0$$

x bo‘yicha hosilani alohida hisoblaymiz:

$$\frac{d}{dx}\left(\frac{y'}{y\sqrt{1 + (y')^2}}\right) = \frac{y''}{y(1 + (y')^2)^{\frac{3}{2}}} - \frac{(y')^2}{y^2\sqrt{1 + (y')^2}}$$

Topilganlarni o‘z o‘rinlariga qo‘yamiz:

$$\frac{y''}{y(1+(y')^2)^{\frac{3}{2}}}-\frac{(y')^2}{y^2\sqrt{1+(y')^2}}+\frac{\sqrt{1+(y')^2}}{y^2}=0$$

Kasrlarni umumiy maxrajga keltirib soddalashtirsak,

$$yy''+(y')^2+1=0 \quad (1.3)$$

Oxirgi differensial tenglama Puankare yarim tekislik modelining geodezik chiziqlarini ifodalaydi.

$$\frac{d}{dx}(yy')=(y')^2+yy'$$

Ifodani etiborga olsak (1.3), tenglama $\frac{d}{dx}(yy')+1=0$ ko‘rinishga keladi.

Darhol birinchi integralni olamiz:

$$yy'+x=a=const$$

$$yy'=a-x$$

$$yy'=\frac{1}{2}\frac{d}{dx}(y^2)$$

Bu yerda $\frac{1}{2}\frac{d}{dx}(y^2)=a-x$ ekanligini e’tiborga olish kerak.

Ikkinchi integralni olamiz:

$$\frac{1}{2}y^2=ax-\frac{x^2}{2}+b \Leftrightarrow y^2=2ax-x^2+c$$

Oxirgi ifodani to‘la kvadratlarga keltiramiz:

$$y^2=-(x^2-2ax+a^2)+c+a^2 \Leftrightarrow y^2+(x-a)^2=a^2+c$$

O‘ng tomonni $a^2+c=R^2$ deb belgilash kiritsak, markazi abssissalar o‘qida joylashgan aylana tenglamasi hosil bo‘ladi:

$$y^2+(x-a)^2=R^2$$

Vertikal yarim to‘g‘ri chiziqlar ham geodezik chiziq ekanligini ko‘rsatish uchun

$$x(t)=d,\ \ y=y(t)=t,\ \ t>0$$

parametrik tenglamalardan foydalanamiz. Bunday holatlarda Eyler-Logranj tenglamalari ikkita bo‘ladi:

$$\begin{cases}\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial L}{\partial x'}\right)-\frac{\partial L}{\partial x}=0\\ \frac{d}{dt}\left(\frac{\partial L}{\partial y'}\right)-\frac{\partial L}{\partial y}=0\end{cases}$$

Logranj funksiyasi

$$L=\frac{\sqrt{x'^2+y'^2}}{y}$$

ga teng ekanligini hamda $x'(t)=0,\quad y'=1$ larni e’tiborga olsak, $L=\frac{1}{t}$.

Endi Eyler-Logranj tenglamasidan x va x' lar bo‘yicha hosilalar olamiz:

$$\frac{\partial L}{\partial x}=0,\qquad \frac{\partial L}{\partial x'}=\frac{x'}{y\sqrt{x'^2+y'^2}}$$

Vertikal chiziq tenglamasida $x(t)=d \Leftrightarrow x'(t)=0$ ekanligidan, $\frac{\partial L}{\partial x'}=0$.

Topilganlarni Eyler-Logranj tenglamasiga qo‘yamiz:

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial L}{\partial x'}\right)-\frac{\partial L}{\partial x}=\frac{d}{dt}(0)-0=0$$

Demak Eyler-Logranjning birinchi tenglamasi bajarildi. Endi Eyler-Logranjning ikkinchi

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial L}{\partial y'}\right)-\frac{\partial L}{\partial y}=0$$

tenglamasini bajarilishini ko‘rib chiqamiz:

$$\frac{\partial L}{\partial y}=-\frac{\sqrt{x'^2+y'^2}}{y^2},\qquad \frac{\partial L}{\partial y'}=\frac{y'}{y\sqrt{x'^2+y'^2}}$$

Topilganlarni ikkinchi tenglamaga qo‘yishdan oldin

$$x(t)=d \Leftrightarrow x'(t)=0,\quad y(t)=t,\ t>0,\quad y'(t)=1$$

Larni e’tiborga olish kerak. Demak, $\frac{\partial L}{\partial y'}=\frac{1}{t}$.

U holda $\frac{d}{dt}\left(\frac{1}{t}\right)=-\frac{1}{t^2}$, $\frac{\partial L}{\partial y}=-\frac{\sqrt{x'^2+y'^2}}{y^2}=-\frac{\sqrt{0^2+1^2}}{t^2}=-\frac{1}{t^2}$

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial L}{\partial y'}\right)-\frac{\partial L}{\partial y}=-\frac{1}{t^2}-\left(-\frac{1}{t^2}\right)=0$$

Demak, vertikal yarim to‘g‘ri chiziqlar ham geodezik chiziqlar bo‘lar ekan.

Fooydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Taoufik Ahanchaou, Aziz Ikemakhen. Hyperbolic interpolatory geometric subdivision schemes. Journal: of Computational and Applied Mathematics. 2022, p. 399–410.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi: urbanizatsiya fenomenining falsafiy mazmuni va ontologik xususiyatlarini aniqlash; axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va urbanizatsiya jarayonlari o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikni ochib berish; shahar makonining moddiy va raqamli shakllari o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish; raqamlashtirishning urbanistik jarayonlarga ta’sirini aniqlash; urbanizatsiyaning inson mavjudligi, ijtimoiy munosabatlar va madaniy muhit transformatsiyasidagi rolini yoritish; zamonaviy urbanizatsiyaning ijtimoiy-falsafiy istiqbollarini belgilash.

Tadqiqot obyekti. Axborotlashgan jamiyat sharoitida yuzaga kelayotgan urbanizatsiya jarayonlari, ularning ijtimoiy borliqdagi namoyon bo‘lish shakllari hamda inson, jamiyat va shahar makoni o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi.

Tadqiqot predmeti. Aaxborotlashgan jamiyatda urbanizatsiya fenomenining ontologik mazmuni, uning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, raqamlashtirish, globallashuv va innovatsion jarayonlar bilan o‘zaro aloqadorligi hamda urbanizatsiyaning ijtimoiy borliq transformatsiyasiga ta’siridir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi urbanizatsiya fenomenining axborotlashgan jamiyat sharoitidagi ontologik xususiyatlarini kompleks falsafiy yondashuv asosida ochib berish bilan belgilanadi. Unda urbanizatsiya shahar aholisi va hududiy o‘sish jarayoni sifatida emas, balki inson va jamiyat mavjudligining mako-

niy-tashkiliy shakllarini o‘zgartiruvchi, real va raqamli makonlarning integratsiyasini ta’minlovchi murakkab ijtimoiy fenomen sifatida asoslanadi. Shuningdek, urbanizatsiyaning zamonaviy shakllanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli infratuzilma, innovatsion rivojlanish va yangi kommunikatsiya vositalarining ontologik ahamiyati ochib beriladi.

Yangi O‘zbekiston fenomeni bilan atalayotgan yurtimiz rivojining hozirgi bosqichida mamlakatimiz taraqqiyotiga xos bo‘lgan xususiyatlarni O‘zbekistonning eng yangi tarixini yaratish nuqtai nazaridan xolisona, kengroq o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev alohida ta’kidlaganidek: “Mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini chuqur o‘rganish vazifalari hali sifatli va to‘liq holda yechilgani yo‘q” [1;283-b.]. Shu nuqtayi nazardan, axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi uchun xarakterli bo‘lgan sivilizatsion xususiyatlarni, xususan, urbanizatsiyaning ontologik asoslarini o‘rganish muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi. Urbanizatsiya sivilizatsion taraqqiyotning natijasi bo‘lish bilan birga, uning keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilovchi muhim omildir. Axborotlashgan jamiyatda shaharlarning rivojlanishi iqtisodiy munosabatlar bilangina cheklanmay, jamiyatning madaniy, ma’naviy, siyosiy, texnologik va ijtimoiy tuzilishida ham chuqur transformatsiyalarni yuzaga keltiradi. Bu transformatsiyalar esa, o‘z navbatida, shahar mavjudligining yangi ontologik asoslarini shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jamiyat taraqqiyotida sivilizatsion yondashuvning mohiyatini «sivilizatsiya» tushunchasining tahlili orqali erishish mumkinligi to‘g‘risidagi urinishlar orasida Y.M. Amelina, A.C.Babushkin, M.A.Barg, E.Benvenist, B.S.Yerasov, I.N.Ionov kabilarning asarlarini qayd etish mumkin. Shuningdek, ushbu toifadagi adabiyotlar qatoriga o‘sha davrda chop etilgan izohli lug‘atlarni ham sanab o‘tish mumkin [2;92–102-b.]. Axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiyaning ontologik asoslarini tadqiq qilishda M.Kastelsning "Tarmoq jamiyati", E.Tofflerning "Uchinchi to‘lqin", D.Bellning "Postindustrial jamiyat" kabi asarlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy hayotdagi yangilanish va tub o‘zgarishlar, mafkuraviy islohotlar transformatsiyasini, ularga xos qonuniyatlar va ijtimoiy taraqqiyot strategiyalarida ma’naviy-mafkuraviy omillarning jamiyat taraqqiyotidagi falsafiy jihatlarini tadqiq etish, ularni ilmiy asoslash yanada dolzarblashmoqda. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyat sharoitida urbanizatsiyaning ontologik asoslarini o‘rganish – bu raqamli texnologiyalarning shahar mavjudligiga ta’siri, virtual shahar makonining shakllanishi, "aqlli shahar" konsepsiyasining falsafiy asoslari kabi masalalarni qamrab oladi.

Maqolani yoritishda analiz, sintez, taqqoslash, germenevtik tahlil, ontologik yondashuv kabi metodlardan foydalanildi. Ontologik yondashuv urbanizatsiyani borliqning maxsus shakli sifatida, uning axborotlashgan jamiyatdagi yangi mavjudlik usullarini o‘rganish imkonini beradi.

Muhokama. Urbanizatsiya – jamiyat hayotida shaharlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy roli oshib borishining tarixiy jarayoni [3;415-b.] hisoblanib, u, bugungi zamon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining uzviy qismiga aylanib ulgurdi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida esa urbanizatsiya yangi ontologik asoslarga ega bo‘lmoqda: raqamli texnologiyalar, tarmoq kommunikatsiyalari, virtual makon shahar mavjudligining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Urbanizatsiya tushunchasi, uning asosiy sabablari. Urbanizatsiya (lotincha urbanus – shahar) – jamiyat taraqqiyotida shaharlarning rolini oshirish jarayoni [4]. Maxsus shahar munosabatlari aholining ijtimoiy-kasbiy va demografik tuzilishini, turmush tarzini, ishlab chiqarishni joylashtirish va ko‘chirishni qamrab oladi. Urbanizatsiyaning zaruriy shartlari: sanoatning o‘sishi, hududiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi, shaharlarning madaniy-siyosiy funktsiyalarining rivojlanishi. Axborotlashgan jamiyatda bu shartlarga yana bir muhim omil – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, raqamli infratuzilmaning shakllanishi qo‘shiladi. Urbanizatsiya shaharlarga kirib borishi bilan tavsiflanadi qishloq aholisi va odamlarning qishloq muhitidan va eng yaqin kichik shaharlardan yirik shaharlarga (ish uchun, madaniy va maishiy ehtiyojlar uchun) o‘sib borayotgan mayatnik harakati. Shaharlar qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lgan, ammo shahar sivilizatsiyasi faqat bizning asrimizda paydo bo‘lgan. Axborotlashgan jamiyatda esa shahar sivilizatsiyasi yangi bosqichga – raqamli shahar sivilizatsiyasiga o‘tmoqda.

Sivilizatsion rivojlanish haqidagi ilmiy bahslarda urbanizatsiyani milliy va umumbashariy jihatlari, ularning madaniyatga ta’siri masalalari tadqiq etiladi. Urbanizatsiya global rivojlanishiga eltuvchi ijtimoiy-madaniy fenomen ekanini ochib beriladi. “Urbanizatsiya” tushunchasi uning asosiy yo‘nalishlari, tizimi, xususiyatlari va hududiy, regional jihatlari haqida turli qarashlar hamda urbanizatsiyani keng ijtimoiy-madaniy, jugrofiy, etnosotsial, arxitektura, boshqarish, infratuzilmalar, shahar xo‘jaligi, xizmatlar ko‘rsatish, demografiya va migrasiya, aglomerasiya, qishloq turmush tarzi, transport aloqalar kabi ko‘plab sohalar, omillar bilan bog‘liqligi haqida fikrlar bayon etiladi. Axborotlashgan jamiyatda bu omillarga yana raqamli

tengsizlik, internetdan foydalanish imkoniyati, raqamli savodxonlik, elektron xizmatlar, smart-city texnologiyalari kabi yangi omillar qo‘shiladi. “Sivilizatsiya” atamasining insoniyat tarixida ijtimoiy aloqa vositalari, til, boshqarish tizimi, shaharlar yuzaga kelgani bilan izohlanishi va sivilizatsiya va sivilizatsion rivojlanish haqidagi ilmiy bahslar hamda “urbanizatsiya” va “sivilizatsiya” tushunchalari, falsafiy-germenevtik nuqtai nazardan, bir-biriga yaqin va bir-birini to‘ldirib keluvchi voqeliklar ekanligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Axborotlashgan jamiyatda bu o‘zaro bog‘liqlik yanada kuchayib, raqamli makon va jismoniy shahar makoni o‘rtasida yangi ontologik munosabatlar shakllanmoqda.

Urbanizatsiyaga sivilizatsion taraqqiyot ko‘rinishi sifatida qarash bugungi tadqiqotchilarda ustivorlik qiladi. Muammoga retrospektiv yondashgan tadqiqotchilar urbanizatsiyaning ilk ko‘rinishlari eramizdan avvalgi 3-1 ming yilliklardayoq mavjud bo‘lganini qayd etishadi. Shaharsozlik, kishilarning o‘troq hayotga o‘tishi, umumiy normalar va turmush tarzining shakllanishi insoniyat tarixida shunday jarayonlar ediki, ular hayotni madaniylashtirish, osonlashtirish va qulaylashtirishni ustivor istakga aylantirdi. Keyingi global taraqqiyot ana shu paradigma mahsulidir. Axborotlashgan jamiyatda esa bu paradigma yangi mazmun kasb etadi: raqamli texnologiyalar orqali hayotni yanada qulaylashtirish, shahar xizmatlarini optimallashtirish, fuqarolarning shahar boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish imkoniyatlari paydo bo‘lmoqda. Urbanizatsiyaning navbatdagi belgilaridan biri aholi sonining oshishi, ya’ni ijtimoiy-demografik omil bilan bog‘liq. Axborotlashgan jamiyatda esa bu omil raqamli demografiya, virtual migratsiya kabi yangi ko‘rinishlarga ega bo‘lmoqda. Urbanizatsiyaning ontologik asoslari – uning borliq bilan munosabati, yangi raqamli voqelikda shahar mavjudligining ma’no-mazmuni masalasi birinchi o‘ringa chiqmoqda.

Natijalar. Shuni ham ta’kidlash joizki, axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiya bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi: aholining hudud bo‘yicha taqsimlanishida muvozanat buziladi; ekologik buzilishlar, aholining nosog‘lom muhiti muammolari – shovqin, havo ifloslanishi, yuqumli xavf, ultratovush nurlanishi, transport muammolari, binolarni siqish va boshqalar; salbiy ijtimoiy oqibatlar – jinoyatchilik, giyohvandlik, fohishalik va boshqalarning o‘sishi. Bundan tashqari, axborotlashgan jamiyatda yangi salbiy omillar ham paydo bo‘lmoqda: raqamli tengsizlik, internetga ulanish imkoniyatining cheklanganligi, kiberjinoyatchilik, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasizligi, raqamli qaramlik, virtual muhitda yolg‘izlik va ijtimoiy izolyatsiya. Bu omillar urbanizatsiyaning ontologik asoslarini qayta ko‘rib chiqishni, shahar mavjudligining yangi shakllarini falsafiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Urbanizatsiya zamonamizning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonidir. Uning rivojlanishida uch bosqich mavjud:

1. Dastlabki bosqich – 19-asr. Urbanizatsiya jarayoni Yevropa va Shimoliy Amerikada boshlandi;
2. XX asrning birinchi yarmi. Bu bosqich shahar aholisi o‘sishining tezlashishi va urbanizatsiyaning dunyoning deyarli barcha mintaqalariga tarqalishi bilan tavsiflanadi;
3. XX asrning ikkinchi yarmi. Ushbu bosqich shahar aholisining o‘sish sur’atlarining yanada tezlashishi, yirik shaharlarning rivojlanishi, nuqta shahardan aglomeratsiyaga (shaharlar va qishloq aholi punktlarining hududiy guruhiga) o‘tish, shuningdek, aholi punktlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi – megalopolislar (shahar aglomeratsiyalarining birlashishi), bu esa shahar turmush tarzining qishloq joylariga tarqalishiga olib keladi.

Axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiyaning to‘rtinchi bosqichi – raqamli urbanizatsiya bosqichi shakllanmoqda. Bu bosqich quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- Raqamli texnologiyalarning shahar infratuzilmasiga chuqur integratsiyalashuvi.
- "Aqlli shahar" (smart city) konsepsiyasining joriy etilishi.
- Virtual va real shahar makonining o‘zaro bog‘liqligi.
- Shahar xizmatlarining raqamlashtirilishi va avtomatlashtirilishi.
- Fuqarolarning shahar boshqaruvidagi ishtirokining elektron platformalar orqali kengayishi.
- Raqamli makonda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi.

Bu bosqichda urbanizatsiyaning ontologik asoslari tubdan o‘zgaradi: shahar endi nafaqat jismoniy makon, balki raqamli makon hamdir. Shahar mavjudligi ikki qatlamda – real va virtual qatlamda kechadi. Bu esa, o‘z navbatida, shahar tushunchasining o‘zini qayta ta’riflashni taqozo etadi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot bosqichida urbanizatsiyalash tomon qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 10-iyulda urbanizatsion taraqqiyotni ta’minlashga oid maxsus “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Unda Respublikamiz ijtimoiy taraqqiyotida urbanizatsiya jarayonlari yetarli darajada hisobga olinmagani ta’kidlanadi. Natijada so‘nggi yillarda urbanizatsiya darajasining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, shahar aholi punktlari soni atigi 1065 dan 1071 gacha ko‘pay-

gan. Yirik qishloq aholi punktlarini shahar posyolkalariga aylantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bugungi urbanizatsiya darajasi shaharlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy talablarga javob bermaydi va jahon tendensiyalaridan sezilarli darajada qolib ketmoqda. Bunda urbanizatsiya darajasi hanuzgacha barqaror xususiyatga ega emas. Zamonaviy urbanizatsiya faqat shaharsozlik, binolar qurish emas, u keng ma’nodagi shahar madaniyatini, shahar aholisining barcha ehtiyojlarini qondirishga loyiq infratuzilma yaratishni taqozo etadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida esa bu infratuzilma raqamli komponentni ham o‘z ichiga olishi, raqamli tengsizlikni bartaraf etish, barcha fuqarolarning axborot resurslaridan teng foydalanishini ta’minlash kabi vazifalarni ham hal qilishi kerak.

Xulosa. Shunday ekan, sivilizatsion yondashuvda axborotlashgan jamiyat sharoitida urbanizatsiya jarayonlari muhim o‘rin egallashi tabiiy holdir. Urbanizatsiya jarayonlarini ilmiy tadqiq qilish taraqqiyot strategiyamizda belgilangan ustuvor vazifalarni hal etishda muhim o‘rin tutadi. Axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiyaning ontologik asoslarini o‘rganish – bu shahar mavjudligining yangi shakllarini, raqamli makonning shahar hayotiga ta’sirini, virtual va real shahar muhitining o‘zaro munosabatini falsafiy tahlil qilish demakdir.

Fuqarolarimiz tafakkur tarzini o‘zgartirishimiz orqali urbanizatsiya natijasida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning oldini olishimiz mumkin. Axborotlashgan jamiyat sharoitida bu tafakkur tarzini o‘zgartirish raqamli savodxonlikni oshirish, axborot madaniyatini shakllantirish, raqamli tengsizlikni bartaraf etish, shahar boshqaruvida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash kabi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatda urbanizatsiya fenomenining ontologik asoslari quyidagilardan iborat:

1. Shahar endi nafaqat jismoniy, balki raqamli makonda ham mavjud.
2. Smart-city, IoT, sun’iy intellekt kabi texnologiyalar shahar hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda.
3. Shahar jamoasi endi nafaqat hududiy, balki tarmoq asosida ham shakllanmoqda.
4. An’anaviy shahar madaniyati raqamli madaniyat bilan integratsiyalashmoqda.
5. Raqamli tengsizlik, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi kabi muammolar shahar mavjudligining yangi ontologik o‘lchovlarini belgilaydi.

Bu ontologik asoslarni chuqur o‘rganish O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun muhim ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘nalishimizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘tarilamiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017, 283-bet.

[2]. Амелина Е.М. Понятие «цивилизация» вчера и сегодня. Общественные науки и современность. 1992, № 2, с. 92–102.

[3]. Falsafa. Qomusiy lug‘at. T.oshkent, “Sharq”, 2004, 415-bet.

[4]. https://demografiya.uz/uz/wiki/urbanizatsiya/

Raximov Gayrat Buvaxanovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.)

YANGI O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKT RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI VA TARAQQIYOT QONUNIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalari rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari, uning jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy hayotga ta’siri tadqiq etiladi. Sun’iy intellektning ilmiy-texnik taraqqiyot mahsuli sifatidagi mohiyati, inson intellektual faoliyati bilan o‘zaro aloqadorligi hamda raqamli jamiyat shakllanishidagi o‘rni falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, sun’iy intellekt, ijtimoiy falsafa, ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli jamiyat, intellektual rivojlanish, inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar, texnologik transformatsiya, insonparvarlik.*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В данной статье исследуются социально-философские основы развития технологий искусственного интеллекта в условиях Нового Узбекистана, а также их влияние на развитие общества, человеческое мышление, социальные отношения и духовную жизнь. С философской точки зрения анализируются сущность искусственного интеллекта как продукта научно-технического прогресса, его взаимосвязь с интеллектуальной деятельностью человека и роль в формировании цифрового общества.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, искусственный интеллект, социальная философия, научно-технический прогресс, цифровое общество, интеллектуальное развитие, человеческое мышление, социальные отношения, технологическая трансформация, гуманизм.*

SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS AND DEVELOPMENT PATTERNS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN NEW UZBEKISTAN

Annotation. *This article examines the socio-philosophical foundations of the development of artificial intelligence technologies in the context of New Uzbekistan, as well as their impact on societal development, human thinking, social relations, and spiritual life. It provides a philosophical analysis of the essence of artificial intelligence as a product of scientific and technological progress, its interrelationship with human intellectual activity, and its role in the formation of a digital society.*

Keywords: *New Uzbekistan, artificial intelligence, social philosophy, scientific and technological progress, digital society, intellectual development, human thinking, social relations, technological transformation, humanism.*

Kirish. Bugungi davrda jamiyat taraqqiyotining mazmuni va yo‘nalishlari ilmiy-texnik yangilanishlar bilan bevosita bog‘liq holda shakllanmoqda. Ilgari insonning jismoniy mehnatini yengillashtirishga xizmat qilgan texnologiyalar hozirgi bosqichda uning aqliy faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellektning rivojlanishi insonning bilish, tahlil qilish, qaror qabul qilish va ijodiy faoliyat yuritish jarayonlariga yangicha mazmun olib kirmoqda. Mazkur jarayon sun’iy intellektni faqat texnik imkoniyatlar doirasida emas, balki jamiyat taraqqiyotining murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisasi sifatida o‘rganishni talab etadi. Chunki texnologik yangilanishlarning ahamiyati ularning qanchalik takomillashganligi bilangina belgilanmaydi. Ularning inson hayotiga qanday ta’sir qilishi, jamiyatdagi munosabatlarni qay darajada o‘zgartirishi va qanday yangi ehtiyojlarni shakllantirishi ham muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-qarorida tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” mamlakatda ushbu sohani rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab berdi [1].

Biroq sun’iy intellektni rivojlantirish masalasini faqat texnologiyalarni ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etish bilan chegaralash yetarli emas. Bu jarayonning tub mohiyatida inson va texnika munosabatlarining o‘zgarishi, intellektual mehnatning yangi shakllari paydo bo‘lishi, axborotning ijtimoiy qadriyatga aylanishi hamda jamiyatning o‘zini anglash imkoniyatlari kengayishi yotadi. Shu jihatdan sun’iy intellekt rivojlanishini falsafiy tahlil qilish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining nafaqat texnologik, balki insoniy va ma’naviy istiqbollarini aniqlashga ham xizmat qiladi.

Sun’iy intellektning falsafiy mohiyatini anglashda, avvalo, tabiiy va sun’iy intellekt o‘rtasidagi munosabatga e’tibor qaratish zarur. Tabiiy intellekt insonning hayotiy tajribasi, ongli faoliyati, ijtimoiy munosabatlari, hissiy kechinmalari va maqsadli harakatlari asosida shakllanadi. Sun’iy intellekt esa inson tomonidan yaratilgan algoritmlar, hisoblash tizimlari va ma’lumotlarni qayta ishlash mexanizmlariga tayanadi. Ularning har ikkalasi axborot bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, mazmunan, bir xil hodisa hisoblanmaydi. Inson ma’lumotlarni o‘zining dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy tajribasi bilan bog‘lab baholaydi. Sun’iy intellekt esa dasturiy tuzilishi va o‘rganilgan qonuniyatlar asosida natija hosil qiladi.

Demak, inson tafakkurining o‘ziga xos xususiyati uning faqat axborotni qayta ishlashida emas, balki mazkur axborotga ma’no berishi, uni qadriyatlar nuqtayi nazaridan baholashi va faoliyatining oqibatlari uchun javobgarlikni anglashidadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizningcha, sun’iy intellektning falsafiy mohiyati inson tafakkurini to‘liq takrorlashida emas, balki inson intellektual faoliyatining ayrim imkoniyatlarini texnologik vositalar orqali kengaytirishida namoyon bo‘ladi. Ushbu holat inson va texnika o‘rtasidagi munosabatlar rivojlanishida yangi bosqich yuzaga kelayotganligini ko‘rsatadi. Endilikda texnika faqat mehnat quroli emas, balki tahliliy

jarayonlarning faol yordamchisiga aylanmoqda. Biroq bu o‘zgarish insonning ijtimoiy hayotdagi yetakchi mavqeyini inkor etmaydi. Aksincha, texnologiyalardan maqsadli foydalanish, ularning imkoniyatlarini baholash va natijalarini ijtimoiy manfaatlarga yo‘naltirishda insonning mas’uliyati yanada ortadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, jamiyat taraqqiyoti uzluksiz o‘zgarishlar, ichki ziddiyatlar va yangilanishlar orqali amalga oshadi. Har qanday yangi texnologiya mavjud ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi, ayni vaqtda, jamiyatning iqtisodiy, madaniy hamda ilmiy ehtiyojlari asosida rivojlanadi. Sun’iy intellectning paydo bo‘lishi ham mazkur qonuniyatning amaliy ifodasidir. Jamiyatda axborot hajmining ortishi, ilmiy bilimlarning murakkablashuvi, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining tezlashuvi ma’lumotlarni qayta ishlashning yangi vositalariga ehtiyoj tug‘dirdi.

Shu bilan birga, uning rivojlanishi yangi ehtiyojlar, kasbiy yo‘nalishlar va ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayonni ikki tomonlama dialektik aloqadorlik sifatida izohlash mumkin. Bir tomondan, jamiyat sun’iy intellektni rivojlantirish uchun ilmiy, iqtisodiy va texnologik shart-sharoitlar yaratadi. Ikkinchi tomondan, sun’iy intellekt jamiyatning mehnat taqsimoti, bilim olish, boshqaruv va muloqot shakllariga ta’sir qiladi.

Shu asosda quyidagi falsafiy xulosaga kelish mumkin: sun’iy intellekt jamiyat taraqqiyotining tashqi omili emas, balki inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan va ijtimoiy munosabatlar tarkibida rivojlanayotgan texnologik hodisadir. Mazkur hodisaning yana bir muhim xususiyati unda imkoniyat va ziddiyatning bir vaqtda mavjudligidir. Sun’iy intellekt mehnat unumdorligini oshirishi, murakkab masalalarni hal etishga yordam berishi va ilmiy izlanishlarni tezlashtirishi mumkin. Biroq undan foydalanishda insonning mustaqil fikrlashi susayishi, ayrim kasbiy faoliyatlar mazmuni o‘zgarishi va axborotga qaramlik kuchayishi ehtimoli ham mavjud. Shuning uchun texnologik taraqqiyotning ijobiy natijalari o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Ular jamiyatning bilim darajasi, boshqaruv madaniyati, axloqiy tamoyillari va inson manfaatlariga qaratilgan siyosati bilan belgilanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellekt rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy asoslarini inson omilidan ajratib o‘rganish mumkin emas. Chunki mamlakat taraqqiyotida raqamli texnologiyalarni keng joriy etishning asosiy maqsadi inson hayotini yaxshilash, uning intellektual imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy faoliyat samaradorligini oshirishdan iborat bo‘lishi lozim. Bu borada sun’iy intellekt davlat boshqaruvi, ta’lim, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiy munosabatlarda muayyan imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Masalan, ta’lim jarayonida sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, individual ta’lim topshiriqlarini shakllantirish va o‘quv materiallarini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash mumkin. Ammo ta’limning mohiyati faqat ma’lumot yetkazishdan iborat emas. Ta’lim insonning dunyoqarashini, axloqiy pozitsiyasini, mustaqil tafakkurini va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantiruvchi murakkab jarayondir.

Shu bois sun’iy intellekt o‘qituvchining kasbiy faoliyatini to‘liq almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi texnologiya sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Davlat boshqaruvida esa sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni oldindan aniqlash va boshqaruv qarorlarini dalillarga tayangan holda tayyorlashda yordam berishi mumkin. Lekin ijtimoiy adolat, huquq va manfaatlar muvozanatini ta’minlash bilan bog‘liq yakuniy mas’uliyat vakolatli insonlar va institutlar zimmasida qolishi zarur. Bu yerda muhim falsafiy masala yuzaga keladi: texnologik imkoniyatning kengayishi har doim ham inson erkinligining kengayishini anglatadimi?

Bizning fikrimizcha, bu savolga bir tomonlama javob berish mumkin emas. Agar texnologiyalar insonning bilim olish, ishlash va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaxshilasa, ular erkinlikning kengayishiga xizmat qiladi. Aksincha, inson faoliyatini to‘liq nazorat qilish yoki uning mustaqil qarorlariga asossiz cheklovlar qo‘yish uchun ishlatilsa, texnologik rivojlanish erkinlik bilan ziddiyatga kirishishi mumkin.

Shunday ekan, sun’iy intellektning ijtimoiy ahamiyatini belgilashda texnik samaradorlik bilan bir qatorda inson erkinligi va ijtimoiy adolat mezonlari ham qo‘llanilishi kerak.

Tahlil va natijalar. Sun’iy intellekt rivojlanishining yana bir falsafiy jihati uning ilmiy bilish jarayoniga ta’siri bilan bog‘liq. Zamonaviy ilm-fanda axborotning ko‘payishi tadqiqotchidan katta hajmdagi manbalarni o‘rganish, ularni qiyoslash va murakkab ilmiy masalalarni tahlil qilishni talab etmoqda. Bunday sharoitda sun’iy intellekt ilmiy izlanishlarga yordam beruvchi samarali vositaga aylanishi mumkin. U tadqiqot materiallarini tizimlashtirish, muayyan qonuniyatlarni aniqlash, turli taxminlarni solishtirish va ilmiy natijalarni dastlabki baholashda foydalanilishi mumkin.

Ammo ilmiy bilishning maqsadi tayyor javoblarni tezkor olish emas. Uning asosiy mohiyati yangi muammoni anglash, ilmiy savol qo‘yish, dalillarni tekshirish va asoslangan xulosaga kelishdan iborat. Shu

jihatdan ilmiy ijodkorlikning insoniy mazmuni saqlanishi muhimdir. Sun'iy intellekt tadqiqotchining imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin, ammo ilmiy yangilikning ishonchliligi, metodologik asoslanganligi va ijtimoiy ahamiyatini baholash insonning tanqidiy tafakkuriga bog‘liq bo‘lib qoladi.

L.Floridi va J.Cowls sun'iy intellektning jamiyatdagi o‘rnini tahlil qilishda ezgulik, zarar yetkazmaslik, avtonomiya, adolat va tushuntiriluvchanlik tamoyillarini yagona axloqiy yondashuvda birlashtiradi [2]. Mazkur qarash sun'iy intellektning rivojlanishini nafaqat texnik natija, balki ijtimoiy mas'uliyat bilan bog‘liq jarayon sifatida baholash imkonini beradi. Bizningcha, Yangi O‘zbekistonda sun'iy intellekt rivojlanishining asosiy falsafiy yo‘nalishi texnologik imkoniyatlarni inson intellektual salohiyatining kengayishi bilan uyg‘unlashtirish bo‘lishi zarur.

Bunda sun'iy intellekt inson o‘rniga fikrlovchi mustaqil ijtimoiy subyekt sifatida emas, balki insonning bilish va yaratuvchanlik imkoniyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Sun'iy intellekt rivojlanishi bilan bog‘liq muhim muammolardan biri texnologik imkoniyatlardan foydalanishdagi ijtimoiy tafovutdir. Jamiyatning barcha a'zolari zamonaviy texnologiyalardan bir xil darajada foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shahar va qishloq hududlari, turli yosh guruhlari, ta'lim darajasi va iqtisodiy imkoniyatlari o‘rtasidagi farqlar raqamli texnologiyalardan foydalanishda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Agar sun'iy intellekt xizmatlari faqat muayyan ijtimoiy qatlamlar uchun qulay bo‘lsa, texnologik taraqqiyot mavjud tengsizliklarni kamaytirish o‘rniga ularni chuqurlashtirishi ehtimoli yuzaga keladi. Shu sababli texnologik taraqqiyotning falsafiy mezoni uning qanchalik murakkab mahsulotlarni yarata olishi bilangina emas, balki ushbu mahsulotlar jamiyatning turli qatlamlariga qanday foyda keltirishi bilan ham belgilanishi kerak.

BMT Taraqqiyot dasturining 2025-yilgi Inson taraqqiyoti to‘g‘risidagi hisobotida sun'iy intellekt davrida inson tanlovi va imkoniyatlarini kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan [3].

Ushbu yondashuv Yangi O‘zbekiston uchun ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki mamlakatda raqamli taraqqiyotning ijtimoiy samaradorligi fuqarolarning undan foydalanish imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq.

Bizningcha, sun'iy intellekt rivojlanishining ijtimoiy adolatga asoslangan modeli uchta shartni talab etadi: texnologik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholining raqamli bilimlarini rivojlantirish hamda sun'iy intellekt qo‘llanadigan sohalarda inson huquqlarini himoya qilish. Ushbu shartlar birgalikda amalga oshirilgandagina texnologik yangilanish jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Sun'iy intellektni rivojlantirishdagi eng muhim falsafiy masala uning insoniyat manfaatlariga qanchalik mos kelishidir. Texnologiya mustaqil ma'naviy qadriyat emas. Uning qadri inson va jamiyat hayotida bajaradigan vazifasi orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli sun'iy intellekt rivojlanishida inson sha'ni, qadr-qimmati, shaxsiy hayoti, mustaqil tanlovi va axborot xavfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. UNESCO tomonidan 2021-yilda qabul qilingan "Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence" hujjatida sun'iy intellektdan foydalanishda inson huquqlari, ijtimoiy adolat, xavfsizlik va axloqiy mas'uliyatning ahamiyati belgilangan [4]. Bu tamoyillar sun'iy intellektni ijtimoiy hayotga joriy etishda inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur masala O‘zbekiston sharoitida ham alohida dolzarbdir. Chunki mamlakatning raqamli rivojlanish istiqbollari bir vaqtning o‘zida texnologik yangilanish, ilmiy salohiyatni kuchaytirish, milliy qadriyatlarni saqlash va inson manfaatlarini himoya qilish vazifalari bilan bog‘liq.

Fikrimizcha, texnologik taraqqiyotning insonparvarlik mezonlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: texnologiyalarning inson hayotini yaxshilashga xizmat qilishi; shaxsning mustaqil fikrlashi va tanlovini cheklamasligi; jamiyatda adolatli imkoniyatlar yaratishi; axborotdan foydalanishda ochiqlik va mas'uliyatni ta'minlashi. Bunday yondashuv sun'iy intellektni jamiyatdan ajratilgan texnik hodisa sifatida emas, balki insoniy qadriyatlar bilan boshqariladigan ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida anglash imkonini beradi.

Yangi O‘zbekistonda sun'iy intellekt rivojlanishi mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Uning mazmuni raqamli texnologiyalarni kengaytirish bilangina cheklanmay, inson tafakkuri, mehnat faoliyati, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlarni ham qamrab oladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, sun'iy intellekt inson tafakkurining to‘liq muqobili emas, balki uning ayrim intellektual imkoniyatlarini texnologik jihatdan kengaytiruvchi vositadir.

Ikkinchidan, sun’iy intellektning rivojlanishi jamiyat ehtiyojlari va texnologik imkoniyatlar o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik asosida amalga oshadi. Bunda jamiyat texnologiyani yaratadi, texnologiya esa jamiyatning faoliyat shakllarini o‘zgartiradi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt taraqqiyotining ijtimoiy samaradorligi uning inson erkinligi, ilmiy tafakkur, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi.

To‘rtinchidan, Yangi O‘zbekistonda sun’iy intellektni rivojlantirishning falsafiy asosi inson manfaatlariga yo‘naltirilgan, ilmiy bilim va axloqiy mas’uliyat uyg‘unligiga tayangan texnologik taraqqiyot konsepsiyasida namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-qarori. “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 1-ilova, 1–2-boblar. https://lex.uz/acts/-7158604.

(2). Floridi L., Cowls J. A Unified Framework of Five Principles for AI in Society // Harvard Data Science Review. 2019, vol. 1, № 1. DOI: 10.1162/99608f92.8cd550d1.

(3). United Nations Development Programme. Human Development Report 2025: A Matter of Choice: People and Possibilities in the Age of AI. New York, UNDP, 2025, 307 p.

(4). UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris, UNESCO, 2021. Preamble; Chapter III, Values and Principles.

Abishov Genjebay Matjanovich (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); email: genjebaya@mail.ru)

XIX ASR QORAQALPOQ SHOIRLARI ASARLARIDA QO‘LLANILGAN ZOOTOPONIMLAR

Annotatsiya. *Zootoponimlar bizga suv obyektlarida, o‘rmon va cho‘llarda, dashtlarda yashovchi jonzotlar haqida qimmatli ma’lumot beradi. Bu maqolada XIX asr qoraqalpoq shoirlari asarlarida uchraydigan ayrim zootoponimlar tahlil qilindi. Ularning toponim tarkibida kelib, ta’kidlash sabablari o‘rganilib, asarlar tilida qo‘llanilish xususiyatlari aniqlandi. Zootoponimlarning lingvistik tadqiqi o‘sha joyning hayvonot dunyosini o‘rganishda muhim ekanligi isbotlab berildi.*

Kalit so‘zlar: *XIX asr qoraqalpoq shoirlari, zoootoponim, Qusxonatov, Qoraboyli, Qo‘tonko‘l.*

ЗООТОПОНИМЫ, ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ КАРАКАЛПАКСКИХ ПОЭТОВ XIX ВЕКА

Аннотация. *Зоотопонимы дают нам ценную информацию о животных, обитающих в водных объектах, лесах, пустынях и степях. В данной статье анализируются некоторые зоотопонимы, встречающиеся в произведениях каракалпакских поэтов XIX века. Причины их упоминания в составе топонимов были изучены, и были выявлены особенности их употребления в языке произведений. Лингвистическое изучение зоотопонимов доказало свою важность в изучении животного мира данной местности.*

Ключевые слова: *Каракалпакские поэты XIX века, зоотопоним, Кусханатау, Карабайлы, Кутанкуль.*

ZOOTOPONYMS USED IN THE WORKS OF 19TH-CENTURY KARAKALPAK POETS

Annotation. *Zootoponyms provide us with valuable information about animals living in water bodies, forests, deserts, and steppes. This article analyzes some zootoponyms found in the works of 19th-century Karakalpak poets. The reasons for their inclusion in toponyms were studied, and the specific features of their use in the language of the works were identified. The linguistic study of zootoponyms has proven its importance in studying the local fauna.*

Key words: *19th-century Karakalpak poets, zootoponym, Qusxanataw, Qarabayli, Qutankul.*

Kirish. Toponimlar til bilan jamiyat, tabiat va tarix o‘rtasidagi uzviy aloqani ko‘rsatib beruvchi onomastik birliklardir. Jumladan, hayvon nomlaridan yasalgan zootoponimlar hududning fauna tarkibini, aholining turmush tarzini, ya’ni, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik bilan aloqasini aks ettirishda alohida ahamiyatga ega.

XIX asr qoraqalpoq shoirlari asarlarining til xususiyatlari, so‘z qo‘llash mahorati lingvistik aspeklarda bir qancha o‘rganildi. Ammo ularning tug‘ilgan joy, Vatan mavzusidagi asarlarida uchraydigan zootoponimlarning semantik tavsiflari tilshunos olimlar tomonidan maxsus tadqiqot obyekti bo‘lgan emas.

Zootoponimlar, ko‘pincha, ma’lum bir joyda hayvon turlarining ko‘p tarqalganligi, shu hayvon bilan bog‘liq voqealar yoki xalqning mifologik tasavvurlari asosida paydo bo‘ladi. Hayvonlar sadoqat, jasorat, kuch, ayyorlik kabi ramziy ma’nolarga ham ega bo‘lib, bu ma’nolar toponimlarga ham o‘tishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hayvonot dunyosi insoniyot bilan birga hayot kechiradi. Qadimda qabilalar atrofdagi hayvonlarni o‘rganib, yashagan joylarida ularga mos nomlar bergan. Qozoq tilidagi joy nomlarini o‘rgangan T.Januzaqov: “Zoonimlar tilning har bir davri bo‘yicha boy material beradi. Ularning tarkibida eski grammatik shakllar, chetdan kirgan, tarixiy, dialektik so‘zlarni uchratish mumkin” deb keltiradi [5;69–70-b.]. Zoonimlarning toponimga aylanishini esa Tog‘li Oltoy o‘lkasining toponegizini o‘rgangan O.T.Malchonova hayvon, qush, jonivor nomlari to‘g‘ri ma’nosi orqali toponimga o‘tib, nomlar yasashini (masalan, *tulki – Tulki*), uy hayvonlarining nomi esa faqat ko‘chma ma’noda toponimga aylanishini aytadi [6;111–112-b.]. Ya’ni, hayvon nomlaridan yasalgan toponimlar semantik jihatdan obrazlilik bilan tavsiflanadi. Ularning mazmunida real fauna haqidagi ma’lumot bilan birga, ramziy va mifologik tushunchalar ham saqlanib qoladi. Masalan, *arslon – botirlik*, *bo‘ri – erkinlik va kuch, tulki – ayyorlik* bilan bog‘liq semantik qatlamni hosil qiladi.

Olimlar tomonidan zootoponimlarning alohida guruhlarga bo‘lib o‘rganilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, N.Oxunov o‘z asarida zootoponimlarni uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, suv hayvonlari, qushlar kabi guruhlarga ajratib o‘rgangan [7;44-b.].

Uy hayvonlari nomlarining nominativ funksiyada toponimga o‘tishining bir necha sabablarini ko‘rish mumkin: 1) *ayg‘ir, nor, buqa, ho‘kiz* – baland, katta hajmli geografik obyektlarni; *toy, baytal, bo‘ta,*

buzoq – hajmi kichik obyektlarni bildirgan; 2) uy hayvonlarining nomi to‘g‘ri ma’noda qo‘shma toponimlarni yasashda ishtirok etib, keyinchalik, ellipsga uchrashi mumkin; 3) uy hayvonlarining turini atamay, odamlar qo‘shimcha qo‘yadigan nom, laqablar; 4) xalq e’tiqodi bilan bog‘liq turli pirlarining nomidan yasalgan zootoponimlar [1;69-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. XIX asrdagi zootoponimlarning ayrimlari hozir ham qo‘llanilsa, ba’zilari unutilib ketgan. Shuning uchun ularning badiiy matnlardagi qo‘llanilish xususiyatini aniqlash qiyosiy tahlilni talab etadi. Bu tadqiqotning metodologiyasini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Hayvon nomlaridan yasalgan toponimlar toponimikaning eng qiziqarli va qadimiy qatlamlaridan biridir. Nom qo‘yishda hayvonot dunyosidan foydalanish bejiz emas, chunki unda muayyan geografik va tarixiy omillarga asoslanadi. Bu jarayonning asosiy sabablari: 1) ekologik va geografik omillar bo‘lib, o‘sha hududda ma’lum bir hayvon turining ko‘p uchrashi yoki o‘sha joyning shu hayvon uchun doimiy yashash makoni bo‘lishi mumkin (masalan, *Qoraboyli*). Ya’ni, odamlar ma’lum bir joyni boshqasidan farqlash uchun “bu yerda shu hayvon turi ko‘p” degan ma’noni asos qilib olgan; 2) chorvachilik va ijtimoiy turmush – xalqimizning ko‘p asrlik turmush tarzi chorvachilik bilan doimiy bog‘liq bo‘lganligi sababli uy hayvonlarining nomlari bilan bog‘liq joy nomlari uchraydi (masalan, *Ho‘kiz ariq*); 3) metaforik va tashqi o‘xshashlik – ayrim joy nomlari o‘sha joyning relyefiga (tuzilishiga) qarab, biror hayvonning tanasiga o‘xshatiladi (masalan, *Tuyamo‘yinyer*). Tog‘ning yoki tepaliklarning ko‘rinishi uzoqdan qaysi hayvonga o‘xshasa, xalq unga o‘sha nomni bergan (masalan: *Itqir*); 4) totemlik e’tiqodlar – qadimiy davrda ayrim urug‘-qabilalar hayvonlarni o‘zlarining homiysi (totemi) deb bilganlar. Bu, o‘z navbatida, shu qavmda yashaydigan hududning nomlanishiga ta’sir qilgan (masalan, *Yo‘lbarstepa*).

XIX asr qoraqalpoq adabiyoti namoyandalarining (Ajiniyoz, Berdaq, Kunxo‘ja va h.k.) asarlarida zootoponimlar tilning badiiy va tarixiy-etnografik qatlamini aniqlashda muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ularni qoraqalpoq shoirlari asarlari misolida tahlil qilib ko‘ramiz. Masalan:

Zábd etip, atlardı qamshılar soyıp,
***Qarabaylıǵa** da jettik, yaranlar.* (Ajiniyoz)

Qoraboyli – qushning turi. Qoraqalpog‘istonning Shumanay tumanida shu nom bilan ataladigan aholi punkti bor. Ilgari bu atrofdagi ko‘lda qoraboyli degan qush ko‘p bo‘lgan. Afsona va rivoyatlarga qaraganda, hozirgi *Qorabayli* degan joyda ming uy qora jalov bog‘lab o‘tirgan. Shu sababli bu yer *Qorabayli* deb nomlangan [8;60-b.].

Qıstap aydadı ma soldat zor berip,
*Bir kúni **Qusxana tawına** jetti.* (Qulmurot)

Qusxonatog‘ – Bo‘zatov tumanida aholi punkti. Bu hududdagi tepalik qushlarning makoni bo‘lgan. Odamlar uni *Qushxona, Qushning uyasi* deb ataydi. Bu tog‘ qushlarning ko‘p to‘planadigan joyi sifatida ma’lum.

Qattıaǵardan jıqqın ketti,
*Jıldam **Qotankólge** jetti.* (Abdiqodir)

Qo‘tonko‘l–S.Qorayevning fikricha, qo‘ton qushlar oilasidagi eng yirik qush bo‘lib, Qoraqalpog‘iston toponimlari tarkibida uchraydi [4;195-b.]. E.Qo‘ychiboyevning toponimlarga doir lug‘atida *Qo‘tanko‘l* toponimini dumaloq ko‘l sifatida ta’riflangan [3;150-b.]. Bu zootoponim tarkibidagi “qo‘ton” (pelikan) – suv qushi hisoblanadi. Nom o‘sha yerda ko‘l bo‘lganini va unda qo‘ton qushlarining yashaganini ifodalaydi.

*Bunnan bardıq **Juwan balıq**,*
Qosshılardan jollıq alıp. (Umar)

Juvonbaliq toponimi haqida E.Qo‘ychiboyev shunday deydi: “Baliq tepalikning nomi (Chimkent). Uning atrofida ko‘plab buloq bor, lekin baliq yo‘q. Shu nomning o‘zida baliq so‘zining bir ma’nosi “suv” degan tushunchani ham beradi. Shuning uchun *Baliqli* oroli vaqtida “suvli tepa” ma’nosidagi gidronimik orol deyish mumkin” [3;66-b.].

Úshewimiz sonshama jollardan ótip,
*Namazsham waqtında **Ugizge** jetip.* (Ajiniyoz)

*Bir neshe at keldi **Ógiz, Salaqtan**,*
Kózi alma kibi qayshı qulaqtan. (Qulmurot)

Ho‘kiz – leksemasi ishtirok etgan toponimlar o‘sha joyda shu hayvon turi ko‘p bo‘lganini, suv resurslarining kuchliligini yoki ariq shaklini (ho‘kizning shoxiga o‘xshash egri) bildiradi. Hozirgi kunda *Ho‘kiz*

ovul toponimi Amudaryo va Qo‘ng‘irot tumanlarida uchraydi. Masalan, Qo‘ng‘irot tumanidagi qishloqning nomlanish sababi, ilgari odamlar bu yerga ho‘kiz aravada ko‘chib kelgan [8;89-b.].

Xulosa va takliflar. Zootoponimlar xalq iste’molida bo‘lganligi sababli, ularning ma’nosi ko‘pchilikka tushunarli bo‘ladi. Shu bilan birga, ularni boshqa toponimlardan ajratish oson emas. Birinchidan, tarkibida hayvon, qush nomlari bo‘lgan joy nomlarini zootoponim deb qarash to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Chunki zootoponimlarni farqlashning qiyinchiligi shundaki, ayrim qabila vakillari qandaydir hayvonni karomatli deb, uni muqaddas bilishgan. Qavmga o‘sha hayvonning nomini bergan. Bular “totem” nomlar deb qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, hayvon nomlaridan hosil bo‘lgan toponimlar onomastikaning muayyan leksik qatlamini tashkil etib, hududning hayvonot dunyosi, aholining etnomadaniy dunyoqarashi va tarixiy hayotidan ma’lumot beradi. Ularni o‘rganish joy nomlarining semantik boyligini kashf etib, til, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur anglashga imkon beradi. XIX asr qoraqalpoq shoirlari asarlari tilida bunday nomlar kam uchraydigan bo‘lsa ham, Qoraqalpog‘iston toponimiyasi uchun ahamiyatli sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бияров Б. Қазақ топонимдерінің типтік үлгілері. Астана, Ш.Шаяхметов атындағы Тілдерді дамытудың республикалық үйлестіру-әдістемелік орталығы, 2013, 460-бет.

(2). Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. Алма-Ата, “Наука”, 1974, 275 с.

(3). Қойшыбаев Е. Қазақстанның жер-су аттары сөздігі. Алматы, “Мектеп”, 1985, 256-бет.

(4). Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2005, 239-бет.

(5). Мәдиева Г.Б., Иманбердиева С.Қ. Ономастика: Зерттеу мәселелері. Астана, «1С-Сервис» ЖШС, 2005, 163-бет.

(6). Молчанова О.Т. Структурные типы тюркских топонимов Горного Алтая. Саратов, Саратовского университета, 1982, 256 с.

(7). Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. Қўқон, 2005, 90-бет.

(8). Пахратдинов Қ., Абишов Г. Қарақалпақстан топонимлери сөзлиги. Нөкис, «Bilim», 2025, 128-бет.

Muxammadiyeva Farangis G‘iyasiddin qizi (Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti;
farangis0104@gmail.com; ORCID ID 0009-0008-1863-5676)

PAOLO BACHIGALUPINING “SAMARADORLIK” VA NORMUROD NORQOBILOVNING “YETIM QOLGAN GULLAR” HIKOYALARINING QIYOSIY-EKOKRITIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Paolo Bachigalupining “Samaradorlik” (Efficiency) va Normurod Norqobilovning “Yetim qolgan gullar” hikoyalari qiyosiy ekokritik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki asarda ekologik ong, ekologik madaniyat hamda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning badiiy ifodasini aniqlashdan iborat. Norqobilov hikoyasida tabiatga nisbatan befarqlik, individual mas’uliyatsizlik va jamoaviy ekologik ongning pastligi atrof-muhitning yemirilishiga olib keluvchi omillar sifatida tasvirlanadi. Xususan, atirgullar obrazi, chiqindilar va garmsel timsoli orqali insonning tabiatga munosabati axloqiy muammo sifatida talqin etiladi. Bachigalupining “Samaradorlik” hikoyasida esa ekologik ong individual xatti-harakat bilan cheklanmay, energiya mustaqilligi, oziq-ovqat xavfsizligi, jamoaviy farovonlik va ijtimoiy hamjihatlik bilan bog‘liq tizimli hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijasida ikki muallif ekologik muammoni turlicha badiiy modellashtirgan bo‘lsa-da, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi jamiyat hayoti uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishin aniqlanadi. Maqolada, shuningdek, ekologik mas’uliyatning individual va jamoaviy shakllari qiyoslanib, ikki asardagi ekologik tafakkurning o‘xshash va farqli jihatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: ekokritika, ekologik ong, ekologik madaniyat, ilmiy fantastika, antropotsentrizm, tabiat, samaradorlik.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОКРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАССКАЗОВ «ЭФФЕКТИВНОСТЬ» ПАОЛО БАДЖИГАЛУПИ И «СИРОТСКИЕ ЦВЕТЫ» НОРМУРОДА НОРКОБИЛОВА

Аннотация. *В статье проводится сравнительный экокритический анализ рассказов Паоло Бачигалупи «Эффективность» (Efficiency) и Нормурода Норкобилова «Сиротские цветы» (Yetim qolgan gullar). Основная цель исследования заключается в выявлении художественного воплощения экологического сознания, экологической культуры, а также взаимоотношений между человеком и природой в обоих произведениях. В рассказе Норкобилова равнодушие к природе, индивидуальная безответственность и низкий уровень коллективного экологического сознания представлены как*

факторы, способствующие деградации окружающей среды. В частности, посредством образов роз, отходов и гармселя отношение человека к природе интерпретируется как нравственно-этическая проблема. В рассказе Бачигалупи «Эффективность» экологическое сознание, напротив, не ограничивается индивидуальным поведением, а предстает как системное явление, тесно связанное с энергетической независимостью, продовольственной безопасностью, общественным благополучием и социальной сплочённостью. Результаты исследования показывают, что, несмотря на различия в художественном моделировании экологической проблематики, оба автора акцентируют серьёзные последствия нарушения равновесия между человеком и природой для жизни общества. В статье также сопоставляются индивидуальные и коллективные формы экологической ответственности, выявляются сходства и различия экологического мышления, представленного в двух произведениях.

Ключевые слова: *экокритика, экологическое сознание, экологическая культура, научная фантастика, антропоцентризм, природа, эффективность.*

COMPARATIVE ECOCRITICAL ANALYSIS OF STORIES EFFICIENCY BY PAOLO BACIGALUPI AND ORPHAN FLOWERS BY NORMUROD NORQOBILOV

Annotation. *This article presents a comparative ecocritical analysis of Paolo Bacigalupi's Efficiency and Uzbek writer Normurod Norqobilov's Orphan Flowers (Yetim qolgan gullar). The study aims to examine the literary representation of ecological consciousness, environmental culture, and the relationship between humans and nature in the two works. In Norqobilov's story, indifference toward nature, individual irresponsibility, and a low level of collective ecological awareness are presented as factors contributing to environmental degradation. In particular, the images of roses, garbage, and the wind function as important elements through which the relationship between humans and nature is interpreted as an ethical problem. In Bacigalupi's Efficiency, ecological consciousness is not limited to individual behavior but is presented as a systemic phenomenon closely connected with energy independence, food security, community prosperity, and social connectedness. The study demonstrates that although the two authors employ different literary models to portray environmental problems, both emphasize the serious consequences of disrupting the balance between humans and nature. The article also compares individual and collective forms of environmental responsibility and identifies the similarities and differences in the ecological perspectives represented in the two works.*

Key words*: ecocriticism, environmental consciousness, ecological culture, science fiction, anthropocentrism, nature, efficiency.*

(2). Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М., “Международные отношения”, 1980, 343 с.

(3). Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). М., “Высшая школа”, 1990, 253 с.

(4). Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. М., “Международные отношения”, 1974, 216 с.

(5). Томахин Г.Д. Реалии-американизмы. М., “Высшая школа”, 1988, 239 с.

(6). Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. М., Филология три. СПб., СПбГУ, 2002, 416 с.

(7). Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1983, 232-bet.

(8). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2005, 352-bet.

G‘aybullayeva Dildora Fayzulla qizi (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti dotsenti v.b.; e-mail: dildoragaybullayeva@gmail.com)

INGLIZ TILIDAGI FRAZEONIMLARDA INSONNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tilidagi frazeonimlarda insonning psixologik xususiyatlarining ifodalanishi tahlil qilinadi. Frazeonimlar ifodalagan psixologik holatlar semantik mazmuniga ko‘ra tematik guruhlarga ajratilib, ularning emotsional-ekspressiv, konnotativ va uslubiy xususiyatlari aniqlanadi. Ayrim frazeonimlarning qo‘llanishi kontekst asosida tahlil qilinib, ularning inson ruhiy holatini obrazli va ta’sirchan ifodalash imkoniyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: frazeonim, psixologik xususiyat, psixologik holat, emotsional-ekspressivlik, konnotatsiya, uslubiy xususiyat, kontekstual tahlil.*

Гайбуллаева Дилдора Файзулла кизи (и.о. доцента Узбекского государственного университета мировых языков; e-mail: dildoragaybullayeva@gmail.com)

ВЫРАЖЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЧЕЛОВЕКА В АНГЛИЙСКИХ ФРАЗЕОНИМАХ

Аннотация. *В статье анализируется выражение психологических особенностей человека в английских фразеонимах. Фразеонимы распределяются по тематическим группам в соответствии с выражаемыми психологическими состояниями, определяются их эмоционально-экспрессивные, коннотативные и стилистические особенности. На основе контекстуального анализа отдельных фразеонимов раскрываются их возможности образного и выразительного выражения психического состояния человека.*

Ключевые слова*: фразеоним, психологическая особенность, психологическое состояние, эмоционально-экспрессивность, коннотация, стилистическая характеристика, контекстуальный анализ.*

Gaybullayeva Dildora Fayzulla kizi (Acting Associate Professor at the Uzbekistan State University of World Languages; e-mail: dildoragaybullayeva@gmail.com)

THE EXPRESSION OF HUMAN PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN ENGLISH PHRASEONIMS

Annotation. *The article analyzes the expression of human psychological characteristics in English phraseonyms. The phraseonyms are classified into thematic groups according to the psychological states they express, and their emotional-expressive, connotative, and stylistic features are identified. A contextual analysis of selected phraseonyms reveals their potential for expressing human psychological states in an imaginative and expressive way.*

Keywords*: phraseonym, psychological characteristic, psychological state, emotional expressiveness, connotation, stylistic feature, contextual analysis.*

Kirish. Frazeologik birliklar tilning obrazli va ekspressiv imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim birliklardan biri bo‘lib, ularning semantik mazmuni, ko‘pincha, konnotativ, emotsional va baholovchi componentlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Ayniqsa, frazeonimlar tarkibidagi antroponimik komponent orqali muayyan obraz, shaxsiy xususiyat yoki baholash mazmunini ifodalashi bilan boshqa frazeologik birliklardan ajralib turadi.

Ingliz tilidagi frazeonimlarning muhim qismi insonning psixologik holati va xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bunday birliklarda omad, hayrat, g‘azab, xursandchilik, ishonch, xafalik, vahima, qo‘rqoqlik, jasurlik, xohish-istak, uyqusirash kabi turli psixologik holatlar obrazli tarzda ifodalanadi. Shu jihatdan, frazeonimlarning semantik mazmunini ularning emotsional-ekspressiv va baholovchi xususiyatlaridan ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq emas.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilidagi frazeonimlarda insonning psixologik xususiyatlarining ifodalanish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda frazeonimlarning psixologik mazmunini tematik guruhlash, ularning konnotativ xususiyatlari hamda funksional-uslubiy qo‘llanishini aniqlashga e’tibor qaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So‘nggi yillarda frazeologik birliklarning semantik mazmuni, stilistik imkoniyatlari va kontekstual qo‘llanishi o‘zaro bog‘liq jihatlar sifatida tadqiq etilmoqda. N.Nasrullayeva frazeologik birliklarning semantik mazmuni bilan bir qatorda, ularning stilistik va pragmatik imkoniyatlarini kontekst asosida ochib berish zarurligini ta’kidlaydi [5]. K.Dekatova frazeologik birliklarning stilistik vositalar bilan kontekstual o‘zaro ta’sirini tadqiq etib, ularning ekspressivlikni yuzaga chiqarishda-

gi imkoniyatlarini ko‘rsatadi [3]. A.Aleksaitė publitsistik matnlarda qo‘llangan frazeologik birliklarning stilistik resurslarini tahlil qilib, ularning modifikatsiyasi va emotsional yukni kuchaytirishdagi funksional imkoniyatlariga e’tibor qaratadi [1]. Mazkur tadqiqotlar frazeologik birliklarning semantik, stilistik, kognitiv va pragmatik xususiyatlarini kompleks o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. E.R.Ratushnaya antroponim komponentli frazeologizmlarning konnotativ tarkibida ekspressivlik, emotsionallik va baholash componentlarini ajratadi [7]. Mazkur qarashlar ingliz tilidagi frazeonimlarning insonning psixologik xususiyatlarini ifodalashini semantik, konnotativ va funksional-stilistik jihatdan yaxlit tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ingliz tilidagi frazeonimlarning insonning psixologik xususiyatlarini ifodalash imkoniyatlarini aniqlash uchun semantik-stilistik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Frazeonimlarning funksional-stilistik xususiyatlarini belgilashda kitobiy, so‘zlashuv va neytral uslub mezonlariga tayanildi. Ayrim birliklarning ma’no va uslubiy xususiyatlarini aniqlashda komponent va etimologik mezonlardan foydalanildi. Tahliliy materiallar “The Cobuild Dictionary of Idioms”, “Cambridge International Dictionary of Idioms”, “Dictionary of American Idioms” va “Proper Name Idioms and Their Origins” lug‘atlaridan olindi.

Biroq ingliz tilidagi frazeonimlarning insonning psixologik xususiyatlarini ifodalash imkoniyatlari, ularning semantik-stilistik va funksional xususiyatlari o‘zaro bog‘liqlikda yetarlicha tizimli va kompleks tadqiq etilmagan.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilidagi frazeonimlarning muhim qismi insonning psixologik holati va xususiyatlarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Tahlil jarayonida mazkur birliklar ifodalagan psixologik holatlar semantik mazmuniga ko‘ra quyidagi tematik guruhlarga ajratildi:

Psixologik xususiyat va holat	Frazeonimlar
Omadlilik, baxtlilik	*to have a Midas touch, to hit Jackpot*
Hayrat, lol qolish	*Great Scott!, Gordon Bennet!, By George!*
G‘azab, nafrat	*By the Lord Harry!, For the love Mike!*
Xursandchilik, shodlik, quvonch	*Happy as Larry, Mark Tapley*
Ishonch, ishonish	*sure as God made little green apples*
Ko‘ngilchanlik, yumshoqfe’llilik	*Dutch uncle, like turkeys voting for Christmas*
Xafalik, tushkunlik	*to have Monday morning feeling, feel like Daniel in the lion’s den*
Vahima, xavf-xatar, ko‘ngilsizlik	*the sword of Damocles, War of Jenkin’s ear*
Qo‘rqoqlik, jur’atsizlik	*awkward as a bull in a China shop, to be on one’s Jack Jones*
Jasurlik	*as game as Ned Kelly, as strong as Hercules*
Xohish-istak, orzu-maqsad	*Barkis is willing, Promethean fire*
Uyqusirash, alahsirash, uyqusizlik	*to be the land of Nod, be in the arms of Morpheus*

Mazkur tasnif frazeonimlarning insonning turli psixologik holatlarini obrazli, emotsional va baholovchi tarzda ifodalash imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Psixologik xususiyatni ifodalovchi frazeonimlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari ayniqsa g‘azab va norozilikni bildiruvchi birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, quyidagi kontekst bunga misol bo‘la oladi: *“Get my other hat, I must hurry around to the police-station. Why wasn’t somebody looking after her, I’d like to know? For God’s sake, get out of my way or I’ll never get ready!”* [4].

Ushbu kontekstda *for God’s sake!* frazeonim qahramonning kuchli g‘azab holatini ifodalash uchun qo‘llangan. Mazkur birlikning emotsional mazmuni uning kontekstual qo‘llanishi orqali yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. *For God’s sake!, for Christ’s sake, for Pete’s sake, for the love of Pete* kabi birliklar bir xil mazmuniy yo‘nalishga ega bo‘lib, inson jahlining yuqori darajasini ifodalashda qo‘llanadi. *For Pete’s sake, for the love of Pete* birliklari evfemistik xususiyatga ega ekanligi ham qayd etiladi [2]. Frazeonimlarning uslubiy xususiyatini aniqlashda etimologik va komponent mezonlariga tayanish ularning kitobiy va so‘zlashuv uslubiga mansubligini belgilash imkonini beradi. Shu jihatdan, mazkur frazeonimlarning kontekstual funksiyasi qahramon yoki so‘zlovchining ruhiy holatini obrazli ifodalashdan iborat.

Omadlilik va baxtlilikni ifodalovchi Frazeonimlar ham psixologik xususiyatning turli obrazlar asosida voqelanishini ko‘rsatadi. Xususan, *to have a Midas touch* va *to hit Jackpot* frazeologizmlari mazkur ma’noni ifodalovchi frazeologik sinonimlar sifatida namoyon bo‘ladi. *To have a Midas touch* tarkibidagi *Midas* mifokomponenti Rimda yashab o‘tgan afsonaviy shoh nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning qo‘li tekkan narsaning oltinga aylanishi haqidagi tasavvur asosida shakllangan. Shu sababli mazkur frazeologizm asosan

kitobiy, qisman so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. *To hit Jackpot* tarkibidagi *Jack* antroponimik komponenti esa lotereya o‘yinlari bilan bog‘liq bo‘lib, frazeologizm so‘zlashuv uslubiga xosligi va hissiy bo‘yoqdorlikni oshirishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur birliklarning real kontekstdagi qo‘llanishi quyidagi misollarda kuzatiladi: *“Some, like the American Civil Liberties Union, say the mogul’s influence may be benign or even positive. But others interviewed suggested the combination of Musk’s libertarian “frat boy” ethics and his Midas Touch for making money could make the divisive social media business model even more toxic”* [8].

Bu kontekstda *Midas Touch* insonning pul topishdagi omad va qobiliyatini obrazli ifodalash uchun qo‘llangan. Birlikning kontekstda *making money* birikmasi bilan birga kelishi uning mazmunini konkretlashtirib, omad va muvaffaqiyat bilan bog‘laydi.

To hit Jackpot AOKFining qo‘llanishi esa quyidagi kontekstda kuzatiladi: *“I wanted a small house with a fireplace, and I really hit the Jackpot with this one”* [6].

Mazkur kontekstda *hit the Jackpot* so‘zlashuv uslubida qo‘llanib, so‘zlovchining istagiga mos kelgan holatdan mamnunligini va omadli natijaga erishganligini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qilmoqda. Demak, mazkur AOKFning psixologik mazmuni kontekst orqali konkretlashib, so‘zlovchining ijobiy ruhiy holatini ta’sirchan ifodalaydi. Umuman, frazeonimlar muayyan ruhiy holatni ifodalash bilan birga, emotsionallik, ekspressivlik va baholash orqali uning mazmuniy ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Tahlil natijasida frazeonimlarning psixologik mazmuni ularning emotsional-ekspressiv, baholovchi va uslubiy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Ularning ma’no va uslubiy xususiyatlarini belgilashda semantik, kontekstual, komponent va etimologik mezonlardan foydalanish samarali natija beradi. Shuningdek, frazeonimlarning kontekstual qo‘llanishi insonning ruhiy holatini yanada obrazli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, frazeonimlarning inson psixologik xususiyatlarini ifodalashdagi imkoniyatlarini yanada chuqurroq yoritish uchun ularni kognitiv va pragmatik aspektlarda tadqiq etish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, frazeonimlar asosida insonning ruhiy holati va xarakter xususiyatlarining konseptuallashuvi, ularning muayyan kognitiv modellar bilan bog‘liqligi hamda nutqiy vaziyatda kommunikativ va pragmatik maqsadlarni amalga oshirishdagi o‘rni alohida tadqiq etilishi mumkin. Bunday yondashuv frazeonimlarning nafaqat nominativ va ekspressiv, balki kognitiv hamda kommunikativ imkoniyatlarini ochib berish, ularning til va tafakkur, shuningdek, til va nutq o‘rtasidagi munosabatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Shu sababli ingliz tilidagi frazeonimlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini chog‘ishtirma aspektda o‘rganish zamonaviy frazeologik tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishi sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aleksaitė A. The Stylistic Resources of Occasional Phraseological Units in Rimvydas Valatka’s Comments on Russia’s War in Ukraine // Verbum. 2024, vol. 15, p. 1–11. DOI: 10.15388/Verb.15.10.

(2). Chitova L.A. Proper Name Idioms and Their Origins. Anthology. 2013, 192 p.

(3). Dekatova K.I. The contextual interaction of phraseological units and stylistic devices as a complex stylistic phenomenon // Terra Linguistica. 2024. vol. 15, № 3, p. 47–59. DOI: 10.18721/JHSS.15305.

(4). John M. Paradise Lost. The Morgan Library & Museum. Archived from the original on 21 July 2011. Book Two, p 49. Retrieved 5 Feb 2024.

(5). Nasrullaeva N.Z. The Semantic Meaning of Phraseological Units and their Prototypes // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics. 2023, vol. 2, № 11, p. 131–134. DOI: 10.51699/ijllal.v2i11.2992.

(6). Richard A.S. Dictionary of American Idioms. The McGraw-Hill Companies, Inc. 2005, 1098 p.

(7). Ратушная Е.Р. Антропономинирующая парадигма русской фразеологии: семантика, формирование, функционирование. Автореф. дис… докт. филол. наук, Курган, 2001, 52 с.

(8). https://PittisDonCBC News. Apr 28, 2022

Karimov Furqatjon Qahramon o‘g‘li (Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi tayanch doktoranti; e-mail: furqatkarim6@gmail.com)

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MISTIKANING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida kam uchraydigan, rivojlanish bosqichidagi mistika yo‘nalishining paydo bo‘lishi, rivojlanish bosqichlari, o‘ziga xos jihatlari ilmiy tadqiq qilingan. Mistika yo‘nalishidagi asarlar istiqlol davrida yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Aslida, bunday yo‘nalishga xos elementlar ancha oldinga xalq og‘zaki ijodi davrida ertak, doston, mif, afsonalarda ham uchraydi. Keyin-*

chalik, tasavvuf adabiyoti hamda jadid adabiyotida mistikaga xos bo‘lgan unsurlar uchrashini kuzatish mumkin.

Kalit so‘zlar: *mistika, mistik element, xalq og‘zaki ijodi, ertak, mif, afsona, doston, tasavvuf, hikoya, qissa.*

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ МИСТИЦИЗМА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В данной статье научно исследованы возникновение, этапы развития и специфические особенности мистического направления, являющегося редким и находящимся на стадии развития в узбекской литературе. Произведения в жанре мистики вступили в новый этап развития в период независимости. На самом деле элементы, характерные для этого направления, встречались задолго до этого – в фольклоре: сказках, эпосах, мифах и легендах. В дальнейшем элементы мистики можно наблюдать в суфийской и джадидской литературе.*

Ключевые слова: *мистика, мистический элемент, устное народное творчество, сказка, миф, легенда, эпос, суфизм, рассказ, повесть.*

THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF MYSTICISM IN UZBEK LITERATURE

Annotation. *This article provides a scientific investigation into the emergence, stages of development, and distinctive features of the mystical trend in Uzbek literature, which is relatively rare and currently evolving. Works of the mystical direction entered a new stage of development during the independence period. In fact, elements characteristic of this trend appeared much earlier in oral folklore– in fairy tales, epics, myths, and legends. Subsequently, mystical elements can also be observed in Sufi and Jadid literature.*

Keywords: *mysticism, mystical element, oral folklore, fairy tale, myth, legend, epic, Sufism, short story, novella.*

Kirish. “So‘z kimyosi” kitobining muallifi Yan Parandovskiy so‘z haqida fikr yuritar ekan shunday deydi: “Har qanday boshqa san’at turini olib ko‘radigan bo‘lsak, unda mavzular cheklangan, faqat yolg‘iz adabiyotgina bu sohada chek-chegara bilmaydi. U xuddi so‘z kabi olis olislarni qamrab oladi, so‘z esa fikr singari, shu qadar uzoq masofalarga yetib boradiki, na zamon, na makonda sarhad bilmaydi” [1;242-b.] O‘zbek adabiyoti o‘zining qadimiy va boy tarixiga ega. Jahon adabiyotining bir qismi hisoblangan bu adabiyot istiqlol davrida yangi bir bosqichga ko‘tarildi. Mustaqillik bergan imkoniyat adabiyotda ham sezildi. Senzuradan qutulgan ijodkorlar bir xil qolipdagi asarlar yaratishdan voz kechishdi. Adabiyot tom ma’noda ko‘ngil ishiga aylandi. Adiblar dunyoga kengroq qaray boshlashdi. Davrning eng katta hodisa, voqealarini yoritishdan ko‘ra kichik odamlarning, ya’ni, oramizdagi odamlarning kichik tashvishlari orqali ularning keng qalbini yoritishni muhim deb hisoblashdi. Bu davrda o‘zbek adiblari jahon adabiyotining eng yaxshi asarlarini o‘rganishdi va jahon adabiyotiga teng milliy qahramonlarni yaratishdi. Omon Muxtor, Nazar Eshonqul, Erkin Usmonov, Ulug‘bek Hamdam o‘z asarlarida yangidan yangi shakllar, usullar orqali sof milliy obrazlar yaratishdi. Bu davrda nafaqat she’riyat, balki nasr ham jadal rivojlandi. Mistika ham aynan istiqlol davrida rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Bir qancha ijodkorlar orasida Erkin Usmonovni alohida ta’kidlash lozim. “Mistika” yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “sirli, yashirin” degan ma’noni anglatadi. Mistika istiqlol davrida taraqqiyot bosqichiga kirdi. Mistika o‘zbek adabiyotida qachon paydo bo‘lgan?

Mistik asarlarning yoki mistikaga xos elementlar o‘zbek adabiyotida paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlarini ko‘rib chiqsak. Mistik asarlarga xos elementlar, dastlab, o‘zbek adabiyotida xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Ertak va dostonlardagi devlar, parilar, kelajakdan xabar beruvchi tushlar, g‘aroyib hodisalar, eng avvalo, yuqorida tilga olgan xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchraydi. Mistik elementlar o‘sha davr insonlarining dunyoqarashi, tabiat hodisalarini tushunishi hamda diniy qarashlarining badiiy ifodasi sifatida yuzaga kelgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida sof mistik janrda asarlar yaratilmagan bo‘lsa-da, mistika va sehr elementlari ertaklar, dostonlar, afsona-yu rivoyatlarda katta o‘ringa ega. Mistik elementlar ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan, quloq bilan eshitib bo‘lmaydigan sirli, sehrli obrazlar va voqealar orqali insonning ichki kechinmalari kashf qilishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xalq og‘zaki ijodida uchraydigan mistik elementlarni bir qancha guruhlarga bo‘lish mumkin:

a) yalmog‘iz va alvastilar: salbiy xarakterga ega bo‘lgan bunday obrazlar, asosan, yovuzlik, baxtsizlik olib keluvchilar sifatida talqin qilinadi. Ular insonlardan olisda, qorong‘u va bexosiyat joylarni makon qilib, doim insonlarga kulfat kelturuvchi obrazlar sifatida talqin qilinadi. “Yalmog‘iz kampir dadil o‘rnidan turib bola orqasidan quvib ketibdi. Bola toyini choptirib qocha beribdi. Yalmog‘iz kampir quva beribdi” [3;42-b.];

b) devlar, ajdarholar: bunday obrazlar kuch-qudrat timsoli sifatida talqin qilinadi. Ular ba'zan salbiy, ba'zan ijobiy obraz sifatida uchraydi. Chunki oddiy inson qo'lidan kelmaydigan vazifalar hamda ulardagi kuch-qudrat mistik element sifatida ifodalasak bo'ladi;

d) qushlar: Semurg' hamda Humo qushlari ijobiy xarakterga ega obrazlar bo'lib, yuqorilardan farqli ravishda ular insonlarga baxt, omad va yaxshiliklar olib keladi, insonlarni turli qiyinchiliklardan olib chiqishadi;

e) sirli buyumlar: ochildasturxon, ur to'qmoq, sehrli uzuk, uchar gilam va boshqa sehrli buyumlar ham qahramonning mushkulini yengillatishga, bir manzildan boshqa manzilga oson ko'chishga imkon beradi;

f) sehrli so'z va jumlalar: xalq hayoti, turmush tarziga singib ketgan duolar hamda g'orlarni ochishga yordam beruvchi turli so'zlarni ham mistik element sifatida qarash mumkin;

g) pari va chiltonlar: doston va ertaklarda uchrovchi parilar, qirq chilton obrazlari ham ijobiy xarakterdagi mistik elementlar bo'lib, ular qahramonlarni bir-biri bilan uchrashishga yoki oshiq bo'lishiga yordam berishadi;

h) tush va bashoratlar: kelajakdan xabar beruvchi tushlar, bashoratlar ham mistik elementning bir turi hisoblanadi. Bular ham insonning og'irini yengil qilishga, qiyin vaziyatlarda to'g'ri yechimni topishga, boshiga tushgan mushkul tashvishlardan oson chiqiqb ketishga yo'l ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda o'zbek adabiyotida mistika janrining paydo bo'lishi hamda rivojlaishi, bugungi taraqqiyotini tahlil qilishda qiyosiy-adabiy, tarixiy-tipologik hamda struktural yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, yetuk adabiyotshunoslarning ilmiy qarashlari tizimli tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan mistik elementlar keyingi davrda yozma adabiyot namunalarida ham uchraydi. Xususan, mumtoz davrimizda yaratilgan ko'plab asarlarda, ya'ni, doston va g'azallarda mistik elementlar mistika atamasi bilan emas, balki tasavvuf istilohi bilan mashhur bo'lgan. Ahmad Yugnakiy asarlarida, Ahmad Yassaviy hikmatlarida, Alisher Navoiyni g'azallari hamda "Lison ut-tayr" dostonida, Mashrab g'azallarida inson o'zligini tanishi, Haqni tanishi, o'zining ruhini tiriklik chegarasidan o'tib, o'zga olamlar bilan birlashishi va boshqa hodisalar ifodlanadi. "Shuning uchun tasavvufda turli sohalar, qarashlar tutashib, to'qnash kelgani, uyg'unligi va ichki ziddiyatini ko'ramiz. Bunda keng fikriy maydonda aql va hikmat salobati ham, his-hayajonga g'arq qaynoq ijodiy parvoz ham, rasm-rusum, belgilab qo'yilgan axloqiy qonun-qoidalar bilan birga, ayni shu qoida-qonunlarni pisand qilmaydigan erkinlik tuyg'usi izhori ham, yashirin sir-u asror barobarida ochiq mantiqiy-falsafiy musohadakorlik ham bor. Shu bois ba'zi ovrupalik olimlarning tasavvufni «mistika» deb atashi bir yoqlama munosabat oqibatidir. Mistika – g'ayb ilmiga ishonch, sirlilik demakdir. Ko'rganimizdek, tasavvufda bu narsa bor, ammo bu ta'limot faqat shundan iborat emas" [4,5] Demak, mistika atamasi to'la to'kis tasavvuf adabiyotini ifodalamaydi. Tasavvuf juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, mistika uning bir kichik bo'lagi sifatida talqin qilish mumkin. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida qushlar galasi Semurg' qushini izlab, turli qiyinchiliklarga duch kelishi, bir necha vodiylardan o'tib, turli mashaqqatlarga duch kelishi va so'nggida o'zlari izlagan qush aslida o'zlari ekanligini anglab yetishi tasvirlab berilgan. "Bu o'ttizta qushning shunch ko'p mashaqqat va ranj chekib, bu yerga yetib kelganlaridan maqsad ularga Semurg' o'z yuzini ko'rsatib, bu fanolardan ana shunday baqoga erishmoq edi. Ammo ular qayoqqa qarasalar, o'zlarini ko'rdilar" [5;196-b.]

Jadid adabiyotida ham mistik elementlarning uchrashini kuzatish mumkin, Xususan, Abdulla Qodiriyning "Jinlar bazmi" hikoyasining izohida mavhum hikoya deb izoh berilishi, hikoyaning real hayotga uchramaydigan mistik elementning borligidan dalolat beradi. "Otam bu hikoyani boshlagan vaqtda mening vujudimni qo'rquv o'rab olar edi-da, ichimdan: "Meni ham shunday jinlarga yo'liqtirma", deb tangriga yolborib qo'yar edim" [6,3]

Sho'ro davri adabiyotida mistik yo'nalishdagi asarlarni deyarli uchratmaymiz. Davr siyosati va tasavvuf bilan bog'ligi tufayli turli qarshiliklarga uchrashi oqibatida mistik yo'nalishdagi asarlar deyarli yozilmadi.

Istiqlol davrida barcha sohalarda bo'lgani kabi adabiyot ham o'zining yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Jahon adabiyotining sara namunalarini o'rgangan yozuvchilar turli xil izlanishlar qilishdi. Avvallariga o'xshamagan, jahon adabiyoti bilan tenglasha oladigan asarlar yaratildi. Jahonning eng yaxshi namunalarini o'rgangan, ijod erkinligi berilgan adiblar bir-biridan farq qiladigan xarakterga, taqdirga ega yangi milliy obrazlar yaratishdi. Bu davrda ayniqsa, mistika yo'nalishi rivojlanishning yangi bosqichiga kirdi. Erkin Usmonov "Ajal xiyoboni" va "Marhum kech soat sakkizda keladi" nomli kitoblarida mistik yo'nalishdagi qissa va hikoyalarini e'lon qildi. Nazar Eshonqul "Tun panjaralari", "Qora kitob" qissalari, Ahmad

A’zamning “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyalari, Omon Muxtorning “Tepalikdagi xaroba”, “Ko‘zgu oldidagi odam” romanlarida mistik elementlar orqali bugungi kun insonlarining ichki kechinmalari, ularning borliq haqidagi, ruh haqidagi o‘y-fikrlari teran ochib berilgan. “San’at asarining badiiy mukammalligi, umrboqiyligi, mantunkorligi talay adabiy-estetik omillarga bog‘liq. O‘quvchi ko‘ngliga zavq beradigan, inson olami, voqlelik ko‘lami, his-tuyg‘ular juda tiniq tasvirlangan, ayni chog‘da, umuminsoniy muammolarni betakror uslubda, o‘ziga xos san’at tilida obrazli talqin etgan badiiy asar qanday janr yoki ijodiy metodda yozilishidan qat’i nazar, eng sara sanaladi” [2;36-b.].

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, istiqlol davri adabiyotida mistika yo‘nalishi o‘ziga xos tarzda taraqqiy etib bormoqda. Bu davr ijodkorlari hayotiy voqealarni mistik qarashlar, elementlar, g‘ayritabiiy hodisalarni, qadimgi o‘zbek mifologiyasi hamda tasavvufiy tushunchalarni qorishiq holatda tasvirlay boshladi. Jahon adabiyoti, xususan, G‘arb adabiyotida mistika ko‘proq dahshat va qo‘rquvga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida esa ko‘proq sirli hodisalar, g‘ayritabiiy voqealar orqali insonni kashf etish, ko‘ngil olamining eng yashirin nuqtalarigacha borish, hayot mazmuni, tiriklikni teran anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Yan Parandoskiy. So‘z kimyosi: badia-esse. Tarjimonlar: O.Sharafiddinov, M.Akbarov. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2022, 464-bet.

(2). Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomdagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016, 364-bet.

(3). O‘zbek xalq ertaklari. “Dono qiz”. Ertaklar to‘plami. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Ergashboy Matyoqubov T. “Ilm-ziyo-zakovat”, 2023, 42-bet.

(4). Najmiddin Komilov. “Tasavvuf”. T., “Movarounnahr”–“O‘zbekiston”, 2009, 448-bet.

(5). Alisher Navoiy. “Lison ut-tayr” [matn]. Doston. Toshkent, “Tafakkur”, 2020, 224-bet.

(6). Abdulla Qodiriy. “Jinlar bazmi”: Hikoyalar. T., “Cho‘lpon”, 2004, 24-bet.

Palimbetova Malika Janabaevna (Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD;
malikapalimbetova91@gmail.com)

1970–1980-YILLARDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VA MADANIY MUHITNING QORAQALPOQ DRAMATURGIYASINING RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning 1970–1980-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitning qoraqalpoq dramaturgiyasining rivojlanishiga ta’siri ilmiy tahlil qilingan. Davrning mafkuraviy qarorlari, teatr festivallari va T.Qayipberganov ma’ruzalaridagi daliliy fikrlar asosida dramaturgiyadagi janriy va badiiy o‘zgarishlar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *qoraqalpoq dramaturgiyasi, 1970–1980-yillar, ijtimoiy realizm, Orol muammosi, T. Qayipberganov, teatr san’ati.*

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ 1970-1980-ых ГОДОВ XX ВЕКА НА РАЗВИТИЕ КАРАКАЛПАКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

Аннотация. *В статье научно анализируется влияние социально-политической и культурной среды 1970–1980-х годов XX века на развитие каракалпакской драматургии. На основе идеологических постановлений того периода, театральных фестивалей и докладов Т.Каипбергенова раскрываются жанровые и художественные изменения в драматургии.*

Ключевые слова: *Каракалпакская драматургия, 1970–1980-е годы, социалистический реализм, проблема Арала, Т.Каипбергенов, театральное искусство.*

THE INFLUENCE OF THE SOCIO-POLITICAL AND CULTURAL ENVIRONMENT OF THE 1970S–1980S ON THE DEVELOPMENT OF KARAKALPAK DRAMATURGY

Annotation. *The article scientifically analyzes the impact of the socio-political and cultural environment of the 1970s–1980s on the development of Karakalpak dramaturgy. Based on the ideological resolutions of the period, theatrical festivals, and report points by T. Kaipbergenov, the genre and artistic transformations in dramaturgy are revealed.*

Keywords: *Karakalpak dramaturgy, 1970–1980s, social realism, Aral Sea problem, T. Kaipbergenov, theatrical art.*

Kirish (Introduction). XX asrning 1970–1980-yillari qoraqalpoq milliy dramaturgiyasi va teatr san’ati tarixida tub burilish, ijtimoiy-psixologik realizm tamoyillarining chuqurlashuvi va professional kadrlar safining shakllanish davri sifatida alohida ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Bu davrda milliy adabiy jarayon sotsialistik realizm metodining qat’iy va biryoqlama qoliplaridan bosqichma-bosqich chiqib, inson-

ning ichki dunyosi, falsafiy-intellektual izlanishlar va jamiyatdagi axloqiy normalarni tanqidiy tahlil qilish darajasiga ko‘tarildi.

1945–50-yillar oralig‘ida Sovet davlati tarkibiga kiruvchi barcha mamlakatlarning adabiyotlari va san’at xodimlarining, shu jumladan, qoraqalpoq dramaturglari va san’at arboblarining ijodiy ishlarining bosh mavzusi Ikkinchi jahon urushining solgan og‘ir oqibatlari, Germaniyani, fashistlarni yo‘q qilgan jangchi sovet xalqining qahramonliklari, ko‘rsatgan jasoratlarini so‘zlovchi badiiy sahna asarlari yaratish vazifasi turdi. Demak, bu davr asarlarida davrning dolzarb masalalarini yoritishga katta e’tibor berildi. Masalan, bu yillardagi eng yaxshi deb e’tirof etilib, sahnaga qo‘yilgan asarlardan J.Aymurzayevning "Amudaryo bo‘yida," "Oygul va Obod”, P.Tlegenovning "Birinchi gudok”, A.Begimov va T.Allanazarovning "G‘arib oshiq," S.Xo‘janiyozovning "Sevmaganga suyanma" kabi pyesalari bo‘ldi [1;172–178-b.].

1950–60-yillarda adabiyotimiz va madaniyatimiz katta yuksalish bosqichiga o‘tdi. Qoraqalpoq adabiyoti va san’atining Moskvada o‘tgan o‘n kunligi (dekadasi) respublikamizdagi har bir ijodkor uchun muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrda dramaturgiyada jahon adabiyotidan tarjimalar qilindi, SSR xalqlari va boshqa tillardagi yozuvchilar asarlarini tarjima qilish 4–5 marta ortdi, 1950–60-yillar dramaturgiyasida asosiy mavzu zamonaviy mavzu, axloq masalalariga bag‘ishlangan asarlar yaratish muhim ahamiyat kasb etdi.

Psixologik dramatizmni ko‘rsatishga bag‘ishlangan dramalar shu davrga kelib, ko‘proq yozildi. Hozirgi zamon mavzusida yozilgan asarlarning ko‘pchiligini janr jihatidan qaraganimizda musiqali komediyalar tashkil etishiga guvoh bo‘ldik. Bu yillardagi asarlarda asosiy salbiy qahramon "mulla" obrazi bo‘ldi. Biroq dastlabki mullalar shariatning "sof bandasi," barcha ishni uning ko‘rsatmasi bo‘yicha bajaradigan bo‘lsa, 50–60-yillardagi mullalar faqat tirikchilikning g‘ami uchun Qur’onni parda qilib yurgan ikki yuzli obraz sifatida ko‘rindi [1;211-b.].

"Bu davr dramaturgiyasida eski doston uslubiga ancha yaqin bo‘ldi. Dramatik asarlardagi kabi shablon syujetlar bir necha pyesalarda takrorlanishi bu davr dramaturgiyasiga xos bo‘ldi. Ammo 1956-yillardan dramaturgiyaga yangi yosh dramaturglarimizning kirib kelishi bilan bu janrda o‘zgacha muhit paydo bo‘ldi. Yangi-yangi mavzular, g‘oyalar, personajlar paydo bo‘lib dramaturgiyamizni oldinga siljita boshladi" [2; 75-b.].

1960–1975-yillarda “Amudaryo” jurnalida e’lon qilingan tarjima pyesalar bu davr dramaturgiyasining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki ular jahon dramaturglarining dramatik asarlarini keng jamoatchilik, adabiyot muxlislari o‘qishi uchun imkoniyat yaratish bilan birga, qoraqalpoq dramaturgiyasining g‘oyaviy-mavzuiy va janr jihatidan boyishiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu yillarda qozoq, qirg‘iz, rus, o‘zbek, arman, polyak adabiyotidagi dramatik asarlar hamda pyesalar qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi. Ular o‘zining g‘oyaviy-mavzuiy xususiyatlari va janri orqali qoraqalpoq dramaturgiyasining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib turdi.

Tadqiqot usullari (Methods). Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tipologik va tekstologik tahlil usullaridan foydalanildi. 1970–1980-yillardagi «Amudaryo» jurnali sahifalarida e’lon qilingan pyesalar, Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasining plenum materiallari va arxiv hujjatlari ilmiy manba sifatida tadqiq etildi.

Natijalar va tahlil (Results and Discussion). 1970–1980-yillar qoraqalpoq adabiyoti, xususan, dramaturgiyasi tarixida alohida bosqichni tashkil etadi. Bu davr, bir tomondan, sovet davlatidagi "barqarorlik" yillariga to‘g‘ri kelsa-da, ikkinchi tomondan, jamiyat hayotida milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy qadriyatlarni yanada keng yoyish jarayonlarining boshlanishi bo‘lib xizmat qildi.

Shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar dramaturgiyaning mavzu ko‘lamini kengaytirdi. Davlat tomonidan qabul qilingan adabiyot va san’atni rivojlantirishga oid qarorlar (1972-yil "Adabiy-badiiy tanqid to‘g‘risida," 1976-yil "Ijodkor yoshlar bilan ishlash to‘g‘risida"gi qarorlari va 1980-yillar boshida "Teatr san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" maxsus farmoyishlar chiqarildi) teatr ijodkorlari oldiga yangi mas’uliyatli vazifalarni qo‘ydi.

1970–1980-yillarda qoraqalpoq dramaturgiyasining janr xususiyatlari va badiiy tilining shakllanishida o‘tkazilgan madaniyat kunlari va adabiyot o‘n kunliklari (dekadalari)ning tizimli tarzda o‘tkazilishi (1977-yil, Toshkentda "Qoraqalpog‘iston adabiyoti va san’ati kunlari," 1980-yil Moskvada "Qoraqalpog‘iston ASSR adabiyoti va san’ati kunlari," 1980-yillarning o‘rtalarida Qoraqalpoq teatr jamoalarining Boltiqbo‘yi respublikalari va Kavkazga ijodiy safarlari) qoraqalpoq dramaturglarining boshqa qardosh xalqlarning ijodiy tajribalarini o‘zlashtirishiga zamin yaratdi.

Bu borada 1977-yili Toshkentda o‘tkazilgan "Qoraqalpog‘iston adabiyoti va san’ati kunlari" muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu tadbir davomida dramaturglar va teatr tanqidchilarining jonli muloqoti natijasida qoraqalpoq sahna asarlarida inson ruhiy olamini tasvirlashga e’tibor kuchaydi. O‘zbekiston va Qoraqalpo-

g‘iston ijodiy tashkilotlarining hamkorligi natijasida teatrlarning repertuari yangi zamon qahramonlari bilan boyidi [3;112-b.].

1977-yili Toshkentda o‘tkazilgan "Qoraqalpog‘iston adabiyoti va san’ati kunlari"da S.Xo‘janiyozov asarlari yuqori baholandi va o‘zbek rejissyorlari bilan hamkorlik kuchaydi. Xususan, bu davrda K. Raxmanovning "Yarali yuraklar" (1977), "Laqmalar shifoxonada" (1979), X.Turimbetovning "Qudrat" (1977) kabi drama va tragediyalari yaratildi.

Dramaturgiya evolutsiyasidagi eng katta voqealardan biri 1980-yil oktabr oyida Moskva shahrida o‘tkazilgan Qoraqalpog‘iston ASSR adabiyoti va san’ati kunlari hisoblanadi. Ushbu nufuzli tadbirda qoraqalpoq dramaturgiyasining eng sara namunalari taqdim etildi. Xususan, Moskvaning markaziy teatrlarida S.Xo‘janiyozovning "Sevmaganga suykanma" komediyasi, J.Aymurzayevning "Berdaq" tarixiy dramasi, P.Tilegenovning "Onalar" tragediyasi namoyish etildi.

Moskva matbuoti va yetakchi teatr tadqiqotchilari bu asarlarni tahlil qilib, qoraqalpoq dramaturgiyasida milliy kolorit bilan birga, psixologik ruhning kuchayganligini alohida ta’kidladilar [4;2-b.]. Bu esa qoraqalpoq dramaturglari uchun yangi ijodiy yondashuvlarni ochib berdi va ularni jahon klassikasi namunalari bilan yaqinlashtirdi. Natijada jahon klassiklarining asarlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi. Bu mavzularda biz Q.Matmuratovning "Bir uyda ikki umr" (1981), O.Abdiraxmanovning "O‘jar" (1986), S. Xo‘janiyozovning "Go‘zallar" (1987), T.Qayipbergenovning "Familiya" (1987), D.Aytmuratovning "Ahmoqlikni kuylash" (1988), K.Rahmonovning "Zarigiryan" (1989) kabi komediya, tragediya va dramalarini ta’kidlab o‘tishimiz mumkin. Bu davrda "Amudaryo" jurnali Qoraqalpog‘istonda yuqori darajali adabiy-madaniy nashr sifatida qoraqalpoq adabiyotini rivojlantirish va jahon adabiyoti namunalarini qoraqalpoq xalqiga tanishtirishda qimmatli mehnat qilgan.

1975–1980-yillarda jurnal tahririyati jahon adabiyotining mumtoz dramalarini chop etish, teatr san’atini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Shu yillar orasida Gyotening "Faust" (1981-yil 9-, 10-, 11-, 12-sonlarida, 1982-yilning 1–2-sonlarida chop etilgan. Bu asarni mashhur shoir To‘lepbergen Matmuratov qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan), Esxilning "Prometey" (1985-yil 8-, 9-, 10-sonlarida chiqqan. Rus tili-dan tarjima qilgan mashhur tarjimon Daulen Aytmuratov) va Vishnevskiyning "Optimistik tragediyasi" (1987-yil 3-, 4-, 5-), asarni Rahim Qaymaqov qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan) asarlari tanlab olingan. Bu uch asar falsafiy, g‘oyaviy va estetik jihatdan bir-biridan mutlaqo farq qilsa-da, barchasida ham insoniya-tning kurashi, ozodlik, onglilik va poklik mavzulari markazda turadi.

Shuningdek, 80-yillarning ikkinchi yarmida Boltiqbo‘yi respublikalari va Kavkazda o‘tkazilgan ijodiy safarlar dramaturgiyaga yangi ramziy obrazlarning kirib kelishiga turtki bo‘ldi. Bu davrda K.Rahmonovning "U dunyoga taklif" kabi asarlarining paydo bo‘lishi dramaturgiyaning falsafiy-estetik jihatdan yangilanganidan darak beradi.

1970–1980-yillardagi madaniyat kunlari nafaqat erishilgan yutuqlarni namoyish etish maydoni, balki ijodiy laboratoriyani yanada rivojlantirish vazifasini ham bajardi. Xususan, Moskva va Toshkentdagi ijodiy muloqotlar ta’sirida qoraqalpoq dramaturgiyasida an’anaviy folklor-etnografik tasvirlardan voz kechib, zamonaviy inson obrazini falsafiy talqin etishga o‘tish kuzatildi.

1970–1980-yillar qoraqalpoq dramaturgiyasining ijtimoiy va g‘oyaviy muammolarini rasmiy-tarixiy darajada umumlashtirishda Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi, taniqli jamoat arbobi va xalq yozuvchisi To‘lepbergen Qayipbergenovning Uyushma plenumlarida (jumladan, II, IV plenumlar va syezd ma’ruzalarida) qilgan ma’ruzalari muhim nazariy baza bo‘lib xizmat qiladi. Ittifoq raisi T. Qayipbergenov IV plenumda (1987) o‘zi uzoq yillar davomida iste’dodsiz amaldor-mualliflar bilan aloqani buzmaslik, tinch ishlash maqsadida ularning badiiy saviyasi juda past pyesalarini teatr sahnasiga o‘tkazib yuborganini, ya’ni, "murosasozlik" yo‘lidan yurganini ochiq tan oldi [5;12–21-b.].

T.Qayipbergenov o‘z ma’ruzalarida milliy dramaturgiyadagi yutuqlar bilan birga, uning nasr va she’riyatdagi ulkan muvaffaqiyatlar fonida "ortda qolayotganini" ochiq va dadil e’tirof etdi. U 11-besh yillik (1981–1985-yillar) ma’ruzasida partiya va hukumat tomonidan adabiyot oldiga qo‘yilgan salmoqli "ijtimoiy buyurtmalar"ni bajarishda dramaturglarning passivligini tanqid qildi. Xususan, Nukusda qurilishi boshlangan yirik Paxta gazlamalari (tekstil) kombinati misolida respublikada ishchi sinfi safi kengayib borayotgan bir paytda, mualliflar ushbu yirik sanoat qurilishining jonli nafasini, quruvchilar va ishchilar qahramonligini sahna asarlariga ko‘chira olmayotganligini aytdi.

Eng muhimi, T.Qayipbergenov o‘zining 1981-yilgi ma’ruzasida adabiyot va teatr tarixida birinchi marta Orol dengizi fojiasini eng o‘tkir ijtimoiy, ekologik va falsafiy muammo sifatida teatr mas’uliyatiga yukladi. U Orol dengizini "Markaziy Osiyo hududidagi yerning jonli ko‘zi" deb atadi va agar shu ko‘z yumilsa, millionlab gektar unumdor yerlar Qizilqum va Qoraqum cho‘llarining ko‘chma qumlari ostida qolib

nobud bo‘lishini, iqlim o‘zgarib, mintaqa ekohalokat maydoniga aylanishini ilmiy bashorat qildi. Dramaturglardan esa bu ofat haqida jamiyatni uyg‘otuvchi, ijtimoiy ahamiyatga ega asarlar yaratishni qat’iy talab qildi. U Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi dramaturgiya kengashida sahna sirini va uning o‘ziga xos qonuniyatlarini chuqur tushunadigan professional teatrshunos mutaxassislarning yetishmasligi milliy dramaning rivojlanish sur’atiga to‘siq bo‘layotganini tahlillar asosida isbotlab berdi.

T.Qayipbergenov Yozuvchilar uyushmasini qayta qurish va asarlar sifatini oshirish uchun uning barcha quyi bo‘g‘inlari, ayniqsa, janrlar bo‘yicha tuzilgan ijodiy kengashlar (sovetlar)ning to‘liq faoliyat yuritishi shart ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasi boshqarmasining raisi To‘lepbergen Qayipbergenovning Uyushmaning II plenumida o‘qigan ma’ruzasida [6;4-b.] dramaturgiya kengashi o‘zining so‘nggi majlislarida respublikadagi professional va havaskor mualliflarning pyesalarini chuqur tahlil qilgan. Dramaturgiya kengashi a’zolari faqat yoshi kattalarning asarlari bilan cheklanib qolmay, yosh dramaturglarning pyesalarini ham tahlil markaziga olib chiqqan.

Kengash majlislarida taniqli dramaturg P.Tlegenovning, shuningdek, dramaturgiyaga yangi kirib kelayotgan yosh mualliflar K.Karimov hamda O.Qallibekovlarning yangi yozilgan pyesalari g‘oyaviy-badiiy va kompozitsion jihatlari qattiq tanqid qilingan. Bu tahlillar yoshlarning drama texnikasi va sahna qonuniyatlarini to‘g‘ri o‘rganishi uchun maktab vazifasini o‘tagan.

Qoraqalpog‘iston hududida Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Tatariston, Boshqirdiston va Tojikiston madaniyat vakillarining qabul qilinishi hamda 1981-yil iyun oyida qoraqalpoq delegatsiyasining Tataristondagi qoraqalpoq madaniyati kunlarida ishtiroki teatr jamoalariga kuchli g‘oyaviy turtki bergan. Sovet teatri va adabiyotining yirik so‘z ustalari–M.Sholoxov, Y.Bondarev, Sh.Rashidov, V.Astafev, Ch.Aytmatov, R.Gamzatov va N.Dumbadzelarning badiiy tajribasi qoraqalpoq yozuvchilari va dramaturglari uchun doimo ijodiy ta’sir etib kelayotgani aytiladi.

Partiya va hukumatning 11-besh yillik rejalari (1981–1985) hamda strategik ko‘rsatmalari asosida qoraqalpoq teatri va adabiyoti oldiga butunlay yangi, qat’iy "ijtimoiy buyurtmalar" qo‘yilgan [6;31–38-b.].

Nukusda qurilishi boshlangan ulkan Paxta to‘qimachilik kombinati (tekstil kombinati) misolida respublikada ishchi sinfi safi va ko‘lami keskin ortadi. T.Qayipbergenov dramaturglardan ushbu yirik sanoat qurilishining har bir kunini, poydevoridan boshlab ishga tushirilguniga qadar bo‘lgan harakatlarni yaratishni talab etadi. Quruvchi va ishchilar bilan oddiy rasmiy uchrashuv emas, "ularning o‘z odamiga aylanib ketishimiz kerak" degan tamoyil qo‘yiladi.

Bayonotda aytilishicha, Orol dengizining taqdiri ilk bor eng o‘tkir ijtimoiy va falsafiy muammo sifatida teatr va adabiyot zimmasiga yuklatilgan. Orol dengizi – "butun dunyo, O‘rta Osiyo hududidagi yerning jonli ko‘zi" deb ataladi. Agar shu ko‘z yumilsa, mintaqada nafaqat iqlim o‘zgaradi, balki millionlab gektar unumdor yerlar Qizilqum va Qoraqum cho‘llarining ko‘chma qumlari ostida qolib, yo‘q bo‘lib ketishi aytiladi. Dramaturglar va nosirlar ushbu ofat haqida jamiyatni uyg‘otuvchi asarlar yaratishi kelajakdagi bosh reja etib belgilangan.

T.Qayipbergenov qoraqalpoq dramaturgiyasining hali ham juda orqada qolayotganini ochiq tan oladi: "Rostini aytishimiz kerak, bizning adabiyotimizda dramaturgiya janri hali ham orqada qolib kelyapti". Sahnada A.Gelmanning "Biz, quyida imzo chekuvchilar", A.Dvoretskiyning "Tashqaridan kelgan odam", A.Abdullinning "O‘n uchinchi rais" asarlari kabi o‘tkir ijtimoiy mavzudagi milliy pyesalar yetishmaydi. Pirlepes Tlegenovning pyesalari asosida O‘zbekiston televideniyasida "Bir fojia izidan" nomli uch seriyali telespektaklning qo‘yilishi qoraqalpoq dramaturglarining salohiyati borligini isbotladi. Kenesbay Raxmanovning faolligi va Tajetdin Seytjanovning dramaturgiyaga qaytishi dramaturgiyamiz uchun juda muhim hodisa bo‘ldi. Uyushma huzuridagi dramaturgiya kengashida pyesalarni muhokama qilishda sahna tilini biladigan professional mutaxassislar yetishmaydi. Teatrlar va rejissorlar tayyor original pyesalar yo‘qligidan yaxshi roman va qissalarni (mualliflar ishtirokida) sahna va telestudiyaga moslab ishlashi shartligi ko‘rsatilgan.

Shunday qilib, To‘lepbergen Qayipbergenovning dramaturgiya kengashida P.Tlegenov va K.Karimovning pyesalari tanqidga olinganligi, Berdaq mukofotining 2 baravar oshirilganligi, Tatariston madaniyat kunlarining yakunlari hamda Orol dengizi fojiasi va sanoat qahramonlarining milliy sahna va adabiyot oldidagi eng birinchi g‘oyaviy va ijtimoiy burchi (vazifasi) ekanligi rasmiy tarzda dalillangan.

Xulosa (Conclusion). 1970–1980-yillardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhit qoraqalpoq milliy dramaturgiyasining g‘oyaviy-tematik va badiiy jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga turtki bo‘ldi. Bu davrda sovet mafkurasining qat’iy qoliplariga qaramay, milliy o‘zlikni anglash, psixologik realizm va axloq-odob masalalari chuqurlashdi. Toshkent, Moskva, Boltiqbo‘yi respublikalari va Kavkazda o‘tkazilgan madaniyat kunlari tadbirlari dramaturglarning ijodiy tajribasini boyitdi. Natijada qoraqalpoq dramatur-

giyasi janr va g‘oyaviy-tematik jihatdan boyib bordi. Jahon adabiyoti namunalari asosida dramatik asarlar yaratildi. Xulosa qilib aytganda, 1970–1980-yillar dramaturgiyasi milliy teatr san’ati rivojlanishida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Нурмухаммедов М., Баҳадирова С., Мамбетниязов Т., Нийетуллайев С., Насруллаев Ә. Қарақалпақ совет әдебияты. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1979, 172–178-бетлер.

(2). Алланазаров Т. Театр ҳәм драматургия. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1982, 75-бет.

(3). Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг адабиёт ва санъат масалалари бўйича қарорлари тўплами (1970–1985 йиллар). Тошкент, «Ўзбекистон», 1986, 112-бет.

(4). Искусство солнечного Приаралья. К Дням литературы и искусства Каракалпакской АССР в Москве. “Советская культура”, 1980, 14 октября. № 83, с. 2.

(5). Қайыпбергенов Т. Қарақалпақ совет әдебиятының қайта қурыў дәўириндеги жағдайы ҳәм ўазыйпалары (Қарақалпақстан Жазыўшылар союзының IV пленумындағы доклад). “Әмиўдәрья”, Нөкис, 1987, № 7, 12–21-бетлер.

(6). Қайыпбергенов Т. КПСС XXVI съезди ҳәм Қарақалпақстан жазыўшыларының ўазыйпалары. “Әмиўдәрья”, Нөкис, 1981, № 7, 8–15-бетлер.

(7). Қайыпбергенов Т. Қарақалпақ совет әдебиятының актуаль мәселелери. “Әмиўдәрья”, Нөкис, 1983, № 10, 31–38-бетлер.

Qosimova Shahodat (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi; shakhodat84@gmail.com)

KIM CHUXENING “KICHIK ZAMIN YOVUZLARI” ROMANIDA AYOL VA TEATR MUAMMOSI

Annotatsiya. *XX asr birinchi yarmi koreys jamiyatida barcha sohalar qatori adabiyot bilan birga teatr san’ati ham rivojlanishning yangi bosqichiga kirdi. Ma’lumki, koreys teatri ildizlari moziyga borib taqaladi. Dastlab, koreys milliy teatrida faqat ko‘cha aktyorlari–kvandelar barabanlar jo‘rligida har bir personajga mos niqob ostida rollarni ijro etganlar. Pxansorilar uchun xalq og‘zaki ijodidan kelayotgan qissalar manba bo‘lib xizmat qilgan. XX asr boshida mamlakatda zamonaviy teatr binolari qurildi, avvallari katta hovli, bog‘ va ochiq maydonda sahnalashtirilgan asarlar uchun bezaklar o‘ylab topildi. Teatr maktablariga asos solindi, rollar taqsimlandi. Birinchi ayol aktrisalar yetishib chiqdi. Albatta, ular kisenlar edi.*

Mazkur maqolada yozuvchi Kim Chuxe qalamiga mansub “Kichik zamin yovuzlari” romanida yoritilgan kisenlar, ularning hayoti, kiban maktabi, ayol va teatr masalalari tahlil qilindi. Roman kitobxonda ham tarixiy voqelik, ham koreys xalqining milliy teatri haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Roman tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy milliy koreys teatrlari uchun tanlangan birinchi aktrisalar, ular orasida yuzaga kelgan raqobat, teatr rivojiga o‘zining chiroyli rollari bilan hissa qo‘shgan kisenlar obrazi transformatsiyaga uchragan. Asarda kisenlar obrazi salmoqli o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: *kisen, kurtizan, teatr, Chunxyan, qo‘shiq, Sim Chxon, Yashma, Liliya, Hilol, Dani, rol, Choson, Grant-Oriental.*

Косимова Шаходат (Ташкентский государственный университет востоковедения, независимый исследователь; shakhodat84@gmail.com)

ПРОБЛЕМА ЖЕНЩИНЫ И ТЕАТРА В РОМАНЕ КИМ ЧУХЕ «ЗВЕРИ МАЛОЙ ЗЕМЛИ»

Аннотация. *В первой половине XX века корейское общество вступило в новый этап развития во всех сферах, в том числе в литературе и театральном искусстве. Как известно, корейский театр своими корнями уходит в глубокую древность. Изначально в корейском национальном театре уличные актёры–квандэ–исполняли различные роли под аккомпанемент барабанов, используя маски, соответствующие образам персонажей. Источником сюжетов для пхансори служили повествования, восходящие к устному народному творчеству. В начале XX века в стране были построены современные театральные здания, разработаны декорации для постановок, которые прежде проводились в больших дворах, садах и на открытых площадках. Были основаны театральные школы, началось систематическое распределение ролей. Появились первые женщины-актрисы, которыми стали представительницы кисэн.*

В данной статье анализируются образы кисэн, особенности их жизни и деятельности, школа кибан, а также вопросы, связанные с положением женщины и развитием театра, представленные в романе Ким Чухе «Звери малой земли». Роман расширяет представления читателя как об исторической действительности, так и о национальном театре корейского народа. Анализ романа

показывает трансформацию образов первых актрис, отобранных для современных корейских национальных театров, а также особенности конкуренции между ними. Особое внимание уделяется образам кисэн, которые внесли значительный вклад в развитие театрального искусства посредством исполнения различных ролей. Образы кисэн занимают в произведении значительное место и являются важным элементом раскрытия проблематики женщины и театра.

Ключевые слова: *кисэн, куртизанка, театр, Чхунхян, песня, Сим Чхон, Яшма, Лилия, Луна, Дани, роль, Чосон, Грант-Ориентал.*

Qosimova Shahodat (Freelance researcher at the Higher School of Korean Studies, Tashkent State University of Oriental Studies; e-mail:shakhodat84@gmail.com)

THE ISSUE OF WOMEN AND THEATER IN KIM JUHEA'S NOVEL "BEATS OF A LITTLE LAND"

SPEECH ACT THEORY AND THE PRAGMALINGUISTIC ANALYSIS OF PROMPT TEXTS

Annotation. *Requests addressed to an artificial intelligence system are treated as speech acts, and the devices indicating illocutionary force in English and Uzbek are compared. The Uzbek third-person imperative, the markers iltimos and -chi, and the structure of a prompt as a macro-act are described.*

Key words: *speech act, illocutionary force, indirect act, macro-act, prompt.*

Kirish. Foydalanuvchi sun'iy intellekt tizimiga "Ushbu maqolani qisqartiring" deb yozganida u dunyo haqida biror axborotni xabar qilmaydi, balki suhbatdoshini muayyan ishni bajarishga undaydi. Bunday matnni faqat grammatik birliklar yig'indisi sifatida emas, balki so'zlovchi niyati bilan yuklangan harakat sifatida o'rganish nutqiy aktlar nazariyasining asosiy g'oyasiga mos keladi. Prompt-matnlar bu nazariya uchun qulay material, chunki ularda harakat, uning maqsadi va natijasi – tizim javobi – yozma shaklda to'liq saqlanib qoladi.

Biroq o'zbek tilida yozilgan promptlarda illokutiv kuch qanday vositalar bilan ifodalanishi, ular ingliz tilidagi vositalardan nimasi bilan farq qilishi hali tavsiflanmagan. Maqolaning maqsadi – prompt-matn-

larda illokutiv kuchni ko‘rsatuvchi vositalarni ikki tilda qiyoslash va promptni bir necha aktdan tashkil topgan butunlik sifatida tahlil qilish.

Adabiyotlar tahlili. Nutqiy aktlar nazariyasi J.Ostinning ma’ruzalarida shakllangan. Olim konstativ va performativ gaplarni farqlashdan boshlab, har qanday gapirish bir vaqtda lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiyani o‘z ichiga olishi haqidagi xulosaga kelgan, aktning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun shartlar tizimini ham taklif qilgan [6]. J.Serl va D.Vanderveken illokutiv kuchni maqsad, bajarilish usuli, kuch darajasi, propozitsional mazmun va tayyorgarlik shartlari kabi tarkibiy qismlarga ajratib, uni mantiqiy jihatdan formallashtirgan [7]. Ushbu maqolada kuch darajasi tushunchasi ayniqsa muhim, chunki prompt-matnda bir xil talab turli kuchda ifodalanishi mumkin.

O‘zbek tilshunosligida nutqiy aktlar nazariyasini o‘zbek tili materialiga tatbiq etish Sh.Safarov ishlarida izchil amalga oshirilgan. Olim bilvosita nutqiy aktlarni, ya’ni, gapning shakli bilan kommunikativ maqsadi mos kelmaydigan holatlarni o‘zbek tili misollarida tahlil qiladi [5]. M.Hakimov o‘zbek pragmalingvistikasining asosiy tushunchalarini, jumladan, kommunikativ niyat va pragmatik ma’noni tizimlashtirgan [1]. N.Mahmudov va A.Nurmonov gaplarni kommunikativ maqsadga ko‘ra darak, so‘roq va buyruq turlariga ajratib, ularning grammatik belgilarini tavsiflagan [3]. Bu tasnif grammatik gap turi va illokutiv akt o‘rtasidagi munosabatni aniqlashda tayanch bo‘ladi. Buyruq maylining shaxs-son shakllari va ularning ma’no ottenkalari Sh.Rahmatullayev darsligida batafsil yoritilgan [4], N.Mahmudov esa nutq madaniyati masalalarida murojaat va iltimos shakllarining me’yoriy tomonini ko‘rib chiqqan [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlilda illokutiv ko‘rsatkichlarni ajratish usuli qo‘llandi: har bir prompt gapida aktning turini belgilovchi grammatik, leksik va sintaktik vositalar aniqlandi. So‘ngra gapning grammatik turi [3] va uning illokutiv vazifasi solishtirilib, to‘g‘ri va bilvosita aktlar farqlandi. Ko‘p gapli promptlarda esa har bir gapning vazifasi alohida belgilanib, butun matnning umumiy maqsadi aniqlandi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi misollar parallel tuzildi.

Tahlil va natijalar. Prompt-matnlarda ochiq performativ fe’llar juda kam uchraydi. “Sizdan so‘rayman”, “I ask you to…” kabi shakllar rasmiy ohang beradi va kundalik promptlarda deyarli ishlatilmaydi. Illokutiv kuch, asosan, mayl shakli va yordamchi vositalar orqali beriladi. O‘zbek tilida asosiy ko‘rsatkich –II shaxs buyruq shakli (“qisqartiring”), ammo uning yonida promptga xos yana bir shakl faol qo‘llanadi: III shaxs buyruq-istak shakli. “Javob qisqa bo‘lsin”, “Misollar o‘zbek tilida berilsin” gaplarida so‘zlovchi adresatga emas, natijaning o‘ziga talab qo‘yadi [4]. Ingliz tilida bu vazifani “Keep it short”, “Make the answer brief” kabi II shaxs buyruq gaplari bajaradi, chunki ingliz tilida III shaxs buyruq shakli yo‘q.

Leksik ko‘rsatkichlar orasida “iltimos” so‘zi yetakchi. U gapning boshida kelganda butun promptni iltimos ramkasiga oladi, oxirida kelganda, talabni yumshatuvchi qo‘shimcha sifatida idrok etiladi. “-chi” yuklamasi esa (“Qisqartiring-chi”) talabga so‘zlashuv ohangini beradi, ko‘pincha, takroriy so‘rovlarda uchraydi. Bu vositalar illokutiv aktning turini o‘zgartirmaydi, biroq uning kuch darajasini pasaytiradi. Serl va Vanderveken nazariyasida bu holat bir illokutiv maqsadning turli kuch darajalarida amalga oshishi sifa-tida izohlanadi [7]: “Matnni qisqartiring”–“Iltimos, matnni qisqartirib bersangiz”–“Matnni qisqartirsak bo‘lmaydimi?” qatori buyruqdan iltimosga, undan taklifga o‘tishni ko‘rsatadi.

Gapning grammatik turi va illokutiv vazifasi promptlarda tez-tez mos kelmaydi. Darak, gap direktiv vazifani bajarishi mumkin: “Menga uch xatboshilik reja kerak”. So‘roq gap ham shunday: “Bu matnni ingliz tiliga o‘girib bera olasizmi?” Sh. Safarov ta’kidlaganidek, bunday bilvosita aktlarda tinglovchi gap shaklidan emas, balki vaziyatdan kelib chiqib, so‘zlovchi niyatini aniqlaydi [5]. Prompt holatida vaziyat cheklangan bo‘lsa-da, tizim bunday so‘roqlarni odatda iltimos sifatida qabul qiladi va “ha, olaman” deb emas, balki tarjimaning o‘zini taqdim etib javob beradi.

Promptdagi aktlarning asosiy turlari va ularning ikki tilda ifodalanishi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Prompt-matnlarda uchraydigan akt turlari

Akt turi	Promptdagi vazifasi	O‘zbekcha misol	Inglizcha misol
Direktiv (to‘g‘ri)	Asosiy talab	Matnni tarjima qiling.	Translate the text.
Direktiv (III shaxs)	Natijaga talab	Javob qisqa bo‘lsin.	Keep it short.
Direktiv (bilvosita)	Iltimos so‘roq yoki darak shaklida	Tarjima qila olasizmi? Menga reja kerak.	Could you translate it? I need a plan.
Assertiv	Vaziyatni tushuntirish	Men o‘qituvchiman.	I am a teacher.
Ekspressiv	Minnatdorchilik	Oldindan rahmat!	Thanks in advance!
Deklarativga o‘xshash	Rol o‘rnatish	Siz muharrirsiz.	You are an editor.

Ko‘p gapli promptlar alohida aktlar yig‘indisi emas, balki ierarxik butunlikdir. Masalan, “Men o‘qituvchiman. Ertaga 7-sinfda dars o‘taman. Mavzu bo‘yicha beshta savol tuzib bering. Oldindan rahmat!” matnida birinchi ikki gap assertiv, uchinchisi direktiv, to‘rtinchisi ekspressiv aktdir. Biroq butun matnning umumiy illokutiv maqsadi bitta – savollar tuzdirish, qolgan aktlar shu maqsadga xizmat qiladi. Bunday butunlikni makroakt deb atash mumkin. M.Hakimov matnning pragmatik yaxlitligi uning kommunikativ niyati birligiga tayanishini qayd etadi [1]. Prompt-matnda bu birlik direktiv akt atrofida tashkil topadi.

Taqiq ham direktiv aktning bir ko‘rinishi bo‘lib, promptlarda talab doirasini cheklash uchun ishlatiladi: “Misol keltirmang”, “Ortiqcha izoh bermang”, “Do not add examples”. O‘zbek tilida inkor ma’nosi fe’l tarkibidagi -ma qo‘shimchasi bilan beriladi va shaxs hamda hurmat ko‘rsatkichlari bilan bir shaklda birlashadi [4], ingliz tilida esa alohida do not yoki never so‘zlari bilan ifodalanadi. Promptlarda taqiq, odatda, asosiy direktivdan keyin keladi va uni aniqlashtiruvchi ikkinchi darajali akt vazifasini bajaradi. Bu kuzatish yuqorida aytilgan makroakt tuzilishini yana bir bor tasdiqlaydi: taqiq mustaqil maqsadga ega emas, u bosh talabga bo‘ysunadi.

Rol tayinlovchi gaplar (“Siz tajribali muharrirsiz”, “You are an experienced editor”) alohida guruhni tashkil etadi. Ular tashqi ko‘rinishdan assertiv, ammo hech qanday haqiqiy holatni tasvirlamaydi, balki muloqot uchun yangi ramka o‘rnatadi. Ostin deklarativ aktlarning muvaffaqiyatini institutsional vakolat bilan bog‘lagan edi [6], prompt holatida esa rol foydalanuvchi so‘zi bilan o‘rnatiladi va faqat shu muloqot doirasida amal qiladi.

Kommissiv aktlar promptlarda kam uchrasa-da, ular muloqotni rejalashtirishda muhim o‘rin tutadi. Foydalanuvchi “Hozir sizga uchta matn yuboraman, hammasini o‘qib chiqqaningizdan keyin tahlil qiling” deb yozganda o‘zining keyingi harakatini va’da qiladi hamda tizimdan javobni kechiktirishni so‘raydi. Bu yerda kommissiv va direktiv aktlar bitta gapda birlashadi. O‘zbek tilida kelasi zamon shakli (-aman) va payt ergash gapi (-gandan keyin) aktlar ketma-ketligini aniq belgilaydi, ingliz tilida esa bu vazifani “I will send… After that, analyse…” kabi alohida gaplar bajaradi.

Aktning qabul qilinganligi (uptake) prompt muloqotida tizim javobi orqali kuzatiladi. Javob talabga mos bo‘lsa, akt anglangan hisoblanadi, aks holda, foydalanuvchi aktni qayta ifodalaydi: “Yo‘q, men faqat xulosani so‘ragan edim”. Bu qayta ifodalashda illokutiv kuch, odatda, oshadi: iltimos shakli buyruqqa, bilvosita akt to‘g‘ri aktga o‘tadi.

Tahlil natijalari quyidagicha: o‘zbek tilida illokutiv kuch II va III shaxs buyruq shakllari, “iltimos” va “-chi” kabi vositalar bilan, ingliz tilida esa, asosan, buyruq gap va modal so‘roqlar bilan beriladi. Darak va so‘roq gaplar promptda, ko‘pincha, bilvosita direktiv bo‘lib keladi. Ko‘p gapli prompt bitta direktiv atrofida tuzilgan makroaktdir. Rad etilgan aktni qayta ifodalashda kuch darajasi ortadi.

Muhokama. Adresatning inson emasligi samimiylik shartini o‘ziga xos holga keltiradi. Foydalanuvchi talab bajarilishini chin dildan istaydi, biroq “iltimos” yoki “rahmat” so‘zlarining samimiyligi haqida gapirish qiyin, chunki ular tizimga emas, ko‘proq so‘zlovchining o‘z nutqiy odatiga tegishli. N.Mahmudov nutq odobi shakllari so‘zlovchining madaniyatini aks ettirishini ta’kidlaydi [2]. O‘zbek foydalanuvchilarining promptlarda ham bu shakllarni saqlashi, ularning mashina bilan muloqotda ham milliy nutq odobiga amal qilishini ko‘rsatadi.

Ikkinchi masala nazariyaning chegarasi bilan bog‘liq. Ostin va Serl nazariyasi ikki inson o‘rtasidagi muloqotga asoslangan bo‘lib, unda tinglovchi so‘zlovchi niyatini anglay oladigan shaxs sifatida tasavvur qilinadi [6;7-b.]. Prompt muloqotida tizimning niyatni “anglashi” haqida gapirish shartli, ammo foydalanuvchi nuqtayi nazaridan akt to‘liq amalga oshadi. U niyatini ifodalaydi, natijani kutadi va javobga qarab aktni baholaydi. Shu sababli nutqiy aktlar nazariyasini prompt-matnlarga tatbiq etishda so‘zlovchi tomoniga tayanish metodologik jihatdan asosliroq.

Xulosa. O‘zbek va ingliz tillaridagi promptlarda illokutiv kuch turli vositalar bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida III shaxs buyruq-istak shakli natijaga yo‘naltirilgan talabning alohida turini hosil qiladi, “iltimos” va “-chi” esa talabning kuch darajasini boshqaradi. Promptlarning katta qismi bilvosita akt shaklida bo‘lib, tizim ularni iltimos sifatida qabul qiladi. Ko‘p gapli prompt yagona direktiv maqsad atrofida tashkil topgan makroakt sifatida tavsiflanadi. Bu kuzatishlar o‘zbek tilida ko‘rsatma matn yozish madaniyatini o‘rgatishda qo‘llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Hakimov M.X. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. Toshkent, “Akademnashr”, 2013, 176-bet.

(2). Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘lida. Toshkent, “Akademnashr”, 2017.

(3). Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995, 232-bet.

(4). Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent, “Universitet”, 2006.
(5). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 320-bet.
(6). Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press, 1962, 168 p.
(7). Searle J.R., Vanderveken D. Foundations of Illocutionary Logic. Cambridge: Cambridge University Press, 1985, 227 p.

Radjabova Jayron Ikram qizi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs tayanch doktoranti; Gmail: radjabovajayron99@gmail.com)

“ALVIDO, QUROL!” VA “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANLARIDA BADIIY VAQT VA MAKON POETIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol!” va O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlarida badiiy vaqt va makon kategoriyalarining poetik xususiyatlari qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki adib ijodida xronotopning badiiy-kompozitsion, psixologik hamda falsafiy-estetik funksiyalarini aniqlash, urush voqeligining zamon va makon munosabatlari orqali ifodalanish mexanizmlarini yoritishdan iborat. Qiyosiy-tipologik, struktural-semantik, narratologik va kontekstual tahlil usullari yordamida romanlardagi voqealar ketma-ketligi, retrospektiv tasvir, psixologik vaqt, tarixiy xotira, makonlar almashinuvi va tabiat tasvirlarining semantik vazifalari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy vaqt, badiiy makon, xronotop, urush nasri, retrospeksiya, narrativ struktura, tarixiy xotira, psixologik vaqt, qiyosiy tipologiya, poetika, Ernest Xeminguey, O‘tkir Hoshimov.*

Раджабова Джайрон Икрам кизи (Аспирант 2-го года обучения Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои; Gmail: radjabovajayron99@gmail.com)

ПОЭТИКА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВРЕМЕНИ И ПРОСТРАНСТВА В РОМАНАХ «ПРОЩАЙ, ОРУЖИЕ!» И «ЖИЗНИ, ПРОЖИТЫЕ ВО СНЕ»

Аннотация. *В данной статье в сравнительно-типологическом аспекте исследуются поэтические особенности категорий художественного времени и пространства в романах Эрнеста Хемингуэя «Прощай, оружие!» и Уткира Хашимова «Жизни, прожитые во сне». Основная цель исследования заключается в выявлении художественно-композиционных, психологических и философско-эстетических функций хронотопа в творчестве двух писателей, а также в раскрытии механизмов художественного воплощения военной действительности посредством временных и пространственных отношений. С использованием сравнительно-типологического, структурно-семантического, нарратологического и контекстуального методов анализа рассматриваются последовательность событий, ретроспективное повествование, психологическое время, историческая память, смена пространственных локусов и семантические функции пейзажных описаний в исследуемых романах.*

Ключевые слова: *художественное время, художественное пространство, хронотоп, военная проза, ретроспекция, нарративная структура, историческая память, психологическое время, сравнительная типология, поэтика, Эрнест Хемингуэй, Уткир Хашимов.*

Radjabova Jayron Ikram qizi (2nd year PhD student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named Alisher Navoi; Gmail: radjabovajayron99@gmail.com)

THE POETICS OF ARTISTIC TIME AND SPACE IN THE NOVELS “A FAREWELL TO ARMS” AND “LIVES LIVED IN A DREAM”

Annotation. *This article examines the poetic features of artistic time and space in Ernest Hemingway’s A Farewell to Arms and O‘tkir Hoshimov’s Lives Lived in a Dream from a comparative-typological perspective. The primary aim of the study is to identify the artistic-compositional, psychological, and philosophical-aesthetic functions of the chronotope in the works of both authors, as well as to explore the mechanisms through which the realities of war are represented through temporal and spatial relationships. Employing comparative-typological, structural-semantic, narratological, and contextual methods of analysis, the study investigates the sequence of events, retrospective narration, psychological time, historical memory, spatial transitions, and the semantic functions of landscape descriptions in the selected novels.*

Keywords: *artistic time, artistic space, chronotope, war prose, retrospection, narrative structure, historical memory, psychological time, comparative typology, poetics, Ernest Hemingway, O‘tkir Hoshimov.*

Kirish. XX asr jahon adabiyotida urush mavzusi insoniyat tarixidagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni badiiy idrok etishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Jahon urushlari, totalitar siyosiy tizimlar, mustamlakachilik munosabatlari va harbiy mojarolar adabiyotda nafaqat tarixiy voqealar tasvirini, balki inson mavjudligining ma’naviy, axloqiy va psixologik asoslarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini ham yuzaga keltirdi. Ayniqsa, urush nasrida inson va tarix, shaxs va jamiyat, hayot va o‘lim, erkinlik va majburiyat kabi qarama-qarshi tushunchalar o‘ziga xos badiiy talqin kasb etdi.

Urush haqidagi romanlarda tarixiy voqelikning badiiy ifodasi ko‘pincha vaqt va makon kategoriyalari bilan uzviy bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Chunki urush insonning odatiy hayotiy ritmini o‘zgartiradi, makon haqidagi tasavvurlarini izdan chiqaradi hamda o‘tmish, hozirgi zamon va kelajak o‘rtasidagi tabiiy uzviylikni murakkablashtiradi. Tinchlik sharoitida inson uchun barqarorlik va xavfsizlik timsoli bo‘lgan makon urush davrida tahdid, begonalashuv yoki yo‘qotish manbaiga aylanishi mumkin. Shuningdek, jangovar vaziyatlarda vaqtning kechishi ham odatiy xronologik o‘lchovdan farqli ravishda idrok etiladi: ayrim lahzalar qahramon ongida favqulodda cho‘zilsa, uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar qisqa xotira parchalarida mujassamlashadi.

Adabiyotlar sharhi. Mazkur tadqiqot sifatli adabiy tahlil tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqot materiali sifatida Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol!” va O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlari tanlandi. Asarlarning turli tarixiy va milliy adabiy muhitga mansubligi qiyosiy tahlil uchun muhim metodologik imkoniyat yaratadi. Tadqiqotda bir-birini to‘ldiruvchi beshta metodologik yondashuvdan foydalanildi. Birinchisi, qiyosiy-tipologik metod bo‘lib, uning yordamida ikki roman xronotopidagi umumiy va farqli xususiyatlar aniqlanadi. Bunda asarlar o‘rtasida bevosita adabiy ta’sir mavjudligi oldindan taxmin qilinmaydi. Qiyoslashning asosi urush mavzusining turli adabiy tizimlarda o‘xshash badiiy muammolarni yuzaga keltirishi bilan belgilanadi. Ikkinchisi, narratologik metod bo‘lib, u voqealar ketma-ketligi, hikoyalash tartibi, retrospeksiya, narrativ davomiylik va fokalizatsiya xususiyatlarini o‘rganishga xizmat qiladi. Genettening narrativ vaqtga oid kategoriyalari mazkur bosqichda asosiy tahliliy vosita sifatida qo‘llaniladi. Uchinchisi, xronotopik tahlil metodi bo‘lib, unda Baxtin nazariyasiga tayangan holda vaqt va makonning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganiladi. Front, gospital, uy, shahar, chegara, yo‘l va tabiat makonlari alohida geografik birliklar sifatida emas, balki muayyan tarixiy va psixologik vaqt bilan birlashgan badiiy tizim sifatida talqin qilinadi. To‘rtinchisi, struktural-semantik metod bo‘lib, uning yordamida makon va vaqtga oid obrazlar, ramzlar, takrorlanuvchi detallar hamda kompozitsion parallelizmlar tahlil qilinadi. Jumladan, yomg‘ir, kuz, daryo, yo‘l, chegara va yopiq makonlarning badiiy ma’nolari o‘rganiladi. Beshinchisi, kontekstual tahlil metodi bo‘lib, u romanlardagi tarixiy voqelik va badiiy talqin munosabatlarini aniqlashga qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hemingway romanida Birinchi jahon urushi, Hoshimov romanida esa sovet davri tarixiy jarayonlari asarning poetik tuzilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi kontekst sifatida hisobga olinadi. Tadqiqotning tahliliy mezonlari quyidagicha belgilandi: voqealar vaqtining xronologik yoki retrospektiv tashkil etilishi; tarixiy va individual vaqt munosabati; makonlar almashinuvi; ochiq va yopiq makonlarning semantikasi; tabiat tasvirining vaqtni belgilashdagi funksiyasi; qahramonning ruhiy holati va makon idroki o‘rtasidagi bog‘liqlik. Ushbu mezonlarning birgalikda qo‘llanishi romanlarni faqat sujet darajasida emas, balki ularning ichki poetik qonuniyatlari asosida qiyoslash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Badiiy vaqtning tashkil etilishi har qanday epik asarning kompozitsion xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Urush haqidagi romanlarda esa vaqtning badiiy shakllanishi ayniqsa murakkab mazmun kasb etadi. Chunki urush inson hayotini keskin o‘zgartirib, uning shaxsiy tajribasini tarixiy jarayonlar bilan to‘qnash keltiradi. Natijada voqealarning tashqi xronologiyasi va qahramonning ichki vaqt idroki o‘rtasida muayyan ziddiyat yuzaga keladi. Xemingueyning “Alvido, qurol!” romanida voqealar Frederic Henryning birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Asar o‘tmishda yuz bergan voqealarni eslash shaklida bayon etilgan bo‘lsa-da, asosiy syujet rivoji nisbatan izchil xronologik tartibga ega. Qahramonning frontdagi faoliyati, jarohatlanishi, gospitaldagi davolanishi, Ketrin Barkley bilan munosabatlarining rivojlanishi, frontga qaytishi, harbiy chekinish, urushdan voz kechishi va Shveytsariyaga o‘tishi o‘zaro sababiy bog‘langan voqealar tizimini tashkil etadi. Bu izchillik romanning mutlaq chiziqli tuzilganini anglatmaydi. Asarda vaqtning qisqartirilishi, ayrim davrlarning umumlashtirilishi, muhim lahzalarning batafsil tasvirlanishi va hikoyachining o‘tmish tajribasiga munosabati orqali narrativ vaqt murakkablashadi. Shunga qaramay, asarning asosiy kompozitsion harakati qahramonning bir hayotiy bosqichdan boshqasiga o‘tishi bilan belgilanadi. Romanning besh qismga ajratilishi ham ushbu rivojlanish mantig‘iga mos keladi. Har bir qism qahramon hayotidagi muayyan burilish bilan bog‘liq bo‘lib, voqealarning ketma-ketligi uning dunyoqarashidagi o‘zgarishlarni bosqichma-bosqich ochib beradi. Qahramonning yana harbiy muhitga qaytishi shaxsiy vaqt va tarixiy vaqt o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi.

Urush sharoitida ushbu ikki vaqt shakli o‘rtasidagi ziddiyat ayniqsa keskinlashadi. Tarixiy jarayonlar shaxsiy hayotga tashqaridan kirib keladi, insonning kelajak haqidagi tasavvurlarini o‘zgartiradi va uning mavjudlik imkoniyatlarini cheklaydi. Xeminguey romanida Birinchi jahon urushi keng tarixiy fon vazifasini bajarsa-da, asarning asosiy narrativ markazi Frederic Henryning individual tajribasidir. Urushning siyosiy sabablari yoki davlatlararo munosabatlar batafsil tarixiy sharhlanmaydi. Aksincha, tarixiy voqelik qahramonning bevosita kuzatuvlari, suhbatlari va shaxsiy kechinmalari orqali anglashiladi. Bu usul tarixiy vaqtni individuallashtirish imkonini beradi. Urush qahramon uchun mavhum siyosiy hodisa emas, balki uning kundalik hayotini o‘zgartirayotgan real tajribaga aylanadi.

O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida ham tabiat tasvirlari muhim poetik vazifa bajaradi. Ayniqsa, kuz manzarasi asarning umumiy fojiaviy kayfiyati va kompozitsion yaxlitligini belgilovchi obrazlardan biridir.

Qiyosiy-tipologik tahlil natijalarining umumlashtirilishi. Olib borilgan matniy va qiyosiy tahlil ikki romanda xronotopning bir qator umumiy hamda farqli xususiyatlarini ajratish imkonini beradi.

Qiyoslash mezoni	“Alvido, qurol!”	“Tushda kechgan umrlar”
Narrativ vaqt	Retrospektiv hikoyalash doirasida nisbatan izchil rivojlanish	Ko‘p qatlamli retrospektiv kompozitsiya
Tarixiy vaqt	Birinchi jahon urushi voqeligi	Sovet davrining turli tarixiy bosqichlari
Psixologik vaqt	Individual tajriba, kutish va yo‘qotish	Urush xotirasi va ruhiy iztirobning davomiyligi
Asosiy makon	Italiya fronti, gospital, Stresa, Shveysariya	Afg‘oniston, uy, shahar, ijtimoiy-siyosiy muhit
Yo‘l xronotopi	Urushdan uzoqlashish va shaxsiy erkinlikka intilish	Tarixiy zo‘ravonlikka duch kelish va uning oqibatlari
Tabiat xronotopi	Yomg‘ir, qor, tog‘ va fasllarning almashinuvi	Kuz manzarasi va halqasimon kompozitsiya
Xotira funksiyasi	Shaxsiy tajribani qayta hikoyalash	Shaxsiy va tarixiy xotiraning tutashuvi
Yetakchi falsafiy mazmun	Inson mavjudligining beqarorligi	Shaxs va tarixiy tizim o‘rtasidagi ziddiyat

Xulosa. Ernest Xeminguey ning “Alvido, qurol!” va O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlarida badiiy vaqt va makon poetikasini qiyosiy-tipologik o‘rganish natijasida mazkur kategoriyalarning asarlar kompozitsiyasi, qahramonlar ruhiyati va mualliflarning falsafiy-estetik konsepsiyasini shakllantirishdagi muhim vazifalari aniqlandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, har ikki romanda xronotop urush voqeligini tasvirlovchi tashqi shakl bo‘lib qolmay, inson va tarix munosabatlarini badiiy idrok etishning asosiy vositalaridan biriga aylanadi.

Qiyosiy tahlil natijasida har ikki romanda urush makoni insonning erkinligi va shaxsiy hayotiga tahdid soluvchi badiiy tizim sifatida talqin qilinishi aniqlandi. Biroq Hemingwayda makonlar almashinuvi ko‘proq individual hayotiy tanlov bilan bog‘lansa, Hoshimovda makon tarixiy xotira va ijtimoiy munosabatlar bilan kengaytiriladi. Shuningdek, tabiat tasvirlarining xronotopik vazifasi ham romanlar poetikasida muhim o‘rin egallaydi. Hemingwaydagi yomg‘ir va fasllar almashinuvi qahramonning shaxsiy kechinmalari hamda yo‘qotishlari bilan bog‘liq bo‘lsa, Hoshimovdagi kuz manzarasi tarixiy va individual fojialarni umumlashtiruvchi ramziy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning asosiy nazariy natijasi shundan iboratki, urush nasrida xronotopni uch o‘zaro bog‘liq darajada tahlil qilish maqsadga muvofiq: birinchisi voqealar vaqtining narrativ tashkil etilishi; ikkinchisi makonning tarixiy va semantik funksiyasi; uchinchisi vaqt va makonning qahramon ruhiyati bilan o‘zaro munosabati. Mazkur uch darajali yondashuv turli milliy adabiyotlarga mansub romanlarning poetik xususiyatlarini yagona metodologik mezon asosida qiyoslash imkonini beradi. Umuman, “Alvido, qurol!” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida badiiy vaqt va makonning turlicha tashkil etilishi urush mavzusining ikki xil tarixiy-madaniy tajriba doirasida badiiy talqin etilganini ko‘rsatadi. Xeminguey individual inson mavjudligining fojiaviy mohiyatini markazga qo‘ysa, Hoshimov shaxsiy taqdir orqali tarixiy xotira, ijtimoiy adolatsizlik va ma’naviy mas’uliyat masalalarini kengroq yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bakhtin M.M. (1981). Forms of Time and of the Chronotope in the Novel: Notes toward a Historical Poetics. In M.Holquist (Ed.), The Dialogic Imagination: Four Essays (C.Emerson&M.Holquist, Trans., p. 84–258). Austin: University of Texas Press.

(2). Beversluis J. (1989). Dispelling the Romantic Myth: A Study of a Farewell to Arms. The Hemingway Review, 9(1), p. 18–25.
(3). Hemingway E. (1929). A Farewell to Arms. New York: Charles Scribner's Sons.
(4). Hoshimov O'. (2002). Tushda kechgan umrlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

Yuldashova Zuxra Xasan qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti;
https://orcid.org/0009-0000-7648-6244; zyuldashova3@gmail.com)

XORIJ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI MUSHTARAKLIK: OBRAZLAR XILMA-XILLIGINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek va jahon xalqlarining 40 dan ortiq sehrli ertaklari qiyosiy-tipologik tahlil qilinadi. Tadqiqotda V.Propp metodologiyasi va ATU xalqaro indeksi asosida g'ayritabiiy obrazlarning (dev, ajdarho, yalmog'iz, pari) funksional analoglari qiyoslangan. Tahlil natijasida ertak sujetlarining tarkibiy sxemasi universal xarakterga ega ekanligi, biroq obrazlarning ramziy mazmuni milliy landshaft hamda milliy-madaniy omillar (Xorazm ertaklari misolida voha va cho'l ziddiyati) ta'sirida o'zgarganligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *xalq ertaklari, qiyosiy folklorshunoslik, obrazlar tizimi, sehrli ertak, Propp morfologiyasi, ATU indeksi, Xorazm folklori, landshaft determinizmi.*

ОБЩНОСТЬ В ЗАРУБЕЖНЫХ И УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ: СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МНОГООБРАЗИЯ ОБРАЗОВ

Аннотация. *В статье на основе сравнительно-типологического метода анализируется более 40 волшебных сказок узбекского и мирового фольклора. На базе методологии В. Проппа и международного индекса ATU сопоставлены функциональные аналоги сверхъестественных персонажей (див, дракон, Баба-яга, пери). Доказывается универсальность композиционных схем сказочных сюжетов, при этом обосновывается, что символическое содержание образов трансформировалось под влиянием национального ландшафта и культурно-бытовых факторов (на примере оппозиции оазиса и пустыни в хорезмских сказках).*

Ключевые слова: *народные сказки, сравнительное фольклороведение, система образов, волшебная сказка, морфология Проппа, индекс ATU, хорезмский фольклор, ландшафтный детерминизм.*

COMMONALITIES IN FOREIGN AND UZBEK FOLK TALES: A COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF CHARACTER DIVERSITY

Annotation. *This article provides a comparative-typological analysis of over 40 magic tales from Uzbek and world folklore. Drawing on V.Propp's methodology and the ATU international index, the study compares the functional analogues of supernatural characters (dev, dragon, yalmog'iz-kampir, pari). The results prove the universality of the compositional structure of tale plots, while demonstrating that the symbolic meaning of characters was transformed under the influence of the national landscape and cultural factors (exemplified by the oasis-desert contrast in Khorezm tales).*

Key words: *folk tales, comparative folkloristics, character system, magic tale, Proppian morphology, ATU index, Khorezm folklore, landscape determinism.*

Kirish. Xalq ertagi insoniyatning eng qadimiy va eng barqaror badiiy tafakkur shakllaridan biri sifatida deyarli barcha xalqlar madaniyatida uchraydi. Bir-biridan geografik va tarixiy jihatdan uzoq turgan xalqlarning ertak sujetlarida uchraydigan ajablanarli o'xshashlik uzoq vaqtdan beri folklorshunoslar e'tiborini tortib kelmoqda. Bu o'xshashlik masalasini ilmiy tizimga solishga birinchilardan bo'lib A.Aarne intilgan bo'lsa, uning ishi keyinchalik S.Tompson va X.-Y.Uter tomonidan kengaytirilib, bugungi kunda ATU (Aarne–Thompson–Uther) xalqaro indeksiga aylandi [1].

O'zbek folklorshunosligida xalq ertaklarini jahon konteksti bilan qiyoslash masalasi alohida yo'nalish sifatida shakllangan. Biroq mintaqaviy, xususan, Xorazm ertak an'analarining umumjahon tizimidagi o'rnini aniqlashtirish va ularning obrazlar tizimini xorijiy analoglar bilan qiyosiy tahlil qilish masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda [11]. Zamonaviy jahon folklorshunosligida Jek Zayps (J.Zipes) va Alan Dandes (A.Dundes) kabi olimlar ertaklarning nafaqat strukturaviy, balki ijtimoiy-madaniy va ekologik determinizmini o'rganishga urg'u bermoqdalar [2;12-b.]. Matnlarning strukturaviy transformatsiyasi va tillararo janriy tabiatini tadqiq etishda ham qiyosiy metod muhim o'rin tutadi [13].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Xorij va o‘zbek ertaklaridagi obrazlar nafaqat syujet funksiyasi (Propp morfologiyasi) asosida, balki Xorazm vohasining tabiiy-geografik (sug‘orish dehqonchiligi, Amudaryo, cho‘l va voha ziddiyati) omillari ta’sirida qanday o‘zgarganligi manbalarga tayangan holda qiyosiy-madaniy kontekstda ertak matnlari misolida isbotlab berildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ertak syujetlarini qiyosiy o‘rganishning nazariy negizini V.Proppning funksional tahlil metodologiyasi tashkil etadi. Olim ertak qahramonlarining tashqi xususiyatlari emas, balki ular bajaradigan harakat funksiya barqaror bo‘lishini asoslab berdi [3]. Ushbu yondashuv mazkur maqolada obrazlarni ularning sujetidagi vazifasi asosida qiyoslash imkonini beradi.

O‘zbek folklorshunosligida M.Afzalov [4], K.Imomov [5], B.Sarimsoqov [6] va M.Jo‘rayev [7] ertak janrining tasnifi va mifologik ildizlarini ilmiy asoslab berganlar. So‘nggi yillarda X.Bozorovning salbiy obrazlarning lingvopoetik tahlili [8], N.Achilovaning ajdarho obrazining evolyutsiyasi [9] va G Kabilovaning mifologik qush obrazi bo‘yicha tadqiqotlari [10] qiyosiy yo‘nalishning o‘zbek ilmiy makonida yanada mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Metodologiya. Tadqiqot materiali sifatida “O‘zbek xalq ertaklari” (2 jildlik) [14], “Xorazm ertaklari” (F.Abdullayev nashri) [11], A.Afanasyevning “Rus xalq ertaklari”, aka-uka Grimm ertaklari va yapon “mukashibanashi” to‘plamlaridan tanlab olingan 40 ta sehrli ertak korpusi asos qilib olindi. Maqolada strukturalizm hamda qiyosiy-tipologik metod yetakchi tamoyil hisoblanadi. Matnlararo analogiyalarni aniqlashda kompozitsion-funksional tahlildan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 1. Sehrli ertak kompozitsiyasining umuminsoniy sxemasi va uchlik qonuniyati. V.Proppning funksional-strukturaviy metamodeli asosida tahlil qilingan 40 dan ortiq transmadaniy ertaklar korpusi shuni ko‘rsatadiki, syujet qurilishi tadqiqotga jalb qilingan ayrim ertaklar invariant (o‘zgarmas) kompozitsion sxemaga ega. Ertakning lingvomifologik makoniga kirish vazifasini bajaruvchi an’anaviy formulalar (o‘zbekcha "Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...", ruscha "Жили-были...", nemischa "Es war einmal...") xronotopni universallashtirib, tinglovchi shuurida ritualistik tayyorgarlikni shakllantiradi.

Sehrli ertak morfologiyasini harakatlantiruvchi asosiy konstruktiv unsur – uchlik qonuniyatidir (triada prinsipi). Ushbu fenomen darsliklardagi oddiy raqamlar takrori bo‘lmay, tub mifopoetik va koinotning uch qatlamli (arxetipal yuqori, o‘rta va quyi olamlar) tuzilishi haqidagi qadimgi tasavvurlar bilan bog‘liq. Epik dinamikada uchlik prinsipi sinovlarning gradualligi (keskinlashuvi)ni ta’minlaydi: birinchi va ikkinchi urinishlar an’anaviy muvaffaqiyatsizlik yoki ekspozitsiya vazifasini bajarsa, uchinchi bosqich kulminatsiya va qahramonning initsiatsiyadan (sinovdan) muvaffaqiyatli o‘tganini tasdiqlaydi.

O‘zbek sehrli ertak an’anasida, xususan, “Kenja botir” yoki “Uch birodar” syujetlarida uch aka-uka, uch yo‘l ayrichi yoki qahramonning uch kunlik jangi bevosita rus folkloridagi Ivan-Sarevichning uch boshli maxluqlar bilan to‘qnashuvi yoki german ertaklaridagi uchinchi o‘g‘ilning g‘alabasi bilan tipologik egizaklik hosil qiladi. Og‘zaki ijod tabiati nuqtayi nazaridan esa bu usul baxshi-ertakchi xotirasi uchun sujet zanjirini mantiqiy mnemotexnik qolipda ushlab turishga xizmat qilgan.

2. Salbiy va g‘ayritabiiy obrazlar sitemasining qiyosiy-mifopoetik tahlili. Qiyosiy-tipologik tahlil jarayonida salbiy va g‘ayritabiiy personajlar funksiyasining universalligi, ammo ularning moddiy-ramziy qobig‘i milliy landshaft determinizmiga bo‘ysunishi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Dev obrazi. O‘zbek ertak ijodiyotida dev yer osti va tog‘ g‘orlari kabi ktonik (olam osti) makonlar hukmdori, antropomorfik va gigant mavjudotdir. Uning tipik portreti va xulq-atvori epik matnlarda an’anaviy tasvirlanadi. Masalan, “Yetti boshli dev” ertagida uning namoyon bo‘lishi mifologik giperbolizatsiyaga tayanadi: “...Botir qarasa, bir tog‘ning g‘oridan vahimali ovoz chiqib, yer-ko‘kni larzaga keltirib, og‘zidan o‘t, burnidan tutun sochib yetti boshli qora dev chiqib kelayotgan emish”.

Funksional jihatdan ushbu obraz rus ertaklaridagi Zmey Gorynich (ko‘p boshli maxluq) yoki yapon mifologiyasidagi tog‘larda chindon qurib chiquvchi yirtqich Oni (鬼) an’anasi bilan funksiyadosh (zararkunanda va sinovchi). Biroq yaponiyalik analogidan farqli o‘laroq, o‘zbek mifopoetikasida dev o‘rmonlar emas, quruq va hayotsiz cho‘llar, qurg‘oq tog‘ toshlari bilan lokalizatsiya qilinadi.

Ajdarho obrazi. Dunyo xalqlari mifologiyasidagi eng sinkretik arxetiplardan biri bo‘lgan ajdarho obrazi qiyoslanganda, yanada qiziqarli transformatsiya ko‘zga tashlanadi. G‘arb va slavyan ertak tizimida ajdarho (Drakon) – xazinani qo‘riqlovchi, olov sochuvchi va malikalarni o‘g‘irlovchi sof destruktiv (yovuz) kuch hisoblanadi (ATU 300 – “Ajdarhoni o‘ldirgan qahramon” sujet tipi).

Aksincha, Xorazm va voha folklor matnlarida ajdarho, ko‘p hollarda, “Suv iloni” yoki “Suv egasi” kulti shaklida moddiylashadi. Xorazmning “Suv iloni va dehqon” ertagidagi mana bu parcha uning hududiy va ekologik tabiatini to‘liq ochib beradi: “...Daryoning bo‘g‘zini bir ulkan suv iloni to‘sib yotibdi. El-yurt

suvsiz, ekinlar qurigan. Kim qizini shu ilonga qurbonlikka bersa, o‘sha kuni daryodan bir qultum suv qo‘yib yuborarmish”.

Ushbu motiv voha xalqining sug‘orish dehqonchiligiga asoslangan turmush tarzi, zardashtiylikning muqaddas suv (Anahita) kulti hamda “suv – hayot, suvsizlik – muqarrar o‘lim” degan ekologik-ekzistensial xavotirlarining mifologik aksidir. G‘arbdagi ajdarho kosmik xaos timsoli bo‘lsa, Xorazm ertaklaridagi ajdarho – gidrologik inqiroz va tabiat injiqliklarining ramziy transformatsiyasidir.

Yalmog‘iz kampir obrazi. Mazkur mifologema slavyan xalqlari folkloridagi Baba Yaga obrazi bilan universal strukturaviy analogiyaga ega. Ikkala obraz ham temir tishlilik, inson go‘shtini iste’mol qilishga moyillik va bosh qahramon yo‘lida birinchi dushman yoki sinovchi sifatida chiqish atributlariga ega. Biroq ularning makon munosabati (landshaft determinizmi) tubdan farq qiladi. Slavyan ertaklarida Baba Yaga quyuq, o‘tib bo‘lmas o‘rmon (тайга) ichidagi tovuqoyoq kulbada yashasa, Xorazm ertak versiyalarida u quyidagicha shakllanadi: “...Kenja botir ot choptirib yura-yura bir quruq biyobonga yetibdi. Qum tepalari orasida esgan bo‘ronda ko‘zlari ko‘r bo‘lguday bir loyqa ko‘l bo‘yida cho‘l kampiri – Yalmog‘iz o‘zining yovuz rejasini tuzib o‘tirgan emish”.

Bu yerda tayga o‘rnini loyqa daryo va qumli barxanlar (cho‘l) egallaydi. Demak, g‘ayritabiiy obrazlarning arxetipal asosi barcha madaniyatlarda mushtarak bo‘lsa-da, ularning poetik tabiati va ramziy yashash makoni bevosita muayyan xalqning etnik-geografik areali ta’sirida qayta ishlanadi.

3. Ijobiy qahramon va sehrli yordamchilar obrazi tipologiyasi. Sehrli ertak epik tizimida bosh qahramon va uning g‘alabasini ta’minlovchi transmental kuchlar – sehrli yordamchilar obrazi universal mifopoetik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. O‘zbek va xorij xalqlari ertaklarida bosh qahramon (izlanuvchi/g‘olib) aksar hollarda ijtimoiy iyerarxiyaning eng quyi qatlamidan tanlanadi. Bu tipologik status o‘zbek ertaklarida “kenja o‘g‘il”, “yetim yigit” yoki “taz” (Kallaning taqiri) shaklida moddiylashsa, slavyan mifologik makonida Ivan-Durak, g‘arb ertakchiligida esa Zolushka yoki uchinchi o‘g‘il kabi passiv-marginallikdan faol-qahramonlikka o‘tuvchi obrazlar simmetriyasini hosil qiladi.

Folklorshunos K.Imomov ta’kidlaganidek, qahramonning zohiriy zaifligi yoki ijtimoiy kamsitilganligi uning kelajakdagi buyuk initsiatsiyasini (ma’naviy-jismoniy yuksalishini) tayyorlovchi badiiy prizmadir. Masalan, “Uch birodar” yoki “Kenja botir” ertaklarida qahramon portreti, dastlab, passiv, aka-ukalarining soyasida qolgan tarzda tasvirlanadi: “...Katta va o‘rta akalari ot minib, el kezib dovruq qozonmoqchi bo‘lishdi. Kenja o‘g‘il esa kulda o‘tirgan ekan, akalari uni masxara qilib, kemtik kulbada tashlab ketishdi. Biroq sinov soati yetganda, g‘or ichiga tushishga faqat shu kenja botir botirlatib yurak yutdi...” Bu motiv rus xalq ertaklaridagi Ivanning pech ustida yotib, yakunda eng oliy mukofotga erishishi bilan to‘liq mos tushadi. Gap ijtimoiy adolat va inson ichki quvvatining zohiriy niqoblarni yorib chiqishi haqidagi umuminsoniy arxetip haqida bormoqda.

Sehrli yordamchi yoki vositachi (Pari, Hizr, Simurg‘, Tulpor) obrazi ham transmadaniy xarakterga ega. G‘arb xalqlari folklorida bu funksiyani Fairy (Peri) yoki jozibador tabiat ruhlari – Elflar bajarsa, o‘zbek sehrli ertaklarida pari obrazi yanada murakkab, islomgacha bo‘lgan animistik tasavvurlar va keyingi islomiy jin/maloika tushunchalarining qorishig‘idan kelib chiqqan sinkretik mifologemadir. U o‘zbek matnlarida, ko‘pincha, transformatsiya (qiyofa o‘zgartirish) xususiyatiga ega: “...Botir ko‘l bo‘yida poylab tursa, osmondan uchta oq kabutar uchib kelibdi. Yerga qo‘nib, parlarini yechibdi-da, tengi yo‘q uch go‘zal parizodga aylanib, suvga tushibdi...”

Bu yerda qush qiyofasidagi pari slavyan va german ertaklaridagi uchar oqqush-malikalar (Царевна-Лебедь) bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri funksional analog hosil qiladi. Ularning vazifasi bitta: insoniy quvvat yetmagan kosmik va ktonik chegaralarda qahramonga trans-substansial (sehrli) ko‘mak berishdir.

4. Xorazm ertaklaridagi mahalliy o‘ziga xoslik va landshaft determinizmi. Xorazm mintaqaviy ertak an’analari o‘zbek folklor fondining o‘ziga xos eng qadimiy etnolokal qatlamlaridan biri hisoblanadi. Undagi barcha g‘ayritabiiy yoki ijobiy obrazlar evolyutsiyasida voha aholisining geografik-xo‘jalik yashash tarzi – landshaft determinizmi (tabiiy muhit belgilovchiligi) hal qiluvchi rol o‘ynagan. Alan Dandes ilgari surgan "folklor muhiti" nazariyasiga tayanilsa, geografik reallik mifik tafakkurni shakllantiruvchi bosh omildir.

Xorazm ertaklarida daryo, loyqa suvli ko‘l, o‘zan va qamishzor motivlari badiiy va kultik markaz vazifasini o‘taydi. Boshqa mintaqa (masalan, Farg‘ona yoki Surxondaryo) ertaklarida qahramonning tog‘ yoki o‘rmon orqali o‘tishi ustuvor bo‘lsa, Xorazm an’anasida dunyoning ikki qutbli modeli “Voha (obodlik, hayot)” va “Cho‘l (xavfli noma’lum olam, ktonik dunyo)” ziddiyatiga tayanadi. F.Abdullayev yozib olgan matnlarda Amudaryoning mifologik ramzi sifatida “Oq-sariq qamish" yoki “Suv egasi” obrazlari markaziy o‘ringa chiqadi.

Masalan, cho‘l landshaftining salbiy personajlar tabiatiga ta’siri ”Cho‘l kampiri va botir” ertagida yaqqol namoyon bo‘ladi: “...Yo‘lovchi qum barxanlari orasida horib-tolib borarkan, birdan shamol ko‘tarilib, qum dambalari orasidan tishlari so‘yilganday otilib chiquvchi, ko‘zlari sahro quyoshida kuygan qora cho‘l kampiri ko‘rindi. U quyuq o‘rmondagi Baba Yaga emas, aynan sahro bag‘ridagi suvsizlik va suyak qurikli qahraton timsoli edi”.

Shuningdek, sehrli vositalar tahlili ham lokal-xo‘jalik turmush tarzini aks ettiradi. Agar g‘arb ertaklarida sehrli vosita sifatida o‘rmon o‘simliklari yoki metall buyumlar (oltin olma, ko‘rinmas dubulg‘a) ustuvorlik qilsa, Xorazm matnlarida voha o‘simlik dunyosiga xos bo‘lgan “sehrli qamish tayoq” yoki daryo xudosi bergan “sehrli sopol ko‘za” yetakchilik qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, hatto eng universal va global xarakterga ega bo‘lgan ATU indeksidagi sujet tiplari ham mahalliy landshaft, mikroiqlim hamda etnik-geografik muhit s वर्गीकृत filtridan o‘tib, mutloqo yangi milliy-hududiy mazmun kasb etishidan dalolat beradi.

1-jadval

Sehrli ertaklardagi g‘ayritabiiy obrazlarning funksional va mintaqaviy qiyosiy tahlili

Obraz turi	Funksiyasi (Propp bo‘yicha)	O‘zbek va Xorazm ertaklaridagi ko‘rinishi	Xorijiy analogi (Rus, German, Yapon folklori)	Mintaqaviy/Landshaft determinizmi
Dev/Ajdarho	Zararkunanda (ziyon yetkazuvchi, to‘siq yaratuvchi)	Tog‘ g‘oridagi ko‘p boshli Dev; Suv manbayini to‘suvchi Ajdarho yoki Xorazmdagi "Suv iloni"	Rus ertaklarida Zmey Gorynych, German mif-larida olov sochuvchi Drakon, Yaponiyada tog‘ maxlug‘i Oni	O‘zbek folklorida qurg‘oqchilik va suv taqchilligi (voha tabiati), xorijda esa o‘rmon va vulqon landshafti ustuvor
Yalmog‘iz / Pari	Sinovchi, sehrli yordamchi yoki yovuz dushman	Temir tishli Yalmog‘iz kampir, Xorazm ertaklaridagi "Cho‘l kampiri" yoki loyqa daryodagi "Suv parisi"	Rus mifologiyasidagi Baba Yaga (tovuqoyoq uydagi), G‘arb xalqlari folkloridagi Fairy yoki jozibador Elflar	G‘arbda sirli va quyuq o‘rmonlar mifologiyasi, Xorazmda esa qumli cho‘l va Amudaryo ko‘llari geografiyasi ta’siri
Bosh qahramon	Qidiruvchi, topshiriqni bajaruvchi, g‘olib	Oiladagi kenja o‘g‘il, jamiyatda kamsitilgan yetim yigit yoki hiylagar Aldarko‘sa tipi	Rus sehrli ertaklaridagi Ivan-Durak (yoki Ivan-Chesnak), G‘arbda Zolushka yoki uchinchi o‘g‘il tipi	Ijtimoiy adolat va zohiriy zaiflikdan ichki ma’naviy-jismoniy qudratga o‘tish motivining universal tabiati.
Sehrli vosita	Qahramonga ko‘maklashuvchi yordamchi buyum	Uchqanchoq ot, suv iloni tangrisi bergan sehrli ko‘za, sehrli qamish tayoq	Rus ertaklaridagi "uchar gilam", oltin olma, german ertaklaridagi ko‘rinmas qilich yoki sehrli tayoqcha	Mahalliy turmush tarzi elementlari: o‘zbeklarda chorvachilik (ot) va voha o‘simliklari (qamish) ramziyligi.

5. Mushtaraklik va farqlanishning tarixiy-madaniy sabablari. Yuqorida ko‘rilgan materiallar shuni ko‘rsatadiki, sujet va funksiyalardagi mushtaraklik insoniyat badiiy tafakkurining tipologik yaqinligi hamda Buyuk ipak yo‘li orqali sujetlarning madaniyatlararo migratsiyasi bilan izohlanadi. Farqlanish sabablari esa bevosita tabiiy-geografik muhit (cho‘l, voha, o‘rmon), xo‘jalik turmush tarzi va diniy-mifologik tizim bilan bog‘liqdir. Aynan shu omillar tufayli bir xil sujet funksiyasini bajaruvchi obrazlar turli xalqlarda o‘ziga xos tashqi qiyofa, atributlar va o‘zgacha ramziy mazmun kasb etadi.

Xulosa. O‘tkazilgan qiyosiy-tipologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorij va o‘zbek xalq ertaklari o‘rtasida syujet-kompozitsion darajada chuqur genetik va tipologik mushtaraklik mavjud. Sehrli ertak kompozitsiyasining umuminsoniy sxemasi, uch karra takrorlanish qonuniyati, shuningdek dev, ajdarho, yalmog‘iz kampir, pari kabi obrazlarning funksional vazifalari deyarli barcha tekshirilgan xalqlar folklorida takrorlanadi.

Shu bilan birga, obrazlarning tashqi tasviri va ramziy-badiiy mazmuni har bir xalqning o‘zi yashab turgan tabiiy-geografik muhiti bilan chambarchas bog‘liq holda lokallashadi. Xorazm ertak an’anasi bu ji-

hatdan yorqin misol bo‘lib, unda sug‘orish dehqonchiligi va “voha-cho‘l” landshafti ertak obrazlarining (xususan, suv iloni, suv parisi kabi mifologemalar) evolutsiyasiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatgan.

Amaliy nuqtayi nazardan, ushbu tipdagi qiyosiy-tipologik tahlil natijalari nafaqat nazariy folkloreshunoslik uchun, balki xalq ertaklarini zamonaviy ilmiy metama’lumotlar asosida tizimlashtirishga qaratilgan raqamli tadqiqot loyihalari (masalan, o‘zbek xalq ertaklarining ATU xalqaro indeksiga muvofiq milliy reyestrini yaratish) uchun metodologik baza bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Uther H.-J. The Types of International Folktales: A Classification and Bibliography, Based on the System of Antti Aarne and Stith Thompson. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 2004, 618 p.

(2). Zipes J. The Irresistible Fairy Tale: The Cultural and Social History of a Genre. Princeton: Princeton University Press, 2012, 256 p.

(3). Propp V.Y. Morphology of the Folktale. Austin, University of Texas Press, 1968, 158 p.

(4). Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent, “Fan”, 1964, 244-bet.

(5). Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari. O‘zbek folklorining epik janrlari. Toshkent, “Fan”, 1981, 62–69-betlar.

(6). Sarimsoqov B. O‘zbek folklorining janrlar sostavi. O‘zbek folklori ocherklari. 3 tomda. Toshkent, “Fan”, 1988, 1-t, 63–84-betlar.

(7). Jo‘rayev M. O‘zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari. “O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 1996, 5-son, 32–38-betlar.

(8). Bozorov X.X. O‘zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlili. “FarDU ilmiy axborotnomasi”, Farg‘ona, 2026, 4-son.

(9). Achilova N.N. (2021). Ajdarho obrazining genezisi va evolyusiyasi talqinlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), p. 360–368.

(10). Kabilova G.B. Mifologik qush obrazining turkiy xalqlar folklorida o‘rganilishi. “Ilm ham jamiyat”, Nukus, 2025, 3-son, 98–100-betlar.

(11). Abdullayev F. Xorazm ertaklari. Toshkent, “Fan”, 1961, 210-bet.

(12). Dundes A. The Meaning of Folklore: The Analytical Essays of Alan Dundes. Logan, Utah State University Press, 1997, 360 p.

(13). Rustamov I. Ertaklarning janr xususiyatlari (o‘zbek va ingliz tillari misolida). I.Rustamov, Sh.Rustamova. /Toshkent davlat Transport universiteti ilmiy elektron jurnali. Toshkent, 2021, 4-son, 12–19-betlar.

(14). O‘zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. 2-tom. Toshkent, “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1964.

Normurodova Nargiza Alijon qizi (Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi; E-mail: nargizanormurodova1982@gmail.com;ORCID:0009-0005-8399-3101)

ISAJON SULTONNING “BILGA XOQON” ROMANI SUJETI GENEZISI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yozuvchi Isajon Sulton qalamiga mansub bo‘lgan “Bilga xoqon” romani sujeti genezisi, Bilga xoqon bitigi yuzasidan tadqiqot olib boriladi.“Bilga xoqon” romani sujeti uchun asos bo‘lib xizmat qilgan qadimgi bitiktoshlar va roman matni qiyosiy tahlil etiladi. Shuningdek, ularning bugungi o‘zbek adabiyoti uchun tarixiy, adabiy manba ekanligi misollar orqali ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Isajon Sulton, Bilga xoqon shaxsi, roman sujeti, Bilga xoqon obrazi, sujet genezisi, bitiktoshlar, qiyosiy tahlil, badiiy manba, tarixiy haqiqat, tarixiy obraz.*

СЮЖЕТ-ГЕНЕЗ РОМАНА ИСАДЖОНА СУЛТАНА «БИЛГА ХАКАН»

Аннотация. *В данной статье исследуется происхождение сюжета романа «Бильга-хаган» писателя Исаджона Султана, а также надписи Бильга-хагана. Проводится сравнительный анализ древних надписей, послуживших основой для сюжета романа «Бильга-хаган», и текста самого романа. На примерах также показано, что они являются историко-литературным источником для современной узбекской литературы.*

Ключевые слова. *Исаджон Султан, личность Бильга-хагана, сюжет романа, образ Бильга-хагана, происхождение сюжета, надписи, сравнительный анализ, художественный источник, историческая правда, исторический образ.*

THE GENESIS OF THE PLOT IN ISAJON SULTON’S NOVEL “BILGA KHAGAN”

Annotation. *This article studies the genesis of the plot of the novel "Bilga Khagan" by the writer Isajon Sultan, the inscription of Bilga Khagan. The ancient inscriptions that served as the basis for the plot of the novel "Bilga Khagan" and the text of the novel are analyzed comparatively. It is also shown through examples that they are a historical and literary source for today’s Uzbek literature.*

Keywords: *Isajon Sultan, the personality of Bilga Khagan, the plot of the novel, the image of Bilga Khagan, the genesis of the plot, inscriptions, comparative analysis, artistic source, historical truth, historical image.*

Kirish. O‘zbek adabiyotida tariximizning turli davrlarini aks ettirgan asarlar ko‘p, ammo qadimgi davrlar haqida esa sanoqlidir. Yozuvchi Isajon Sulton boshqa ijodkorlarga o‘xshamagan holda, tariximizning eng qadimgi davrlariga murojaat etib, bir qancha asarlar yozdi. Bular “Bilga xoqon” hamda “Botir Tangriqut” romanlaridir. “Bilga xoqon” romani bevosita Bilga xoqon bitigi asosida yaratilgan asardir. Roman sujeti uchun Bilga xoqon bitigi poydevor bo‘lgan. Isajon Sulton mahorati bois tariximizning eng qadimgi davrlari, undagi ijtimoiy hayot, ma’naviy olam bilan tanishishga musharraf bo‘lamiz. Miloddan avvalgi VI–VII asrlarda yashagan ajdodlarimizning vatan, el-yurt oldidagi mas’uliyatini, avlodlar uchun qoldirib ketgan ana shu jonsiz toshlarda yozilgan so‘zlar orqali anglagandek bo‘lamiz, qadimiy tariximizni his etamiz, albatta.

Biznes, marketing va elektron tijorat alohida guruhni tashkil etadi. Iqtisodiy faoliyatning raqamlashtirilishi xalqaro biznes modellari, platformalar va marketing texnologiyalarining tarqalishi bilan kechadi; ularga oid inglizcha nomlar o‘zbek tilidagi muloqotga ham kirib keladi. Ular konseptual jihatdan «tovar», «xizmat», «ilgari surish», «mijoz», «brend», «bozor», «reklama» va «boshqaruv» sohalariga tegishli. Brand, marketing, target kasbiy nomlashda, reklama kontekstida esa qo‘shimcha baholovchi yoki ta’sir ko‘rsatuvchi vazifada qo‘llanishi mumkin.

Konseptual kategoriyalar va freymli talqin. Ushbu jarayonni tushuntirish uchun konseptual kategoriya tushunchasiga murojaat qilish zarur. Kognitiv tilshunoslikda kategoriya obyekt va hodisalarni muayyan belgilar asosida birlashtirib, bilimni tashkil etish usuli sifatida qaraladi. Raqamli diskursda inglizcha birliklar alohida holda emas, balki raqamli voqelikning mavjud va shakllanayotgan kategoriyalari doirasida o‘zlashtiriladi [3;4].

Masalan, «ijtimoiy tarmoqlar» mavzuiy sohasi «muloqot ishtirokchisi», «raqamli harakat», «raqamli obyekt», «ijtimoiy aloqa» va «axborot kontenti» kategoriyalari atrofida tashkil etilishi mumkin. Follower muloqot ishtirokchisini, like raqamli harakatni, post axborot kontentini, hashtag esa raqamli muloqotni tartibga solish vositasini ifodalaydi [2;3].

Ch.Fillmorning freym semantikasi muayyan vaziyat elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni hisobga olishga imkon beradi [2]. Raqamli diskursda bitta leksema foydalanuvchi, platforma, harakat, obyekt va natijani o‘z ichiga oluvchi yaxlit ssenariyni faollashtirishi mumkin. Demak, konseptual moslashuv o‘zlashmaning foydalanuvchilarga tanish raqamli o‘zaro ta’sir ssenariysiga kiritilishida ham namoyon bo‘ladi.

«Obyekt» kategoriyasiga raqamli mahsulot, platforma va xizmatlar; «harakat»ga foydalanuvchi amallari; «jarayon»ga ketma-ket raqamli harakatlar; «ishtirokchi»ga foydalanuvchi rollari; «vosita»ga ra-

qamli operatsiyalar vositalari kiradi. «Makon» virtual muhit va aloqa kanallarini; «natija» harakat mahsuli yoki oqibatini; «holat» obyekt yoki muloqot holatini; «baho» raqamli hodisaga munosabatni; «ijtimoiy identiklik» esa professional, ijtimoiy yoki raqamli guruhga mansublikni qamrab oladi [3].

2-jadval

Konseptual kategoriyalar

Konseptual kategoriya	Kognitiv mazmun	Raqamli diskursdagi odatiy vazifa
Obyekt	Raqamli mahsulot, servis, platforma	Nomlash
Harakat	Foydalanuvchi amali	Harakatni ifodalash
Jarayon	Raqamli harakatlar ketma-ketligi	Jarayonni tavsiflash
Ishtirokchi	Foydalanuvchi, mutaxassis, mijoz, muallif	Identifikatsiya
Vosita	Raqamli faoliyat vositasi	Vositaning nomlanishi
Makon	Virtual muhit, raqamli platforma	Makoniy konseptuallashtirish
Natija	Harakat mahsuli yoki samarasi	Natijani tavsiflash
Holat	Obyekt yoki foydalanuvchining holati	Holatni tavsiflash
Baho	Obyekt yoki harakatga munosabat	Ekspressiv/baholovchi
Ijtimoiy identiklik	Guruh yoki hamjamiyatga mansublik	Identifikatsion

Taklif etilayotgan tasnif inglizcha o‘zlashmalarning muayyan korpusini o‘zaro bog‘liq parametrlar bo‘yicha taqsimlashga mo‘ljallangan ochiq tahliliy vositadir. Mavzuiy mansublik bilan konseptual mansublikni farqlash zarur: bitta mavzuiy soha bir nechta konseptni qamrab olishi, bitta konsept esa turli sohalarda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, «kommunikatsiya» konsepti ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, ta’lim va kasbiy muhitda uchraydi. Binobarin, konseptual tuzilma mavzuiy tuzilmaga nisbatan moslashuvchanroqdir [3;4].

Xulosa va takliflar. Tahlil natijalari hozirgi o‘zbek raqamli diskursida inglizcha o‘zlashmalarning strukturaviy-grammatik va so‘z yasalish moslashuvi grafik-fonetik o‘zlashtirish, morfologik va grammatik integratsiya, sintaktik moslashuv, so‘z yasalish mahsuldorligi va diskursiv barqarorlashuvni qamrab oluvchi ko‘p darajali jarayon ekanligini ko‘rsatadi [1;4;6;7].

Morfologik moslashuv inglizcha asosning o‘zbekcha grammatik ko‘rsatkichlarni qabul qilishi va qabul qiluvchi til tizimiga muvofiq qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. So‘z yasalish moslashuvi esa o‘zlashgan birlikning yangi leksik birliklar yaratishda ishtirok etadigan yasovchi asosga aylanishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun grammatik ko‘rsatkichning qo‘shilishi morfologik integratsiya, derivatsion model orqali yangi nomning hosil bo‘lishi esa so‘z yasalish moslashuvidan dalolat beradi [6;7].

Ikkinchi bobda aniqlangan umumiy bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi: *inglizcha birlik → o‘zlashish → lisoniy integratsiya → strukturaviy-grammatik moslashuv → so‘z yasalish mahsuldorligi ↔ semantik va konseptual moslashuv → pragmatik ixtisoslashuv → raqamli diskursda qo‘llanish → diskursiv mustahkamlanish.*

Taklif etilgan mavzuiy-konseptual tasnif axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli muloqot, media kontent yaratish, marketing va kasbiy faoliyat leksikasini qamrab oladi. Uni tahliliy sxema sifatida talqin qilish lozim: keltirilgan birliklar ro‘yxati mavzuiy guruhlarning chastotasini aniqlash yoki ulardan biri o‘zbek raqamli diskursida ustunligini isbotlash imkonini bermaydi.

Strukturaviy-grammatik integratsiya kuzatiladigan belgilar: birlikning yozilishi, o‘zbekcha so‘zlar bilan birikishi, o‘zbek grammatik ko‘rsatkichlarini qabul qilishi va gapdagi sintaktik vazifasi bo‘yicha aniqlanishi kerak. Bunday belgining mavjudligi o‘zlashgan asos muayyan kontekstda qanday qo‘llanganini ko‘rsatadi, ammo shaklning muntazamligi, so‘z yasash mahsuldorligi yoki ingliz tilidan bevosita kirib kelganini avtomatik ravishda isbotlamaydi [1;6;7].

Asosiy metodologik xulosa til shakli, semantik o‘zgarish va konseptual talqin belgilarini alohida tekshirish zarurligidir. Raqamli nashrda inglizcha elementning uchrashi o‘zbek tilida uning uzil-kesil mustahkamlanganini o‘z-o‘zidan anglatmaydi. Chastota, platformalar bo‘yicha taqsimot va qo‘llanish dinamikasi maxsus korpus tadqiqotini talab qiladi; shuning uchun bu maqolada bunday ko‘rsatkichlar berilmagan [1; 4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Haspelmath M. Lexical Borrowing: Concepts and Issues // Loanwords in the World's Languages: A Comparative Handbook / ed. by M. Haspelmath, U. Tadmor. Berlin, New York, De Gruyter Mouton, 2009. p. 35–54.

(2). Fillmore C.J. Frame Semantics. Linguistics in the Morning Calm. Seoul: Hanshin Publishing Company, 1982, p. 111–137.

(3). Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. Chicago, University of Chicago Press, 1987.

(4). Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. Oxford, Oxford University Press, 2010.

(5). Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. New York, Basic Books, 2002.

(6). Bauer L. English Word-Formation. Cambridge, Cambridge University Press, 1983.

(7). Plag I. Word-Formation in English. Cambridge, Cambridge University Press, 2003.

Nurmanov Furqat Ismoilovich (O‘zJOKU dotsenti, f.f.n.; nurmanovfurqat@gmail.com)

O‘ZBEK ILMIY TILSHUNOSLIGIGA YEVROPA FONETIK TALQINLARINING KIRIB KELISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yevropa fonetika va fonologiya maktablarida shakllangan nazariy-metodologik qarashlarning o‘zbek ilmiy tilshunosligiga kirib kelishi hamda milliy fonetik ta’limot taraqqiyotiga ta’siri tarixiy-qiyosiy va nazariy-tahliliy yondashuvlar asosida tadqiq etiladi. O‘zbek adabiy tili fonetikasiga oid ilmiy manbalarda nutq tovushlarining artikulyatsion va akustik xususiyatlarini tavsiflash, fonetika va fonologiyaning tadqiqot obyektlarini farqlash, fonemalarning farqlovchi belgilari hamda fonologik oppozitsiyalarni izohlash tamoyillari Yevropa tilshunosligi vakillarining ilmiy konsepsiyalari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, XX–XXI asrlarda yaratilgan o‘zbek fonetikasiga oid tadqiqotlarda qo‘llanilgan nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlarning izchilligi, o‘ziga xos jihatlari hamda xalqaro fonetik-fonologik an’analar bilan munosabati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tilshunosligi, Yevropa fonetika maktablari, fonetika, fonologiya, artikulyatsion fonetika, akustik fonetika, fonema, fonologik oppozitsiya, metodologiya, o‘zbek adabiy tili.*

ПРОНИКНОВЕНИЕ ЕВРОПЕЙСКИХ ФОНЕТИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ В УЗБЕКСКОЕ НАУЧНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Аннотация. *В статье исследуется процесс проникновения теоретико-методологических концепций, сформировавшихся в европейских фонетических и фонологических школах, в узбекское научное языкознание, а также их влияние на развитие национального фонетического учения. На основе историко-сравнительного и теоретико-аналитического подходов сопоставляются принципы описания артикуляционных и акустических характеристик речевых звуков, разграничения предметных областей фонетики и фонологии, интерпретации дифференциальных признаков фонем и фонологических оппозиций, представленные в научной литературе по фонетике узбекского литературного языка, с теоретическими концепциями представителей европейского языкознания. Кроме того, анализируются преемственность и специфика теоретических положений и методологических подходов, применяемых в исследованиях узбекской фонетики XX–XXI веков, а также их соотношение с международными фонетико-фонологическими традициями.*

Ключевые слова: *узбекское языкознание, европейские фонетические школы, фонетика, фонология, артикуляционная фонетика, акустическая фонетика, фонема, фонологическая оппозиция, методология, узбекский литературный язык.*

THE INTRODUCTION OF EUROPEAN PHONETIC THEORIES INTO UZBEK LINGUISTICS

Annotation. *This article examines the introduction of theoretical and methodological concepts developed within European phonetic and phonological schools into Uzbek linguistics and their influence on the development of the national phonetic tradition. Drawing on historical-comparative and theoretical-analytical approaches, the study compares the principles used to describe the articulatory and acoustic properties of speech sounds, distinguish the respective domains of phonetics and phonology, and interpret the distinctive features of phonemes and phonological oppositions in scholarly literature on the phonetics of standard Uzbek with the theoretical frameworks advanced by European linguists. Furthermore, the article analyses the continuity and distinctive characteristics of the theoretical principles and methodological approaches employed in studies of Uzbek phonetics in the twentieth and twenty-first centuries, as well as their relationship to international phonetic and phonological traditions.*

Keywords: *Uzbek linguistics, European phonetic schools, phonetics, phonology, articulatory phonetics, acoustic phonetics, phoneme, phonological opposition, methodology, standard Uzbek.*

Kirish. Tilshunoslikda fonetika bo‘limi dastlabki va markaziy bo‘limlardan biri sanaladi. Bu bo‘lim tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lish mexanizmi, fizik xususiyatlari va eshitilish jarayonini o‘rganuvchi sohasidir. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Yevropa tilshunosligida tovushlarni tizimli tavsiflash, talaffuzni maxsus belgilar bilan qayd etish va nutq tovushlarini eksperimental tekshirishga qaratilgan tadqiqotlar rivojlandi. 1886-yilda Parijda Xalqaro fonetik uyushmaning tashkil etilishi hamda xalqaro fonetik alifboning shakllanishi mazkur jarayonning muhim bosqichlaridan hisoblanadi.

XIX asrda Yevropa tilshunosligida qiyosiy-tarixiy tadqiqotlarning rivojlanishi, nutq organlarini o‘rganishga qaratilgan fiziologik izlanishlar, tovushlarni yozib olish va o‘lchash vositalarining takomillashuvi fonetik bilimlarning nazariy hamda metodologik jihatdan yangilanishiga zamin yaratdi.

XVIII–XIX asrlarda Yevropa davlatlari turkiy xalqlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy munosabatlarni tiklash asnosida, Yevropa olimlari, jumladan, rus turkologlari turkiy tillarni o‘rganishni boshlaganlar. Turkiy tillarning fonetik, grammatik, leksik, etnolingvistik, diaxronik, sinxronik xususiyatlariga, geografik o‘rinlariga va taraqqiyot davrlariga ko‘ra turlicha klassifikatsiya qilganlar.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G‘arbiy Yevropa o‘zbek tili va madaniyati bilan XVII–XVIII asrlardan boshlab yaqindan tanisha boshladi va tilimiz G‘arbiy Yevropada chig‘atoy tili nomi bilan mashhur bo‘ldi. Yevropada bu nomning keng ommalashishida Herman Vamberining XIX asr o‘rtalarida mintaqada keng yoyilgan “Chig‘atoy tili darsligi”ning xizmati katta. Yevropada o‘zbek tili, bundan tashqari, (qoraxoniy), (sharqiy turk), (sharqiy turkcha), (sharqiy Turkiston tili), (islomiy-sharqiy turkiy), (chigiliy), (turkiy turoniy), (Navoiy turkiysi) va boshqa nomlar bilan ma’lum. Bu atamadan har birining o‘ziga xos ilmiy-tarixiy asosi bor.[2]

XIX asrning oxiriga kelib rus bosqinchilarining mahalliy xalq madaniyati, urf-odat va tilini o‘rganish ehtiyoji natijasida bir qancha amaliy ahamiyatga ega grammatikalar vujudga keldi. M.A.Terentevning “Turk, fors, qirg‘iz va o‘zbek tili grammatikasi” (1875)ni, A.Starlevskiyning “Rus kishisining O‘rta Osiyodagi yo‘ldoshi” (1878) asarini, Z.A.Alekseyev va V.Vishnegorskiyning “Sort tili samouchiteli” (1884), M.Andreyevning “Sort tilini birinchi bor o‘rganuvchilar uchun qo‘llanma”sini (1896), F.Mashkovsevning “Sort tili darslari”ni (1899), V.P.Nalivkinning “Sort tilini amaliy o‘rganish uchun qo‘llanma”sini (1898), N.Budzinskiyning “Sort tili darsligi”ni (1910) bunga misol sifatida ko‘rsatish mumkin.[3] Ko‘rinib turibdiki, rus harbiy tadqiqotchilari o‘zbek tilini o‘rganish uchun ilk qo‘llanmalarda o‘zbek tili o‘rnida sort tili atamasini qo‘llashgan.

Ijtimoiy hayotda siyosiy voqelikning o‘zgarishi natijasida milliy tilshunosligimiz ham yo‘nalishini o‘zgartirdi. Buning asosida rus istilochilarining mahalliy xalqlar tili, urf-odati, madaniyatini o‘rganish hamda o‘zlarining madaniyatini mahalliy xalq hayotiga singdirish talabi yotardi. Shuning uchun ham o‘sha davrda yaratilgan darslik, qo‘llanma, umuman, lingvistik tadqiqotlar, asosan, rus tilshunosligi an’analari va tamoyillari asosida amalga oshirildi. Tilshunos olim, professor B.Mengliyev ta’biri bilan aytganda, bu davr tadqiqotlari g‘ayriilmiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan “buyurtma”ni amalga oshirishga xizmat qildi.

Turkiy (o‘zbek) adabiy tilining asoschisi A.Navoiy bu tilning fonetik tizimi, lug‘at tarkibi, grammatiik qurilishi yuzasidan mukammal ilmiy meros yozib qoldirgan bo‘lsa-da, milliy til sathlarini o‘rganishda hozirgi davrga qadar ayrim qonuniyatlar asosini Yevpropa tilshunosligiga bog‘lashadi.

O‘tgan yuz yillik boshlarida H.H.Niyoziy (“Yengil adabiyot”, “Qiroat kitobi”, “O‘qish kitobi”), Abdulla Avloniy (“Turkiy guliston yoxud axloq”, “Adabiyot va milliy she’rlar”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Gulistoni maktab”) tomonidan nashrga tayyorlangan darsliklar birinchi marta tovush usuli asosida tuzilib, o‘zbek adabiy tilidan boshlang‘ich ma’lumot berishga mo‘ljallangan.

---

[1] Самойлович А.Н. Некоторые дополнения к классификации турецких языков, Петербург, 1922; Малов С.Е. Древние и новые тюркские языки. Известия АН СССР, ОЛЯ, т. XI, вып. 2. М., 1952, с.135–144; Баскаков Н.А. К вопросу о классификации тюркских языков, ИАН. ОЛЯ, т. XI, вып. 2. М., 1952; Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов XI–XIII в.в. из Восточного Туркестана. М.–Л., 1961, стр. 10–26; Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси, Тошкент, 1973, 10–17-бетлар.

[2] Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2009, 12-бет.

[3] Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Қарши, 2004, 16-бет.

Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunning “O‘zbek tili saboqligi” va Abdurauf Fitratning “O‘zbek tili qoidasi” to‘g‘risida bir tajriba: “Sarf” darsligi o‘zbek tili fonetikasining yaxlit, izchil tahlil va talqiniga tamal toshi qo‘yilishiga sabab bo‘ldi. Qayum Ramazon “O‘zbek tilining birlashgan imlo qoidalari” risolasida unlilarning fonologik tavsifiga nazariy jihatdan yondashish asosida unlilarning tor va kenglik xususiyatlari so‘z ma’nosiga ta’sir etishiga misollar keltirib, “fonema” terminini qo‘llaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yevropa tilshunosligida fonetikaning ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanishi bir necha o‘zaro bog‘liq omillar ta’sirida yuz berdi. Ulardan biri qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning taraqqiyoti bo‘lsa, ikkinchisi nutq tovushlarini fiziologik va fizik jihatdan tekshirish imkoniyatlarining kengayishi edi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik turdosh tillardagi tovush mosliklarini aniqlash, tovush o‘zgarishlarining muntazamligini belgilash va til tarixini tiklashga xizmat qildi. Eksperimental-fiziologik tadqiqotlar esa tovushning qanday hosil bo‘lishi, nutq organlarining qanday harakatlanishi va havo oqimining qanday o‘zgarishini o‘rganishga imkon berdi.

Yevropa tilshunosligida fonetik tadqiqotlarning rivojlanishi tovushning fizik va fiziologik xususiyatlari bilan bir qatorda uning til tizimidagi vazifasini ham alohida o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada fonetika va fonologiya o‘rtasidagi nazariy farqlanish mustahkamlandi.

Fonema nazariyasining shakllanishida Boduen de Kurtene va Nikolay Krushevskiy singari olimlarning ishlari muhim o‘rin tutadi. Keyinchalik, Praga lingvistik maktabi vakillari, jumladan, Nikolay Trubetskoy va Roman Yakobson fonologik oppozitsiyalar, farqlovchi belgilar va fonemalarning tizimdagi munosabatlarini chuqur ishlab chiqdilar. Bu nazariyalarga ko‘ra, nutq tovushi konkret talaffuz hodisasi sifatida, fonema esa til tizimida ma’noni farqlashga xizmat qiladigan birlik sifatida o‘rganiladi. Demak, fonetika tovushning artikulyatsion, akustik va perseptiv tomonlarini tekshirsa, fonologiya tovush birliklarining til tizimidagi funksional munosabatlarini tahlil qiladi.

Tahlil va natijalar. XX asr boshlarida yuz bergan ijtimoiy siyosiy voqelik darsliklarda yozilganidek, teng huquqlilik, hurlik emas, o‘zbek xalqi uchun boshqa turkiy xalqlar kabi o‘z tarixi, madaniyati, milliyligidan mahrum bo‘lishiga, istilochilarning o‘z siyosatini keng targ‘ib etishga imkon yaratdi. Qisqa davrda o‘zbek imlosi ikki marta o‘zgartirildi. Bu esa turkiy xalqlarni bir-biridan va o‘tmishdan, an’anaga ega bo‘lgan merosidan mahrum bo‘lishiga olib keldi.

O‘zbek tilshunosligida fonetik qarashlarning shakllanishini faqat Yevropa ilmiy maktablarining ta’limotlari ta’siri bilan izohlash maslalaga biryoqlama yondashuv bo‘ladi. O‘zbek tili va uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq nutq tovushlar tasnifi, fonetik hodisalar, nutq tovushlarining fonematik xususiaytlari buyuk Sharq allomalarining asarlaridagi ilmiy xulosalar bilan ham aloqador.

Sharq tilshunosligida tovushlarning talaffuz o‘rni, nutq organlarining ishtiroki, tovushlarni farqlash va to‘g‘ri talaffuz qilish masalalari turli ilmiy-amaliy yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Arab tilshunosligidagi *maxraj* tushunchasi tovushning hosil bo‘lish o‘rnini, *sifat* tushunchasi esa uning muayyan fonetik xususiyatlarini tavsiflashda qo‘llangan. Bu tushunchalar zamonaviy artikulyatsion fonetika bilan aynan muvofiq bo‘lmasa-da, biroq ular nutq tovushlarini tizimli kuzatish va tasniflash an’anasi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili yozuv tizimi rus grafikasiga o‘tgunga qadar boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tili imlo qurilishiga moslanib o‘zlashtirilgan. Rus alifbosiga o‘tilgach, rus tili va bu til orqali o‘zbek tilga o‘zlashgan so‘zlar o‘z tilda qanday yozilsa, shundayligicha o‘zlashtirish qonunlashtirildi. Bu esa bir tilda ikki imloli yozuv paydo bo‘lishiga olib keldi. Natijada savod chiqarish yanada murakkablashdi.

Avval, o‘zbek tiliga fors, arab tillaridan so‘z o‘zlashib, talaffuz va imloda qiyinchiliklar keltirib chiqargan bo‘lsa, keyinroq, bu holat rus tili va rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarda yuzaga keldi.

O‘zbek tilshunosligida fonetika, dastlab, V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonov hamkorligida yaratilgan darslikda,[1] so‘ngra A.N.Kononovning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga bag‘ishlangan ishida[2] berilgan. Ushbu tadqiqotlarda o‘zbek tilining tovush tizimini tavsiflashda unli va undoshlarni tasniflash, fonemalar tizimini aniqlash, bo‘g‘in va urg‘u xususiyatlarini o‘rganish, tovushlarning kombinator va pozitsion o‘zgarishlarini izohlash kabi masalalar izchil ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi. Natijada milliy tilga oid nazariy tushunchlar o‘zbek ilmiy adabiyotida rus tilshunosligining terminologik va metodologik vositalari orqali ifodalandi. Bu holat o‘zbek tili adabiy talaffuzi, imlo qoidalari va grammatik qurilishining o‘zga til nazariyasi ta’siriga tushib qolishiga olib keldi.

---

[1] Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш., Фонетика. Тошкент, “Фан”, 1953.

[2] Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.–Л., “Наука”, 1960, с. 13–56.

O‘zbek tili fonetikasini yaratgan mualliflar rus millatiga mansubligi sabab, rus tilidagi ayrim fonetik qonuniyatlar o‘zbek tiliga ham tatbiq etib yuborilgan. Bu fonetikani tavsif etgan o‘zbek tilshunoslariga ham ko‘chgan. Bu, ayniqsa, so‘z urg‘usini dinamik, deb qayd etilishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Vaholanki, o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usi kvantitativdir. O‘zbek tili fonetikasi tavsifi berilgan adabiyotlar ham yuqoridagilardan farq qilmaydi.[1] Bu ilmiy adabiyotlardagi nutq tovushlari talaffuz o‘rni, hosil bo‘lish usuli, ovoz va shovqinning ishtiroki, yumshoq tanglayning holati hamda boshqa artikulatsion belgilar asosida tavsiflanishi, tovushlar akustikasi, fonemalarning oppozitsiya va farqlovchi belgilari, urg‘u, bo‘g‘in va prosodik hodisalar tavsifi Ovropa fonetika maktablarida shakllangan artikulatsion tavsif tamoyillari bilan metodologik jihatdan mushtarakdir.

Yevropa fonetik va fonologik talqinlarining o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishi milliy tilning tovush tizimini zamonaviy nazariy-metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatdii. Natijada fonema nazariyasi, fonologik oppozitsiya, artikulatsion fonetika va eksperimental fonetika o‘zbek tilshunosligining muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari sifatida rivojlandi. A.Nurmonovning “O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi” (1990), A.Abduazizovning shu nomdagi asari (1992), H.Jamolxonovning “O‘zbek tilining nazariy fonetikasi” (2009) hamda M.Mirtojiyevning “O‘zbek tili fonetikasi” (2013) kabi tadqiqotlarda o‘zbek tilining fonetik-fonologik tizimini nazariy jihatdan asoslash va milliy til materiallari asosida tahlil qilishga asoslangan.

O‘zbek tilini boshqa turkiy tillardan ajratib tashlash va buning uchun turkiy tillarning umumiy jihatlari ko‘rsatilmasdan farqli jihatlariga urg‘u berilgan o‘sha davrda Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V. Reshetov kabi sharqshunos rus olimlari ilmiy fikrlari ta’sirida A.G‘ulomov, Sh.Shoabdurahmonov, F. Kamolov, A.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Abduazizov, S.Otamirzayeva, Sh.Rahmatullayev singari olimlar ilmiy qarashlarida o‘zbek tilida singormonizmning amal qilmasligi uqdiriladi. O‘zbek tilshunoslari: Q.Sodiqov, N.Rahmonov, E.Umarov, R.Sayfullayeva, M.Mirtojiyev, B.Mengliyevlar o‘zbek tilida bu jarayon hamon qonuniyat sifatida bo‘lmasa-da, tarixiy davomiylik sifatida yashab kelayotganligini ta’kidlashadi.

Professor M.Mirtojiyevning 2013-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili fonetika” kitobida olim o‘zbek tili fonetik tizini eksperemental tahlil asosida tadqiq etib, hozirgi kunga qadar o‘zbek tilshunosligida yaratilgan milliy til qurilish tizimi tarkibi tahliliga oid ilmiy tadqiqotlardagi ayrim nazariy xulosalarga o‘z munosabatini bayon qilgan: “O‘zbek tilidagi so‘z urg‘usini o‘zbek yoki turkiy tillar tilshunoslari o‘rganar ekan, rus tilidagi bor qarashlarini unga tatbiq etib yuboraverishgan. Rus tilidagi so‘z urg‘usi bug‘undagi unlining akustik intensivligiga bog‘li ekanligi uchun, u dinamik urg‘u deb qaralgan. O‘zbek tili fonetikasi bilan, dastlab, ruslar shug‘ullanishgan. Shuning uchun ular shunga qiyosan o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usini ham dinamik urg‘u deb yuborgan”.[2] Undan keyin so‘z urg‘usi haqida fikr yuritgan o‘zbek tilshunoslari ham ularga ergashishgan.

Xulosa va takliflar. Har bir til o‘z tarixiy taraqqiyotiga, o‘ziga xos ichki lingvistik qonuniyatlariga ega. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’siri asosida til ichki va tashqi qonuniyatlarining o‘zgarishi fan oldiga yangi-yangi muammolarni qo‘yadi. Bu tabiiy hodisa bo‘lib, har bir fanning jamiyat taraqqiyotida muhim rolini belgilaydi. Bu vazifani bajarishda milliylikning ifodasi bo‘lgan ona tili fani lingvistik qoidalarni o‘rgatishga emas, o‘quvchida milliy tafakkur va dunyoqarashni, mustaqil mantiqiy, ijodiy tafakkurni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

O‘zbek ilmiy tilshunosligiga Yevropa fonetik talqinlarining kirib kelishi tilshunoslik tarixidagi muhim metodologik jarayon sanaladi. Bu talqinlarning o‘zbek ilmiy tilshunosligiga kirib kelishi milliy tilshunoslikning tayyor nazariyalarni qabul qilishidan ko‘ra, tovush hodisalarini o‘rganishning ilmiy mezonlari, tadqiqot metodlari va nazariy tushunchalarining bosqichma-bosqich takomillashuvi sifatida baholanishi kerak. Ushbu tarixiy tajribani xolis va manbalar asosida o‘rganish o‘zbek fonetikasining ilmiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashtirish, zamonaviy tadqiqotlar metodologiyasini mustahkamlash va milliy tilning tovush tizimini xalqaro miqyosda asosli tavsiflashga xizmat qiladi.

---

[1] Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. 3-нашр. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1970, 55–78-бетлар; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология. 2-нашр, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1975, 78–96-бетлар; Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980; Жамолхонов Ҳ. Узбек тилининг назарий фонетикаси. Тошкент, “Фан”, 2009.

[2] Боровков А.К., Ғуломов А.Ғ., Маъруфов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. I қисм. Фонетика ва морфология. Тошкент, Ўздавнашр, 1940, 23-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Самойлович А.Н. Некоторые дополнения к классификации турецких языков. Петербург, 1922; Малов С.Е. Древние и новые тюркские языки. Известия АН СССР, ОЛЯ, т. XI, вып. 2. М., 1952; Баскаков Н.А. К вопросу о классификации тюркских языков. ИАН. ОЛЯ, т. XI, вып. (2). М., 1952; Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов XI–XIII в.в. из Восточного Туркестана. М.–Л., 1961, с. 10–26; Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Тошкент, 1973.

(3). Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма, Тошкент, 2009.

(4). Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Қарши, 2004.

(5). Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш., Фонетика. Тошкент, “Фан”, 1953.

(6). Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.–Л, “Наука”, 1960.

(7). Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. 3-нашр. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1970, 55–78-бетлар; Турсунов У, Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология. 2-нашр. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1975, 78–96-бетлар; Ҳозирги узбек адабий тили. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980; Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. Тошкент, “Фан”, 2009.

(8). Боровков А.К., Ғуломов А.Ғ., Маъруфов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. I қисм, Фонетика ва морфология. Тошкент, Ўздавнашр, 1940.

Zulfiqorova Zuxra Allaberdiyevna (Qarshi davlat Texnika universiteti katta o‘qituvchisi; zuhrazulfikorova5@gmail.com)

INGLIZCHA VA O‘ZBEKCHA BADIIY MATNLARDA PRAGMATIK EKVIVALENTLIKNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada Ernest Hemingway asarlarining inglizcha original va o‘zbekcha tarjima matnlarida pragmatik ekvivalentlikning lingvistik xususiyatlari qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tadqiq etiladi. Pragmatik ekvivalentlikning shakllanishida leksik, sintaktik, kontekstual va diskursiv vositalarning o‘rni aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *pragmatik ekvivalentlik, badiiy tarjima, qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil, kommunikativ niyat, nutqiy akt, implikatura, dialogik nutq, pragmatik transformatsiya.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация. *В статье в сопоставительно-сравнительном аспекте исследуются лингвистические особенности прагматической эквивалентности в английских оригиналах и узбекских переводах произведений Эрнеста Хемингуэя. Определяется роль лексических, синтаксических, контекстуальных и дискурсивных средств в формировании прагматической эквивалентности.*

Ключевые слова: *прагматическая эквивалентность, художественный перевод, сопоставительный анализ, коммуникативное намерение, речевой акт, импликатура, диалогическая речь, прагматическая трансформация.*

LINGUISTIC FEATURES OF PRAGMATIC EQUIVALENCE IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY TEXTS

Annotation. *This article examines the linguistic features of pragmatic equivalence in the English originals and Uzbek translations of Ernest Hemingway’s works from a comparative perspective. It identifies the role of lexical, syntactic, contextual, and discourse-level devices in establishing pragmatic equivalence.*

Keywords: *pragmatic equivalence, literary translation, comparative analysis, communicative intention, speech act, implicature, dialogic speech, pragmatic transformation.*

Kirish. Badiiy tarjima jarayonida original matnning mazmunini boshqa tilda qayta yaratish masalasi faqat leksik va grammatik muvofiqlik bilan chegaralanmaydi. Badiiy matnning to‘laqonli mazmuni uning kommunikativ vazifasi, so‘zlovchi niyati, adresatga yo‘naltirilgan ta’siri, nutqiy vaziyat, kontekst, emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi hamda milliy-madaniy xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlikning pragmatik jihatini o‘rganish muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Pragmatik ekvivalentlikni faqat original va tarjima birliklarining “bir xil ma’noga ega bo‘lishi” sifatida talqin qilish yetarli emas. Chunki bitta lisoniy birlik o‘zining lug‘aviy ma’nosidan tashqari konkret nutqiy vaziyatda muayyan kommunikativ vazifani bajarishi mumkin. Tarjima jarayonida esa ushbu vazifa boshqa grammatik, leksik yoki diskursiv vosita orqali ifodalanishi ehtimoli mavjud. Demak, pragmatik ekvivalentlikning asosiy mezoni shakliy aynanlik emas, balki kommunikativ-pragmatik funksiyaning qayta yaratilishidir. Mazkur muammo Ernest Hemingway ijodini o‘rganishda ayniqsa dolzarbdir. Yozuvchining

badiiy uslubi qisqa va ixcham gaplar, dialogik nutq, ellipsis, takror, sukut, bilvosita ifoda va kontekstga yuklangan ma'no bilan xarakterlanadi. Shu bois uning matnlarida yuzaki qaraganda oddiy ko'ringan birliklar, ko'pincha, murakkab pragmatik yuklamaga ega bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pragmatik ekvivalentlik muammosini tadqiq etishda, avvalo, pragmatika va nutqiy aktlar nazariyasiga oid ilmiy qarashlarga murojaat qilish zarur. Ch.Morris pragmatikani belgilar va ularning foydalanuvchilari o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi soha sifatida izohlagan. Keyinchalik, J.Austin va J.Searle tadqiqotlarida nutqning kommunikativ vazifasi va nutqiy akt tushunchasi markaziy o'rin egalladi. J.Austin tomonidan ilgari surilgan lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar konsepsiyasi tarjimada pragmatik ekvivalentlikni aniqlash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki tarjimada gapning lokutiv mazmuni saqlangan holda illokutiv kuchi o'zgarishi mumkin. Aksincha, originalning grammatik shakli o'zgargan taqdirda ham uning illokutiv maqsadi tarjimada muvaffaqiyatli qayta yaratilishi mumkin.

H.P.Grice tomonidan ishlab chiqilgan implikatura nazariyasi esa bevosita ifodalanmagan, ammo kontekst orqali anglashiladigan ma'noni aniqlash imkonini beradi. Hemingway matnlarida aynan shu hodisa katta ahamiyatga ega. Yozuvchi ko'pincha qahramonning ichki munosabatini batafsil izohlash o'rniga qisqa dialog, sukut yoki bilvosita ifoda orqali anglatadi. Tarjimashunoslikda E.Nida tomonidan ishlab chiqilgan formal va dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi tarjima jarayonida kommunikativ vazifani hisobga olish zarurligini asoslaydi. Nida va Taber tarjimada faqat shaklning emas, balki qabul qiluvchiga yetkaziladigan mazmunning funksional xususiyatlarini ham hisobga olishni taklif qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-chog'ishtirma, kontekstual-pragmatik, funksional-semantik, nutqiy aktlar tahlili va tarjima transformatsiyalari tahlili tashkil etadi. Qiyosiy-chog'ishtirma metod yordamida inglizcha original va o'zbekcha tarjimadagi bir xil yoki yaqin kommunikativ vazifani bajaruvchi birliklar taqqoslanadi. Kontekstual tahlil orqali birlikning pragmatik mazmuni faqat gap doirasida emas, balki oldingi va keyingi nutq, vaziyat, qahramonlar o'rtasidagi munosabat hamda kommunikativ maqsad bilan birgalikda o'rganiladi. Funksional-semantik tahlil lisoniy shakl bilan kommunikativ vazifa o'rtasidagi munosabatni aniqlashga xizmat qiladi. Nutqiy aktlar tahlili dialogik birliklarni vakillovchi, direktiv, ekspressiv, komissiv va boshqa aktlar asosida tavsiflash imkonini beradi. Transformatsion tahlil tarjimada grammatik almashtirish, modulatsiya, konkretlashtirish, umumlashtirish, eksplicitlashtirish, qisqartirish va kompensatsiyaning pragmatik ekvivalentlikka ta'sirini aniqlashga qaratiladi.

Tahlil va natijalar. Pragmatik ekvivalentlik original va tarjima matnlarida lisoniy birliklarning nafaqat denotativ mazmuni, balki kommunikativ vazifasi, so'zlovchi niyati va kontekstual qiymati o'rtasidagi muvofiqlikni anglatadi. Uni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin: $PE = L + S + K + N + F$ bu yerda: L – lisoniy shakl; S – semantik mazmun; K – kontekst; N – kommunikativ niyat; F – pragmatik funksiya. Demak, tarjimada L va S qisman o'zgargan bo'lsa ham, N va F saqlansa, pragmatik ekvivalentlik yuzaga kelishi mumkin. Badiiy matnda ayrim leksik birliklar lug'aviy ma'nodan tashqari ijtimoiy, emotsional yoki kommunikativ munosabatni ham ifodalaydi. Murojaat shakllari, modal birliklar, undovlar, diskurs markerlari, qisqa javoblar ana shunday birliklar qatoriga kiradi. Hemingway dialoglarida *well*, *yes*, *no*, *sure*, *perhaps*, *maybe*, *you know*, *I think* kabi birliklar ko'pincha mustaqil leksik mazmundan ko'ra dialogning kommunikativ tashkil etilishida faol ishtirok etadi. Masalan: "Well," he said. Siz ishlatayotgan o'zbekcha variantda: "Xo'sh", – dedi u. *Well → Xo'sh* munosabatida shakliy to'g'ridan to'g'ri ekvivalentlikdan ko'ra diskursiv-pragmatik ekvivalentlik ustuvor. Bu birlik suhbatni boshlash, davom ettirish yoki javob kutish funksiyasini bajarishi mumkin. O'zbek tilidagi *xo'sh* ham xuddi shunday diskursiv vazifalarni bajarishi mumkin. Demak, well → xo'sh munosabatida pragmatik ekvivalentlik leksik aynanlikdan emas, funksional muvofiqlikdan kelib chiqadi. Sintaktik qurilmaning pragmatik qiymati uning shakli va kontekstual vazifasining o'zaro munosabati orqali belgilanadi. Masalan, ingliz tilidagi: *I can't do it.* gapining o'zbekcha: *Men buni qila olmayman.* tarjimasi grammatik va semantik jihatdan yaqin. Biroq ushbu gapning pragmatik vazifasi faqat *"imkoniyat yo'qligi*"ni ifodalashdan iborat emas. Kontekstda *u rad etish akti*ni bajaradi. Keyingi: *I'd like to do it as a favor.* jumlasi esa rad etishning keskinligini yumshatadi. So'zlovchi harakatni bajarishni istashini bildiradi, ammo uni amalga oshirmasligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, ushbu mikrokontekstda:

I can't do it → Men buni qila olmayman faqat semantik emas, balki *illokutiv-pragmatik muvofiqlik*ni ham yuzaga keltiradi. Rad etish nutqiy akti badiiy dialogning muhim pragmatik birliklaridan biridir. Hemingway matnidagi: *"I can't do it," I told him. "I'd like to do it as a favor. But I told you last night I couldn't."* parchasida rad etish bevosita *can't* modal fe'li orqali ifodalanadi.

Mazkur birlikning pragmatik strukturasi:

1-jadval

Daraja	Original	O‘zbekcha ifoda
Leksik	can’t	qila olmayman
Sintaktik	inkor gap	inkor gap
Semantik	imkoniyat/majburiy cheklov	imkoniyatning yo‘qligi
Illokutiv	rad etish	rad etish
Kontekstual	avvalgi rad javobiga ishora	avvalgi rad javobini eslatish
Pragmatik	qat’iy, ammo nisbatan yumshatilgan rad	mos kommunikativ funksiya

Bu yerda pragmatik ekvivalentlikning kompleks xarakteri ko‘rinadi. Modal fe’llar va modal birliklar badiiy dialoglarda pragmatik ma’no hosil qilishda faol ishtirok etadi. *can, could, must, should, would, might* kabi modal birliklar faqat imkoniyat yoki zaruriyatni bildirmaydi. Ular: *qat’iylik; ehtimollik; majburiyat; istak; muloyimlik; ikkilanish; rad etish; taklif* kabi pragmatik ma’nolarni ham ifodalashi mumkin. Masalan, *I can’t* shakli bir kontekstda obyektiv imkoniyat yo‘qligini, boshqa kontekstda esa suhbatdoshning taklifini rad etishni bildirishi mumkin. Shuning uchun modal birliklarni tarjima qilishda ularning kontekstual-pragmatik qiymati asosiy mezon bo‘lishi lozim. Ingliz va o‘zbek tillarida so‘roq gaplar grammatik jihatdan savol berish uchun xizmat qiladi. Ammo badiiy dialogda so‘roq shakli quyidagi pragmatik vazifalarni bajarishi mumkin: axborot olish; shubha bildirish; *e’tiroz; kinoya; talab; bosim; norozilik; hayrat.* Demak, *grammatik so‘roq shakli ≠ faqat axborot olish*. Tarjimon so‘roq gapni boshqa tilda qayta yaratishda uning illokutiv kuchini ham hisobga olishi kerak. Agar originaldagi e’tiroz mazmunidagi savol o‘zbek tilida oddiy axborot savoliga aylansa, formal ekvivalentlik saqlangan bo‘lishi mumkin, ammo pragmatik ekvivalentlik susayadi. Hemingvay ijodining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri qisqa nutqiy birliklarga katta semantik-pragmatik yuklama berishdir. Implikatura bevosita ifodalanmagan, ammo kontekst asosida anglashiladigan mazmun sifatida namoyon bo‘ladi. Tarjimada implikatura quyidagi natijalarga ega bo‘lishi mumkin:

2-jadval

Originaldagi holat	Tarjimadagi holat	Natija
Yashirin ma’no saqlanadi	Yashirin ma’no saqlanadi	Pragmatik ekvivalentlik
Yashirin ma’no ochiladi	Eksplicit ifoda	Pragmatik qayta shakllanish
Ishora kamayadi	Neytral birlik	Pragmatik susayish
Kontekstiv ma’no boshqa birlikda beriladi	Kompensatsiya	Funksional tiklanish

Shu sababli pragmatik ekvivalentlikni aniqlashda implikaturaning saqlanish darajasi ham muhim mezondir. Hemingway uslubida ellipsis, ya’ni, ayrim gap bo‘laklarining tushirilishi, dialogning tabiiyligini ta’minlash bilan birga, qo‘shimcha pragmatik yuklama ham yaratadi. Ingliz tilida: *No. Not now.* kabi qisqa birliklar grammatik jihatdan to‘liq gap bo‘lmasa-da, kontekstda aniq kommunikativ vazifani bajaradi. O‘zbek tilida ham: *Yo‘q. Hozir emas.* kabi qisqa konstruksiyalar orqali shu kommunikativ vazifani qayta yaratish mumkin. Bu yerda formal struktura deyarli saqlanadi va pragmatik funksiya ham muvofiqlashadi. Ammo tarjimon qisqa birlikni izohlovchi to‘liq gapga aylantirsa, semantik mazmun saqlangan holda Hemingwayga xos nutqiy tejamkorlik va pragmatik zichlik susayishi mumkin. Dialog Hemingvay badiiy uslubining muhim komponentlaridan biridir. Dialogdagi har bir replikani alohida gap sifatida emas, balki muloqot zanjirining bir qismi sifatida tahlil qilish zarur.

Masalan: *A: Can you do it? B: I can’t.* Bu yerda *I can’t* mustaqil ravishda “men qila olmayman” ma’nosini bildiradi. Ammo dialog kontekstida u: savol → kutilgan javob → rad etish strukturasini hosil qiladi. Shuning uchun tarjimada faqat B replikasini emas, A va B o‘rtasidagi kommunikativ munosabatni ham hisobga olish kerak. Tadqiqot asosida pragmatik ekvivalentlikni to‘rt asosiy darajaga ajratish mumkin: 1. Leksik daraja: -modal birliklar, undovlar, diskurs markerlari, murojaat shakllari va baholovchi birliklar. 2. Sintaktik daraja: -so‘roq, inkor, buyruq, shart, ellipsis va qisqa gaplarning pragmatik funksiyasi. 3.Kontekstual daraja: -oldingi va keyingi nutq, vaziyat, qahramonlar munosabati va umumiy diskurs. 4. Diskursiv daraja: –Dialogning umumiy kommunikativ yo‘nalishi, nutqiy aktlar ketma-ketligi va yashirin mazmun. Ushbu darajalar o‘zaro bog‘liq: *leksik vosita → sintaktik qurilma → kontekst → diskurs → pragmatik funksiya.*

Tarjima transformatsiyasi pragmatik ekvivalentlikning buzilishi emas. Aksincha, ayrim hollarda transformatsiya pragmatik funksiyani saqlash uchun zarur bo‘ladi. Masalan: *Well, I don’t know. Xo‘sh, bilmadim.* Bu yerda leksik birliklar o‘zgarishi mumkin, ammo ikkala variantda ham ikkilanish va noaniqlik pragmatikasi saqlanadi. Boshqa holatda: *I can’t do it. Buni bajarishning iloji yo‘q.* Bu yerda shaxsiy subyekt (*I*) neytrallashtiriladi. Natijada semantik mazmunning muayyan qismi saqlangan bo‘lsa-da, shaxsiy mas’uliyat va qat’iy rad etishning pragmatik komponenti susayishi mumkin. Demak, transformatsiyaning

pragmatik natijasi quyidagi mezon asosida baholanadi. Transformatsiya turi → o‘zgargan lingvistik shakl → saqlangan komponent → yo‘qolgan/kuchaygan komponent → umumiy pragmatik natija.

Xulosa va takliflar. Ernest Hemingway asarlarining inglizcha original va o‘zbekcha tarjima matnlarini qiyosiy-chog‘ishtirma o‘rganish pragmatik ekvivalentlikning ko‘p qatlamli lingvistik hodisa ekanligini ko‘rsatadi. pragmatik Ekvivalentlikni faqat leksik yoki grammatik muvofiqlik asosida aniqlash yetarli emas. Uning tarkibida lisoniy shakl, semantik mazmun, kontekst, kommunikativ niyat va illokutiv funksiya o‘zaro bog‘langan. Original va tarjima birliklari shaklan farq qilishi mumkin, biroq ularning kommunikativ vazifasi saqlansa, funksional-pragmatik ekvivalentlik yuzaga keladi. Hemingvayning qisqa dialoglari, ellipsis, modal birliklar, inkor shakllari, diskurs markerlari va so‘roq konstruksiyalari pragmatik mazmunni shakllantirishda muhim lingvistik vositalardir. Tarjimada pragmatik ekvivalentlikning to‘liq, funksional, qisman, kuchaygan, susaygan va kompensator ko‘rinishlarini farqlash mumkin. Implikaturaning tarjimada saqlanishi pragmatik ekvivalentlikni aniqlashning muhim mezonlaridan biridir. Originaldagi yashirin ma’noning tarjimada eksplicitlashtirilishi har doim ham pragmatik yo‘qotish hisoblanmaydi; u kontekstual vazifani saqlagan holda amalga oshirilgan bo‘lsa, funksional muvofiqlik yuzaga kelishi mumkin. Tarjima transformatsiyalarini baholashda transformatsiyaning mavjudligi emas, balki uning pragmatik natijasi asosiy mezon bo‘lishi kerak. *Lisoniy shakl → semantik mazmun → kontekst → kommunikativ niyat → illokutiv funksiya → tarjima vositasi → pragmatik natija* modeli ingliz va o‘zbek badiiy matnlarining pragmatik ekvivalentligini qiyosiy o‘rganish uchun samarali metodik asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford, Clarendon Press, 1962.

(2). Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London, Routledge, 2018.

(3). Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. London, Oxford University Press, 1965.

(4). Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. New York, Academic Press, 1975, p. 41–58.

(5). Hemingway E. To Have and Have Not. New York, Charles Scribner’s Sons, 1937.

(6). Hemingway E. Across the River and into the Trees. New York, Charles Scribner’s Sons, 1950.

(7). Nida E.A. Toward a Science of Translating. Leiden, E.J.Brill, 1964.

(8). Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. Leiden, E J.Brill, 1969.

(9). Newmark P. A Textbook of Translation. New York, Prentice Hall, 1988.

(10). Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge, Cambridge University Press, 1969.

(11). Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. Amsterdam, John Benjamins, 1995.

(12). Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. London, Routledge, 1995.

Yigitaliyeva Zilola Muratovna (Farg‘ona davlat universiteti dotsenti; zilolayigitaliyeva5@gmail.com; ORSID: 0000-0003-1681-2620)

MORFOLOGIK VOSITALARNING PERSUAZIV VAZIFASI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada persuazivlik (ishontirish) maydonining yadroviy qismi hisoblangan morfologik vositalarning pragmatik va diskursiv vazifalari o‘zbek va nemis tillari qiyosiy aspektida tadqiq etilgan. Ishda epistemik va deontik modallik ko‘rsatkichlari, yuklamalar, buyruq hamda shart mayllari, shuningdek, shaxs-son va olmoshlarning matnda tinglovchi yoki o‘quvchiga ta’sir o‘tkazish, da’voni kuchaytirish yoki yumshatish strategiyalaridagi o‘rni lisoniy dalillar orqali ochib berilgan. Tillarning strukturaviy farqlariga qaramay, ularning funksional jihatdan yaqinligi hamda argumentativ operatorlik tabiati aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *persuazivlik, morfologik sath, epistemik modallik, deontik modallik, evidensiallik, yuklamalar (modalpartikeln), inkluziv “biz”, pragmatik vazifa, argumentatsiya.*

ПЕРСУАЗИВНАЯ ФУНКЦИЯ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются прагматические и дискурсивные функции морфологических средств, считающихся ядром поля убеждения, в сравнительном аспекте узбекского и немецкого языков. Работа раскрывает роль эпистемических и деонтических индикаторов модальности, нагрузок, императивных и условных наклонений, а также лицевого числа и местоимений в стратегиях воздействия на слушателя или читателя в тексте, усиления или смягчения утверждения посредством лингвистических аргументов. Несмотря на структурные различия языков, выявляется их функциональная близость и природа аргументативных операторов.*

Ключевые слова: *персуазивность, морфологический уровень, эпистемическая модальность, деонтическая модальность, эвиденциальность, частицы (modalpartikeln), инклюзивное «мы», прагматическая задача, аргументация.*

PERSUASIVE FUNCTION OF MORPHOLOGICAL MEANS

Annotation. *This article examines the pragmatic and discursive functions of morphological devices, considered the core of persuasion, in a comparative study of the Uzbek and German languages. The paper explores the role of epistemic and deontic indicators of modality, stress, imperative and conditional moods, as well as personal number and pronouns, in strategies for influencing the listener or reader in a text, strengthening or softening assertions through linguistic arguments. Despite the structural differences between the languages, their functional similarities and the nature of their argumentative operators are revealed.*

Keywords: *persuasion, morphological level, epistemic modality, deontic modality, evidentiality, loadings (modalpartikeln), inclusive "we", pragmatic task, argumentation.*

Kirish. Persuazivlik (ishontirish) maydonining yadrosi morfologik sathda joylashishi haqidagi faraz ushbu tadqiqotning bosh obyekti hisoblanadi. Bu yerda ko‘rib chiqiladigan vositalar alohida leksik birlik emas, balki so‘z shakli yoki qo‘shimchadir. Ular matnda yuzaki ko‘zga tashlanmasa-da, deyarli har bir persuaziv epizodda faol ishtirok etadi.

Modallik – so‘zlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi kategoriya bo'lib, uning ikki turi ajratiladi:

1. Epistemik modallik (fikrning rost yoki noaniqligi).
2. Deontik modallik (zarurat, ruxsat, taqiq).

O‘zbek tilshunosligida ushbu vositalar mazmuniy sintaksis doirasida, nemis tilida esa modal fe’llar doirasida [2] batafsil o‘rganilgan. Modallik ishontirishda ikki qarama-qarshi vazifani bajaradi: so‘zlovchi fikrini kuchaytirishi (*boosters* guruhi) yoki uni ataylab yumshatishi (*hedges* guruhi) mumkin. T.Larina ko‘rsatganidek, noaniqlik lisoniy manipulatsiya sifatida qo‘llanganda, bildirilgan da’voni rad etish qiyinlashadi.

Adabiyotlar tahlili. Persuazivlik va uning lisoniy vositalari muammosi jahon hamda milliy tilshunoslikda turli aspektlarda o‘rganib kelinmoqda. Persuazivlik va pragmalingvistik ta’sir mexanizmlarining nazariy asoslari J.-K.Anskombr va O.Dyukro (J.-C.Anscombre, O.Ducrot) tomonidan ilgari surilgan *"Til ichidagi argumentatsiya"* (*L'argumentation dans la langue*) nazariyasiga borib taqaladi. Mualliflarning ta’kidlashicha, til birliklari va aynan gramatik operatorlar shunchaki axborot uzatmaydi, balki gapning yo‘nalishini va uning argumentativ qiymatini belgilaydi.

Akademik yozuv va diskursda persuaziv vositalarning o‘rnini Ken Hayland (K.Hyland) atroflicha tadqiq etgan. K.Hayland interaktiv va interpersonal vositalarni tasniflab, *hedges* (yumshatish) va *boosters* (kuchaytirish) kategoriyalarining muallif va kitobxon o‘rtasidagi muloqotni yo‘lga qo‘yishdagi pragmatik funksiyalarini ochib bergan. Uning qarashlariga ko‘ra, o‘quvchini ishontirish uchun manba berayotgan da’voning qat’iyligi va egiluvchanligi o‘rtasidagi muvozanatni morfologik hamda leksik vositalar orqali ushlab turish zarur.

T.V.Larina xalqaro va madaniyatlararo muloqot doirasida muomalalik hamda distancion strategiyalarni o‘rganar ekan, noaniqlik va ehtimollik kategoriyalarining manipulyativ xarakterini ko‘rsatib o‘tadi. Larinaning fikricha, gipotetik va yumshatilgan shakllar so‘zlovchini ehtimoliy e’tirozlardan himoya qiladi va adresatga muloqot bosimini kamaytirib, uni bilvosita kelishuvga undaydi.

O‘zbek tilshunosligida modallik va uning mazmuniy-sintaktik xususiyatlari A.Nurmonov va N. Mahmudovlar boshchiligida yaratilgan "O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi" tadqiqotida har tomonlama tahlil qilingan. Ushbu ishda modal ma’nolarning shakllanishida morfemik va sintaktik birliklarning o‘zaro hamkorligi ko‘rsatib berilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda modallik, asosan, mantiqiy-grammatik kategoriya sifatida talqin qilingan bo‘lib, uning matn va diskursdagi persuaziv-manipulyativ potensiali yetarlicha yoritilmagan edi.

Nemis tilshunosligida modal fe’llar va modal yuklamalar (*Modalpartikeln*) tizimi G. Helbig, J. Buscha hamda M.Turmayr (M.Thurmair) ishlarida chuqur tahlil qilingan. M.Turmayr nemis modal yuklamalarini so‘zlovchi va tinglovchining umumiy bilim fondi (*fon*) bilan bog‘lovchi, muloqot kontekstini boshqaruvchi muhim pragmatik vosita sifatida baholaydi. Nemis tilida ushbu vositalarning diskursiv tabiati atroflicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni agglutinativ tillar (xususan, o‘zbek tili) morfologik affikslari va yuklamalari bilan qiyosiy-pragmatik aspektda o‘rganish hamon dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

- sintaktik jihatdan yoyiq tuzilmalar;
- ilmiy terminlar;
- xorijiy o‘zlashmalar;
- qisqartmalar;
- bilvosita va kontekstual ifodalar.

Bu vositalar yordamida so‘zlovchi axborotni bevosita, keskin yoki qo‘pol shaklda emas, balki ijtimoiy jihatdan maqbul va suhbatdosh uchun qulay shaklda yetkazadi. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy hushyorlikni muayyan kommunikativ strategiya sifatida baholash mumkin. U kommunikativ maqsad, vaziyat, suhbatdoshning mavqeyi va nutq predmetiga munosabat asosida shakllanadi.

5. Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nutqiy hushyorlik o‘zbek tilidagi keng qamrovli ijtimoiy-kommunikativ hodisa bo‘lib, inson sha’ni, qadr-qimmati, ijtimoiy mavqeyi va ruhiy holatini hurmat qilishga xizmat qiladi.

Evfemizmlar esa nutqiy hushyorlikni amalga oshiruvchi muhim lisoniy vositalardan biri hisoblanadi. Ular noqulay, keskin, taqiqlangan yoki kamsituvchi ifodalar o‘rnida qo‘llanib, muloqotning yumshoq, madaniy va ijtimoiy jihatdan maqbul bo‘lishini ta’minlaydi.

Biroq nutqiy hushyorlik evfemizmga nisbatan kengroq tushunchadir. Chunki u faqat so‘z almashtirish bilan cheklanmay, metafora, maqol, ibora, sintaktik tuzilma, kommunikativ strategiya va muloqot vaziyatini hisobga olish kabi ko‘plab omillarni ham qamrab oladi.

Demak, nutqiy hushyorlikni nutq odobi, bag‘rikenglik, ijtimoiy mas’uliyat va kommunikativ madaniyatning muhim ko‘rinishi sifatida baholash mumkin. Evfemizm esa ushbu hodisaning til tizimidagi aniq va faol namoyon bo‘lish shakllaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Isroilova H., Mo‘ydinov Q. Abdulla Qahhor asarlarida gender tafovutlar: evfemizm va disfemizmning qo‘llanishi. “Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Andijon, 2023. – B. 88.

(2). Irisqulov T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 2001.

(3). Jo‘rayeva N. Fransuz va o‘zbek tillari evfemizm va disfemizmlarining lingvopragmatik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Andijon, 2023.

(4). Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. Toshkent, 2000.

(5). Содиқов А. ва бошқ. Тилшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1981.

(6). Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида мақоллар эвфемизацияси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Фарғона, 2023.

(7). Qodirov X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2013.

Atabaeva Baxıtlı Jaxanshaevna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti assistent o‘qituvchisi; E-mail: abaxitli92@gmail.com)

MATEMATIKA TA’LIMIDA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matematika ta’limida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi sun’iy intellekt asosidagi raqamli vositalarni matematika darslariga samarali integratsiya qilish uchun zarur bo‘lgan didaktik, tashkiliy va axloqiy shartlarni aniqlash hamda ularning o‘quv natijalariga ta’sir mexanizmini asoslashdan iborat. Metodologiya sifatida konseptual tahlil, normativ hujjatlar va ilmiy manbalarni tanqidiy ko‘rib chiqish, hamda aralash dizaynli pedagogik kuzatuv va diagnostik o‘lchovlar qo‘llanadi.*

Kalit so‘zlar: *matematika ta’limi, sun’iy intellect, pedagogik shart-sharoitlar, adaptiv o‘qitish, formatif baholash, akademik halollik, o‘qituvchi kompetensiyasi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СРЕДСТВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ

Аннотация. *В статье системно анализируются педагогические условия использования инструментов искусственного интеллекта в обучении математике. Цель исследования заключается в выявлении дидактических, организационных и этических условий, необходимых для эффективной интеграции ИИ-инструментов в уроки математики, а также в обосновании механизмов их влияния на учебные результаты. В качестве методологии применяются концептуальный анализ, критический обзор нормативных документов и научных источников, а также педагогическое наблюдение и диагностические измерения в смешанном дизайне.*

Ключевые слова: *математическое образование, искусственный интеллект, педагогические условия, адаптивное обучение, формативное оценивание, академическая честность, компетентность учителя.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS IN MATHEMATICS EDUCATION

Annotation. *This article provides a systematic analysis of pedagogical conditions for using artificial intelligence tools in mathematics education. The study aims to identify the didactic, organizational, and ethical prerequisites required for effective integration of AI-based tools into mathematics lessons and to explain the mechanisms through which these tools influence learning outcomes. The methodology includes conceptual analysis, a critical review of policy documents and scholarly sources, and a mixed-design approach combining classroom observation with diagnostic measurements.*

Keywords: *mathematics education; artificial intelligence; pedagogical conditions; adaptive learning; formative assessment; academic integrity; teacher competence.*

Kirish. Matematika ta’limida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish masalasi o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, bilimlarni diagnostika qilish va murakkab tushunchalarni vizuallashtirish imkoniyatlari bilan izohlanadigan zamonaviy pedagogik muammo sifatida ta’riflanadi. Ushbu muammoning mexanizmi shundan iboratki, mashina o‘rganishi algoritmlari o‘quvchining javoblari, vaqt sarfi va xatolar tuzilmasi asosida individual yo‘nalishlarni tavsiya qiladi, natijada o‘quvchi uchun optimal murakkablikdagi topshiriqlar zanjiri hosil bo‘ladi. Masalan, algebraik tenglamalarni yechishda xato turlari bo‘yicha klasterlash amalga oshirilsa, ayrim o‘quvchilar uchun ko‘paytuvchilarga ajratish, boshqalar uchun esa nisbat va proporsiya bo‘yicha mikromashqlar avtomatik taqdim etilishi mumkin. Xalqaro baholashlar matematik savodxonlikdagi tafovutlar katta ekanini ko‘rsatadi: PISA tipidagi o‘lchovlarda mamlakatlar kesimida o‘rtacha natijalar yuzlab ball oralig‘ida farq qilishi, sinf ichida esa yuqori va past ko‘rsatkichli guruhlar orasida sezilarli tafovut saqlanishi qayd etiladi, bu esa adaptiv yondashuvlarni dolzarb qiladi [3]. Ilmiy izoh sifatida, matematika bilish jarayoni ko‘p bosqichli kognitiv yuklama va metakognitiv nazoratni talab qiladi, sun’iy intellekt esa aynan nazorat va qayta aloqani tezkor berish orqali o‘quvchining ishchi xotirasi resurslarini oqilona taqsimlashga yordam beradi [2].

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, raqamli ta’lim muhitida sifatni nazorat qilish, adolatli baholash va akademik halollikni saqlashga oid yangi risklar paydo bo‘layotgani bilan ta’riflanadi. Mexanizm nuqtai nazaridan, generativ sun’iy intellekt matn, kod va yechimlarni tez ishlab chiqargani sari o‘quvchining mustaqil fikrlashi va isbot madaniyatini shakllantirish jarayonida ko‘chirish va tayyor yechimdan foydalanish

ehtimoli ortadi, bu esa pedagogik shart-sharoitlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Masalan, geometriyada isbot topshirig‘ini sun’iy intellektga berib, o‘quvchi mantiqiy bog‘lanishlarni o‘qimasdan yakuniy matnni ko‘chirishi mumkin, natijada o‘qituvchi faqat mahsulotni ko‘radi, jarayon esa yashirin qoladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi matematika ta’limida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari modelini ishlab chiqish va uni amaliy indikatorlar orqali operatsionallashtirishdan iborat deb ta’riflanadi. Mazkur maqsadga erishish mexanizmi sifatida, bir tomondan, didaktik dizayn talablarini, ikkinchi tomondan, tashkiliy-infratuzilmaviy va etik-huquqiy talablarni bir tizimga keltirish, so‘ng ularni o‘lchash mumkin bo‘lgan mezonlar bilan bog‘lash ko‘zda tutiladi. Masalan, “adaptiv topshiriq” sharti faqat platforma mavjudligi bilan emas, balki o‘qituvchining diagnostik xarita tuzishi, maqsadli kompetensiyalarni ajratishi va qayta aloqani dars ssenariysiga joylashtirishi bilan isbotlanadi. Raqamli pedagogika bo‘yicha tadqiqotlarda o‘qituvchi kompetensiyasi omili doimiy ravishda kuchli prediktor sifatida qayd etiladi; ayrim tadqiqotlarda texnologiya integratsiyasi muvaffaqiyatining yarmidan ortig‘i o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va qo‘llab-quvvatlash tizimi bilan izohlanishi ko‘rsatiladi [3]

Materiallar va metodlar. Tadqiqot materiali sifatida matematika ta’limida sun’iy intellektga oid ilmiy maqolalar, o‘qitish nazariyasiga doir konsepsiyalar hamda sinf amaliyotida uchraydigan tipik o‘quv vaziyatlari to‘plami ta’riflanadi. Ushbu materiallar bilan ishlash mexanizmi uch yo‘nalishda quriladi: birinchisi konseptual tahlil orqali “pedagogik shart-sharoit” tushunchasini operatsion ta’riflash, ikkinchisi normativ va metodik hujjatlar talablarini moslashtirish, uchinchisi esa amaliy kuzatuv va diagnostika vositalari yordamida indikatorlarni sinovdan o‘tkazish. Masalan, sun’iy intellekt yordamida adaptiv testdan foydalanilganda topshiriqlar banki Bloom taksonomiyasining bilish va qo‘llash darajalari bilan cheklanib qolmasdan, tahlil va umumlashtirish darajalarini ham qamrab olishi talab etiladi, bu esa kontent validligini tekshirishni taqozo qiladi. Metodik jihatdan aralash dizayn tanlanadi: sifat tahlil uchun dars kuzatuvlari va o‘qituvchi refleksiv kundaliklari, miqdoriy tahlil uchun esa pretest va posttest ko‘rsatkichlari hamda log-ma’lumotlar (vaqt, urinishlar soni, xato turlari) qo‘llanadi. Ilmiy izoh nuqtai nazaridan, aralash yondashuv pedagogik sharoitlar kabi murakkab konstruktni birgina test balli bilan emas, jarayon indikatorlari bilan birgalikda ishonchliroq talqin qilish imkonini beradi [1].

Tadqiqotning nazariy tayanchi sifatida konstruktivistik didaktika, formatif baholash va texnologiyani pedagogik kontent bilimlari bilan integratsiyalash yondashuvi ta’riflanadi. Mazkur tayanchning mexanizmi shundaki, sun’iy intellekt vositasi o‘zi mustaqil metod bo‘la olmaydi, u o‘qituvchining matematik mazmun, pedagogik strategiya va raqamli imkoniyatni birlashtirgan qarorlari orqali darsning maqsadiga bo‘ysundiriladi. Masalan, limit mavzusida generativ sun’iy intellektdan faqat ta’rifni qayta so‘zlatish uchun emas, balki turli noto‘g‘ri intuitiv tasavvurlarni keltirib chiqaruvchi kontrmisollarni ishlab chiqish va ularni sinfda tahlil qilish uchun foydalanish mumkin. Ilmiy izoh sifatida, sun’iy intellektning afzalligi qayta aloqani tez va shaxsiylashtirilgan shaklda berishidadir, ammo bu qayta aloqa matematik isbot mantiqi va tushuncha aniqligiga mos kelmasa, noto‘g‘ri bilim mustahkamlanishi xavfi paydo bo‘ladi [5].

Natijalar. Tadqiqot natijasi sifatida matematika ta’limida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari uch darajali model ko‘rinishida ta’riflanadi: mikrodaraja didaktik-sinf ichidagi dizayn, mezodaraja maktabning tashkiliy va metodik qo‘llab-quvvatlash tizimi, makro daraja esa axloqiy-huquqiy va standartlashtirish talablari bilan belgilanadi. Ushbu modelning mexanizmi shundaki, har bir daraja boshqasini ta’minlaydi: masalan, mikro darajadagi adaptiv mashqlar o‘qituvchining ssenariysiga kiritilsa-da, mezodarajadagi internet barqarorligi, qurilma ta’minoti va metodik seminarlar bo‘lmasa, barqaror natija kuzatilmaydi, makrodarajadagi ma’lumotlar xavfsizligi va baholash siyosati bo‘lmasa, ishonch yo‘qoladi. Misol sifatida “funksiya grafigi” bo‘limida sun’iy intellektli vizualizator yordamida parametr o‘zgarishining ta’siri ko‘rsatilganda, mikrodarajada o‘quvchi manipulyatsiya qiladi, mezo darajada o‘qituvchi uchun tayyor rubrika va topshiriqlar banki bo‘ladi, makrodarajada esa shaxsiy ma’lumotlar minimal yig‘iladi va rozilik protokoli ishlaydi. Raqamlar orqali ifodalaganda, indikatorlar tizimi 12 ta mezondan iborat qilib operatsionallashtiriladi: mikrodarajada 5 ta (maqsad-moslik, qayta aloqa sifati, differensial topshiriq, isbot va izoh talabi, sinf ichidagi hamkorlik), mezodarajada 4 ta (infratuzilma, metodik xizmat, o‘qituvchi tayyorligi, texnik qo‘llab-quvvatlash), makrodarajada 3 ta (akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi, baholashning shaffofligi). Ilmiy izoh sifatida, indikatorlar sonining cheklanganligi amaliy tatbiqni yengillashtiradi, shu bilan birga, mezonlar o‘zaro bog‘liq bo‘lgani uchun umumiy indeks orqali monitoring qilish imkonini beradi.

Didaktik shart-sharoitlar bloki doirasida “tushuntirishning ikki kanalli tashkil etilishi” natija sifatida ta’riflanadi, ya’ni, sun’iy intellekt tavsiyalari o‘qituvchi izohi va o‘quvchining o‘z refleksiyasi bilan parallel yuritiladi. Mexanizm shundan iboratki, sun’iy intellekt bergan yechim yoki maslahat darhol “nima uchun

shunday” va “qaysi qadamda xato bo‘lishi mumkin” savollari bilan metakognitiv tekshiruvdan o‘tkaziladi, natijada o‘quvchi tayyor javob emas, fikrlash yo‘lini o‘zlashtiradi. Masalan, kvadrat tenglama yechishda sun’iy intellekt diskriminant usulini taklif qilsa, o‘qituvchi shu yerning o‘zida Viet teoremasi bilan solishtiradi va qaysi sharoitda qaysi usul tejamkorligini muhokama qildiradi. O‘lchovlar misolida, o‘quvchilarning yechim izohi yozma sifatini 0 dan 3 gacha bo‘lgan rubrika bilan baholaganda, jarayonga yo‘naltirilgan ssenariy qo‘llanadigan guruhda o‘rtacha ballning 0,4–0,7 punktga o‘sishi kabi tendensiya qayd etilishi mumkin. Ilmiy izoh sifatida matematik kompetensiya faqat natija topish emas, balki asoslash, umumlashtirish va transferni talab qiladi, shu sababli sun’iy intellektni “asoslovchi dialog”ga majburlovchi didaktik shartlar samaradorlikni oshiradi.

Muhokama. Olingan model matematika ta’limida texnologiya integratsiyasini “vosita borligi” bilan cheklamay, shart-sharoitlar tizimi orqali boshqarish zarurligini ko‘rsatishi bilan talqin qilinadi. Mexanizm jihatidan, bu yondashuv texnologiyaning o‘quv natijasiga ta’sirini bevosita emas, balki didaktik ssenariy, o‘qituvchi kompetensiyasi va baholash siyosati orqali vositalangan jarayon sifatida ko‘radi, bu esa ilmiy adabiyotdagi kontekstga sezgir integratsiya g‘oyasi bilan mos keladi [6]. Raqamlar bilan solishtirganda, turli tadqiqotlarda raqamli aralashuvlarning o‘rtacha ijobiy ta’siri qayd etilsa-da, implementatsiya sifati past bo‘lgan holatlarda nolga yaqin yoki manfiy natijalar uchrashi mumkin, bu esa biz taklif qilgan indikatorli monitoring yondashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. Ilmiy izoh sifatida, matematika fanida xatolar diagnostikasi va moslashtirilgan mashqlar juda samarali bo‘lishi mumkin, ammo bu jarayon o‘qituvchining kontent bilimlari bilan bog‘lanmasa, tizim noto‘g‘ri tavsiyalarni pedagogik haqiqat sifatida legitimlashtirib qo‘yishi ehtimoli bor [2].

Tadqiqotning cheklovi sifatida natijalar ko‘proq konseptual model va indikatorlar tizimiga tayanganligi, turli maktablar kesimida uzun muddatli tajriba orqali tekshirish talabi mavjudligi ta’riflanadi. Mexanizm nuqtayi nazaridan, sun’iy intellekt vositalari tez yangilanadi, platformalarning funksional imkoniyatlari va narx siyosati o‘zgaradi, bu esa har qanday modelni dinamik kalibrlashni talab qiladi. Masalan, bugun moslashuvchan test faqat yopiq savollarga tayanishi mumkin, ertaga esa yozma isbotni ham semantik tahlil qilish funksiyasi paydo bo‘ladi, natijada indikatorlar tizimiga yangi mezonlar kiritish ehtiyoji tug‘iladi. Raqamli ta’lim muhitida texnik uzilishlar, qurilma tengsizligi va internet tezligi farqlari ham natijalarni buzishi mumkin; amaliy kuzatuvlarda bir dars davomida 2–3 martagacha uzilish bo‘lishi o‘quvchi motivatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli bor. Ilmiy izoh sifatida, kelajak tadqiqotlari uchun kvazi-eksperimental dizayn, maktablararo solishtirish va uzunlamasına monitoring zarur, shuningdek, o‘qituvchi tayyorlash modullarining ta’sirini alohida o‘lchash maqsadga muvofiq [1].

Xulosa. Matematika ta’limida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish samaradorligi texnologiyaning mavjudligidan ko‘ra, uni didaktik, tashkiliy va etik jihatdan ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar tizimiga bog‘liqligi umumlashtirildi. Taklif etilgan uch darajali model mikrodarajada dars ssenariysi va formatif qayta aloqani, mezodarajada infratuzilma va metodik qo‘llab-quvvatlashni, makrodarajada esa akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi va baholash shaffofligini bir butun mexanizm sifatida ko‘rsatdi. Indikatorlar tizimi shart-sharoitlarni o‘lchash va monitoring qilishni soddalashtirib, adaptiv o‘qitishning samaradorligini jarayon izlari va yakuniy natijalar bilan birgalikda baholash imkonini beradi. Natijalar o‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha aniq mezonlar, rubrikalar va baholash protokollarini ishlab chiqish zarurligini asoslab berdi. Shuningdek, matematika fanida isbot va asoslash madaniyatini saqlagan holda, sun’iy intellektni shaxsiylashtirilgan mashq, diagnostika va refleksiyani kuchaytiruvchi vosita sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqligi sintez qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A framework for teacher knowledge. New York, Teachers College Press, 2006, 280 p.

(2). OECD. PISA 2018, Results. Paris, OECD Publishing, 2019, 352 p.

(3). Abduqodirov A.A., Begimqulov U.Sh. Ta’limda axborot texnologiyalari. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2012, 240-bet.

(4). B.Atabaeva. Matematika pánin oqítíwda jasalma intellekt hám e-learning texnologiyalarínıń tájiriybesínaq nátiyjeleri hám statistikalíq analizi. “Ilim hám jámiyet”, 2026, 6/3, Nukus, 63–68-betlar.

(5). B.Atabaeva, X.Davlatbayeva. Raqamli ta’lim muhitida matematika fanini o‘qitishning nazariy-metodologik asoslari. “Fan va jamiyat”, 2026, 4/3, Nukus, 89–92-betlar.

Umarova Nigora Amirjon qizi (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti 2-kurs tayanch doktoranti;
E-mail: nirnazarova2991@gmail.com)

ZAMONAVIY TIL TA’LIMIDA TIL O‘RGANISH STRATEGIYALARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy til ta’limi jarayonida til o‘rganish strategiyalarining nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Til o‘rganish strategiyalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda turli olimlar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, strategiyalarning kognitiv, affektiv va ijtimoiy jihatlari keng yoritilgan. Bundan tashqari, strategik o‘rganishning metokognitiv modeli alohida ko‘rib chiqilib, uning talabalarga bilimlarni nafaqat o‘zlashtirish, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini berishi haqida fikr yuritilgan. Maqolada til o‘rganish strategiyalarining o‘qitish tamoyillari ham batafsil yoritilib, talabalarning faol ishtirokini ta’minlash, zarur ko‘nikmalarini shakllantirish, strategiyalarni aniq va tizimli tushuntirish, umumlashtirish hamda moslashuvchanlikni rivojlantirish kabi omillarning ahamiyati hamda mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishdagi roli asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *til o‘rganish strategiyalari, metakognitiv model, kognitiv strategiyalar, affektiv strategiyalar, ijtimoiy strategiyalar, o‘z-o‘zini boshqarish, til ta’limi, samarali o‘rganish.*

Умарова Нигора Амиржон кизи (Узбекский государственный университет мировых языков,
Докторант 2-го курса базовой докторантуры; E-mail: nirnazarova2991@gmail.com)

ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ И ПРАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы, этапы развития и практическое значение стратегий изучения языка в процессе современного языкового образования. Рассматривается процесс формирования и этапы развития стратегий изучения языка, а также подходы, предложенные различными учёными. Кроме того, подробно освещаются когнитивные, аффективные и социальные аспекты стратегий. Особое внимание уделяется метакогнитивной модели стратегического обучения, а также рассматривается её роль в обеспечении возможности не только усваивать знания, но и применять их в реальных жизненных ситуациях. В статье подробно раскрываются принципы обучения стратегиям изучения языка, обосновывается значение таких факторов, как обеспечение активного участия студентов, формирование необходимых навыков, чёткое и систематическое объяснение стратегий, их обобщение и развитие гибкости, а также их роль в развитии самостоятельной учебной деятельности студентов.*

Ключевые слова: *стратегии изучения языка, метакогнитивная модель, когнитивные стратегии, аффективные стратегии, социальные стратегии, саморегуляция, языковое образование, эффективное обучение.*

Umarova Nigora Amirjon qizi (Uzbekistan State University of World Languages 2nd-Year Doctoral Student;
E-mail: nirnazarova2991@gmail.com)

THE THEORETICAL AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF LANGUAGE LEARNING STRATEGIES IN MODERN LANGUAGE EDUCATION

Annotation. *This article analyzes the theoretical foundations, stages of development, and practical significance of language learning strategies in the process of modern language education. The formation and evolution of language learning strategies, as well as the approaches proposed by various scholars, are examined. In addition, the cognitiv, affective, and social dimensions of these strategies are discussed in detail. Furthermore, the metacognitive model of strategic learning is considered sperately, emphasizing its role in enabling students not only to acquire knowledge but also to apply it effectively in real-life situations. The article also eloborated on the principles of teaching language learning strategies, highliting the importance of ensuring active student participation, developing necessary skills, providing clear and systematic instruction, promoting generalization, and fostering adaptability. The role of these factors in enhancing independent learning is also substantiated.*

Key words: *language learning strategies, metacognitive model, cognitive strategies, affective strategies, social strategies, self-regulation, language education, effective learning.*

Kirish. Zamonaviy til ta’limi jarayonida talabaning faol subyekt sifatida ishtiroki tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, til o‘rganish strategiyalari bu jarayonda markaziy o‘rin egallaydi. “Til O‘rganish Strategiyalari (TO‘S) 1970-yillarda tadqiqot mavzusi sifatida paydo bo‘lib, bu global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar va N.Chomskiyning tilni tug‘ma qobiliyat sifatida qarovchi yondashuvi ta’sirida yuzaga keldi.


Dastlabki tadqiqotlar muvaffaqiyatli o‘rganuvchilarni o‘rganib, boshqalarga yordam berishni maqsad qilgan edi, biroq vaqt o‘tishi bilan e’tibor til o‘rganish jarayonining nazariy jihatlariga ko‘chdi. 1990-yillardan boshlab bu sohadagi tadqiqotlar N.Chomskiy yondashuvidan chekinib, muqobil qarashlarni qabul qila boshladi” [2;1-b.].

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunga qadar TO‘S bo‘yicha qator olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar va ushbu terminga nisbatan o‘z ta’riflarini keltirib o‘rganlar. TO‘S – talabalar tomonidan maqsadli tilni bilish va tushunishni yaxshilash uchun aniq maqsadda qo‘llaniladigan ongli va yarim ongli fikrlar va xatti-harakatlarga ishora qilsa, tildan foydalanish strategiyalari esa o‘rganilgan tildan foydalanish strategiyalariga ishora qiladi. Zamonaviy ta’rifga ko‘ra, strategiyalar muayyan vaziyatga mos keladigan aqliy va jismoniy harakatlar bo‘lib, ular birgalikda ishlashi hamda o‘rganishning kognitiv, affektiv va ijtimoiy jihatlarini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Bu esa til o‘rganishda o‘z-o‘zini boshqarish jarayonining murakkabligini ta’minlaydi” [1;169-b.]. Demak, TO‘Sga berilgan zamonaviy ta’riflar ularning murakkab va ko‘p qirrali hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Strategiyalar aqliy va jismoniy harakatlar majmuasi bo‘lib, ular talabaning maqsadli faoliyati doirasida shakllanadi hamda kognitiv, affektiv va ijtimoiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan TO‘S talabaning o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

A.Wenden va J.Rubin tadqiqotida talabalarning psixologik, kommunikativ, ijtimoiy va kognitiv strategiyalari tahlil qilindi. 1981-yilda ular ushbu strategiyalarni o‘rganishga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita yordam beradigan strategiyalar deb tasniflagan. N.Naiman, M.Wesche, W.Fillmore va E.Bialystok kabi boshqa tadqiqotchilar til o‘rganishda turli strategiyalarni, shu jumladan, ijtimoiy va kognitiv yondashuvlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. C.Hosenfeld o‘qish strategiyalarini, A.Cohen va E.Aphek esa lug‘atni saqlash strategiyalarini o‘rganishgan. A.Wenden metakognitiv bilimlarning ahamiyatini ta’kidlagan, keyinchalik, A.Chamot va O‘Malley kognitiv va metakognitiv strategiyalarni taqqoslagan. R.Politzer va M.McGroarty esa strategiyalarning madaniy xususiyatlari va ularning qanchalik tez-tez ishlatilishini o‘rganish bo‘yicha kelajakdagi tadqiqotlar uchun takliflar bergan [7;19-22-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi nazariy metodlardan foydalanildi: qiyosiy tahlil orqali turli tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan til o‘rganish strategiyalarining mazmuni, tasnifi va funksiyalarini o‘zaro taqqoslash amalga oshirildi. Tizimli tahlildan til o‘rganish strategiyalari bo‘lmish kognitiv, metakognitiv, affektiv va ijtimoiy strategiyalarning o‘zaro uzviy bog‘liq tizim sifatida o‘rganish uchun foydalanildi. Shuningdek, modellashtirish orqali straetgik o‘rganishning metakognitiv modelini tahlil qilindi hamda uning o‘quv jarayonida strategiyalarni ongli ravishda qo‘llashdagi imkoniyatlarini ochib berildi. TO‘S bo‘yicha olib borilgan tadqiqot asosida bilimlarni sinfda samarali tarzda qo‘llash talabalar uchun muhim vazifa hisoblanadi. Bu muammoni hal qilish uchun strategik o‘rganishning metakognitiv modeli ishlab chiqilgan. Keng qamrovli tadqoqotlarga asoslangan ushbu model strategiyalarni boshqariladigan tarzda tartibga soladi va talabalar hamda talabalarga ularni turli o‘quv vazifalari, real hayotiy holatlarda tushunish va qo‘llashga yordam beradi. Bu jarayonlardan samarali til o‘rganuvchilar foydalanadi va ular barcha til ko‘nikmalariga (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish), shuningdek, mazmunni o‘zlashtirish va so‘z boyligini mustahkamlashga tatbiq etilishi mumkin [6;11–12-b.] (1.1-rasmga qarang):

1.1-rasm



1.1-rasm. Strategik o‘rganishning metakognitiv modeli.

Demak, model orqali shuni tahlil qilish mumkinki, strategik o‘rganishning metakognitiv modeli talabalar bilimini faqat o‘zlashtirib qolmay, uni amalda qo‘llashiga yordam beradi. U strategiyalarni tartibli va ongli boshqarishni ta’minlab, talabalarga turli vazifalar va real hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanishni o‘rgatadi.

Tahlil va natijalar. O‘rganish strategiyalari o‘qituvchiga emas, balki talabaga tegishli bo‘lgan vosita sifatida aniq tan olinishi kerak. Bu oddiy, ammo amalda o‘qituvchilar, ko‘pincha, strategiyalarni o‘z xo-

hishlariga ko‘ra, “ulashadilar” va darsliklarda strategiyalar ko‘rsatilgan bo‘lsa ham, ular talablarga aniq tushuntirilmaydi. Natijada talabalar bu strategiyalarni o‘zlari mustaqil ravishda qo‘llashi mumkin bo‘lgan vositalar sifatida anglab yetmaydilar. O‘qituvchining eslatmasisiz, talabalar, ko‘pincha, strategiyalarni qo‘llashni unutadilar yoki boshqa vaziyatga o‘tkaza olmaydilar. Bu esa chuqurroq muammoga, ya’ni, o‘qitish va o‘rganish rollari o‘rtasidagi chalkashlikka ishora qiladi. Agar strategiyalar o‘qitish usullari ichiga yashiringan bo‘lsa, talabalar ularni o‘qituvchining vositasi deb hisoblaydilar, o‘zlariniki deb emas [5;6–7-b.]. “O‘rganish strategiyalarini o‘rgatishning turli modellari samarasiz bo‘lgan o‘rganish jarayonini muvaffaqiyatga olib boradigan strategiyalar bilan almashtirish uchun mo‘ljallangan. Turli xil modellarning markazida oqitishning samarali tamoyillaridan foydalanish yotadi va ular quyidagilar:

Talabalarning ishtirokini talab qiling.

Oldindan zarur ko‘nikmalarni aniqlang va o‘rgating.

Strategiyani o‘rganing.

Talabalarning harakatlarini tan oling va mukofotlang.

Uddaburonlikni talab qiling.

Ko‘rsatmalarni integratsiyalang.

To‘g‘ridan to‘g‘ri tushuntirish bering.

Umumlashtirishni rag‘batlashtiring.

Moslashish va rivojlanishni rag‘batlantiring” degan fikrlarni T.Lombardining ishida uchratishimiz mumkin [3;9-b.] .

Demak, talabalarning ishtiroki. Talabalar o‘rgatish jarayonida faol ishtirok etishlari kerak, chunki strategiyalarni o‘rganishda bu muhim omil hisoblanadi. Maqsad talabalarga strategiyalarning qanday yordam berishini tushuntirishdir. Ko‘nikmalarni aniqlash va o‘rgatish. O‘qitishdan oldin zarur ko‘nikmalarni aniqlash va o‘rgatish zarur. Bu strategiyalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun muhimdir. Strategiyani o‘rganish. O‘qituvchi strategiyani o‘zlashtirishi, uni aniq va qulay tarzda talabalarga taqdim etishi lozim. Harakatlarni tan olish va mukofotlash. Talabalar muvaffaqiyatlarini tan olish, hatto kichik yutuqlarini ham maqtash orqali ularni rag‘batlantirishi kerak. Uddaburonlikni talab qilish. Talabalar strategiyalarni avtomatik tarzda qo‘llash darajasiga yetkazilishi lozim. O‘qituvchi ishlash darajasini belgilab, talabalarni bu darajaga erishishiga undashi lozim. Ko‘rsatmalarni integratsiyalash: strategiyani o‘rganishda bir nechta bosqichlarni amalga oshirish kerak, ular ha doim ketma-ket bo‘lmasligi mumkin. Bundan maqsad strategiyalarni turli vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatish. To‘g‘ridan to‘g‘ri tushuntirish. Talabalar strategiyaning har bir bosqichini o‘rganishi uchun o‘qituvchilar kognitiv va metakognitiv jarayonlardan foydalanishlari lozim. Umumlashtirishni rag‘batlantirish. Strategiyalarni turli vaziyatlarda qo‘llashni rag‘batlantirish, talabalarni bu jarayonda o‘rgatish muhimdir. Moslashish va rivojlanishni rag‘batlantirish. O‘rgangan strategiyalarni vaqt o‘tishi bilan moslashtirib, talabalarni o‘z ta’lim jarayonini rivojlantirishga undash kerak. Shu o‘rinda, ushbu tamoyillardan asosiy maqsad talabalarga ta’lim strategiyalarini o‘zlashtirish, ularni amaliyotda qo‘llash, keyinchalik, o‘zlarining ta’lim jarayonlarini mustaqil ravishda rivojlantirishdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, TO‘S zamonaviy til ta’limining ajralmas qismi bo‘lib, talabalarning samarali o‘rganish faoliyatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat til ko‘nikmalarini takomillashtirishga, balki talabaning o‘z-o‘zini boshqarish, mustaqil fikrlash va ta’lim jarayonini ongli tashkil etish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metakognitiv yondashuv asosida strategiyalarni tizimli ravishda o‘rgatish esa talabalarning bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois zamonaviy ta’lim tizimida strategiyalarni o‘qitish alohida metodik yo‘nalish sifatida qaralishi va o‘quv jarayoniga ongli ravishda integratsiya qilinish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Cohen A.D. Strategies in learning and using a second language (2nd ed.). Routledge. DOI: 10.4324/978 1315833200. 2014, 387 p.; p. 169.

(2). Grenfell M.J. and Harris V. Language Learner Strategies: Contexts, Issues and Applications in Second Language Learning and Teaching, Bloomsbury Publishing Plc, 2017, 273 p.; p.1.

(3). Lombardi T.P. Learning strategies for Problem Learners, Phi Delta Kappa Educational Foundation Bloomington, Indiana, 1992, 48 p.; p. 9.

(4). Macaro E. Learning strategies in foreign and second language classrooms, London, Continuum, 2001. 291 p.

(5). Mariani L. Learning strategies, teaching strategies and new curricular demands: a critical view, https://www.researchgate.net/publication/263854179, 2015, 13 p.; pp. 6–7.

(6). Robbins J., and Chamot A.U. The learning strategies Handbook, Addison Wesley Longman, Inc. 1999, 260, p. 11–12.

(7). Wenden A., Rubin J. Learner strategies in language learning, Prentice-Hall International English Language Teaching, 1987, 181 p.; p. 19–22.

(8). Zybert J. Language Learning strategies: some pedagogical implications, Scripta Neophilologca Posnaniensia, Tom III, strony: 151–159, Wydzial Neofilologii, UAM Pozman, 2001.

Haytanova Yulduzxon Zafarjon qizi (Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat universiteti tayanch doktoranti, Nukus, Qoraqalpog‘iston, O‘zbekiston; e-mail: yulduzxonhaytanova@gmail.com)

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING LINGVOPRAGMATIK MODELI: TANQIDIY-PRAGMATIK DISKURS PORTFELI (TPDP)

Annotatsiya. *Taqdim etilayotgan maqolada kelgusida ingliz tili fanidan dars beruvchi o‘qituvchilarning ayni payta tahsil olayotgan bakalavr talabalarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini lingvopragmatik yondashuvlar vositasida rivojlantirishga yo‘naltirilgan Tanqidiy-Pragmatik Diskurs Portfeli (TPDP) modeli haqida so‘z boradi. Ushbu ilmiy tadqiqotning yangiligi aynan mavjud adabiyotlarda tanqidiy fikrlash bilan lingvopragmatik qarashlar ingliz tilida ta’lim olayotgan talabalar uchun ularning tanqidiy faoliyatini shakllantirish uchun amaliy taraflama birlashtirilgan holda ko‘rsatilmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi nazariy taraflama asoslangan, TPDP modelini yaratish va uni amaliyotga joriy etishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati–TPDP modeli oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qitish metodikasi kurslarida qo‘llanilishi mumkinligidadir.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, lingvopragmatika, TPDP modeli, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari, diskurs tahlili, pragmatik intensiya, baholash rubrikasi.*

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: ПОРТФЕЛЬ КРИТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА (ТПДП)

Аннотация. *В представленной статье речь идёт о модели Портфеля критико-прагматического дискурса (ТПДП), направленной на развитие навыков критического мышления у будущих преподавателей английского языка – студентов бакалавриата, обучающихся в настоящее время, – посредством лингвопрагматических подходов. Новизна данного научного исследования заключается в том, что в существующей литературе критическое мышление и лингвопрагматические взгляды не были представлены в практически объединённом виде для формирования критической деятельности студентов, изучающих английский язык. Целью данного исследования является создание, на теоретически обоснованной основе, модели ТПДП и внедрение её в практику. Научно-практическая значимость исследования заключается в том, что модель ТПДП может применяться на курсах методики преподавания английского языка в высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *критическое мышление, лингвопрагматика, модель ТПДП, будущие учителя английского языка, дискурс-анализ, прагматическая интенция, рубрика оценивания.*

A LINGUOPRAGMATIC MODEL FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRE-SERVICE ENGLISH TEACHERS: THE CRITICAL-PRAGMATIC DISCOURSE PORTFOLIO (TPDP)

Annotation. *This article addresses the Critical-Pragmatic Discourse Portfolio (TPDP) model, aimed at developing the critical thinking skills of prospective English language teachers – undergraduate students currently pursuing their studies – through linguapragmatic approaches. The novelty of this research lies in the fact that existing literature has not presented critical thinking and linguapragmatic perspectives in a practically integrated form for shaping the critical activity of students studying English. The purpose of this study is to develop, on a theoretically grounded basis, the TPDP model and to introduce it into practice. The scientific and practical significance of the research lies in the fact that the TPDP model can be applied in methodology courses for teaching English at higher education institutions.*

Keywords: *critical thinking, linguapragmatics, TPDP model, pre-service English teachers, discourse analysis, pragmatic intention, assessment rubric.*

Kirish. Bugungi kunda pedagog kadrlarni har taraflama yetuk qilib yetishtirish oliy ta’lim tizimining asosiy muammolaridan biri. Jahon ta’lim standartlaridan andoza olgan holda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini faqatgina til kompetensiyasini rivojlantirishga urg‘u berish emas, balki tanqidiy va kreativ fikrlashini ham takommillashtirish ustuvor vazifalarga aylanmoqda. Oliy ta’lim o‘qituvchilari ingliz tilida tahsil

olayotgan talabalarga tilning faqat grammatik yoki to‘rtta ko‘nikmaga asoslangan holda o‘rgatishi bu zamonaviy ta’lim tizimida yetarli emas. Shu sababli o‘qituvchi matnni yuzaki emas, chuqur, kontekstga bog‘liq holda tahlil qila olishi, talabalarda ham shu ko‘nikmani shakllantira olishi lozim. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy metodika, ko‘pincha, grammatik-leksik kompetensiyaga urg‘u berib, matn-ning pragmatik va tanqidiy taraflama tahlil qilinishiga yetarli e’tibor qaratilmaydi.

Adabiyotlar tahlili. TPDP modelining nazariy poydevorini bir necha yo‘nalishdagi tadqiqotlar tashkil etadi.

Birinchidan, Facione tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlashning olti komponentli taksonomiyasi (talqin qilish, tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish) modelning “Maqsadli blok”ni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qildi. Facione konsepsiyasining afzalligi shundaki, u tanqidiy fikrlashni mavhum tushuncha emas, balki baholanishi mumkin bo‘lgan aniq ko‘nikmalar majmuasi sifatida taqdim etadi [1].

Ikkinchidan, Fairclough tomonidan asoslangan Tanqidiy Diskurs Tahlili (CDA) nazariyasi matnni ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘liq holda talqin qilish zaruratini asoslaydi. Ushbu nazariya TPDP modelining “Mazmun-metodik blok”iga nazariy asos bo‘lib, o‘quv matnlarini tanlash va ularni pragmatik nuqtai nazardan tashkil etish mezonlarini belgilashda qo‘llanildi [2].

Uchinchidan, Hymes tomonidan taklif etilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasi tilni faqat grammatik tizim emas, balki ijtimoiy kontekstda amalga oshiriladigan kommunikativ vosita sifatida ko‘rishni taqozo etadi. Ushbu yondashuv TPDP modelining “Texnologik-protsessual blok”ida vazifalar tizimini loyihalashtirishda, xususan, o‘quvchilarning nutqiy vaziyatlarni to‘g‘ri tushunish va unga mos reaksiya berish ko‘nikmalarini rivojlantirishda asos bo‘ldi [3].

To‘rtinchidan, Austinning nutq akti nazariyasi (speech act theory) so‘zlovchining aytilgan gap orqali amalga oshirmoqchi bo‘lgan kommunikativ niyatini (illokutiv kuchni) aniqlash zarurligini asoslaydi. Ushbu nazariya TPDP modelidagi vazifa tizimining uchinchi bosqichi – pragmatik intensiyani aniqlash bosqichi uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi [4].

Beshinchidan, Ashurova tomonidan ishlab chiqilgan olti turdagi lingvopragmatik intensiya tipologiyasi (e’tiborni jalb qilish, qiziqtirish, hissiy ta’sir ko‘rsatish, bilim tuzilmalarini faollashtirish, ijodkorlikni rag‘batlantirish, konseptual dun-yoqarashni ifodalash) TPDP modelining “Mazmun-metodik” va “Texnologik-protsessual” bloklarida badiiy matnlarni tahlil qilish mezonlari sifatida bevosita qo‘llanildi. Aynan shu tipologiya modelning amaliy-tatbiqiy qismini – talabalar tomonidan matnda pragmatik intensiyalarni aniqlash vazifalarini – shakllantirishning markaziy nazariy tayanchi hisoblanadi [5].

Yuqorida keltirilgan nazariyalarning har biri alohida holda o‘z sohasida keng qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ularni bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash uchun yagona amaliy model – TPDP sifatida integratsiya qilish adabiyotlar tahlili natijasida aniqlangan tadqiqot bo‘shlig‘ini (research gap) tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tajriba-sinov (pedagogik eksperiment) metodiga asoslangan bo‘lib, uch bosqichda – aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida olib boriladi. Tadqiqotda OTM 3-bosqichda tahsil olayotgan ingliz tili filologiyasi va ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishidagi talabalar tajriba sinov ishlariga jalb etiladi. Tajriba ikkita usulda tanlangan talabalarning teng yarmi yangi TPDP modeli asosida, qolgan yarmi esa an’anaviy metod orqali badiiy matnni tahlil qiladilar.TPDP modelini amaliyotga tatbiq etishda badiiy matnlar sifatida Keyt Shopenning “A Pair of Silk Stockings” (51 birlikdan iborat lug‘at ro‘yxati bilan) va Jamayka Kinkeydning “Girl” (35 birlikdan iborat lug‘at ro‘yxati bilan) hikoyalaridan foydalanildi. Har bir matn ustida ishlash to‘rt bosqichli vazifa tizimi asosida tashkil etildi: birinchi bosqichda talabalar matnni ko‘zdan kechirish (skimming) va tarash (scanning) texnikalari yordamida jadval to‘ldiradilar; ikkinchi bosqichda matndagi diskurs markerlarini aniqlaydilar; uchinchi bosqichda Ashurova tipologiyasiga asoslanib matndagi pragmatik intensiya turini aniqlaydilar; to‘rtinchi bosqichda sakkizta tanqidiy fikrlash savoliga mustaqil javob beradilar. Natijalarni baholash uchun to‘rt mezonli, har biri 25 balldan iborat (jami 100 ball) reyting rubrikasi ishlab chiqildi, unga ko‘ra respondentlar uch darajaga – qoniqarli (56–70 ball), o‘rta (71–85 ball) va yuqori (86–100 ball) – ajratildi.

Tahlil va natijalar. Tanqidiy-Pragmatik Diskurs Portfeli (TPDP) modeli to‘rtta o‘zaro bog‘liq blokdan iborat bo‘lib, ularning har biri aniq nazariy asos va tarkibiy komponentlarga ega. Modelning umumiy tuzilishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

TPDP modelining tarkibiy tuzilishi

Blok	Maqsadi / mohiyati	Tarkibiy komponentlar	Nazariy asos
1. Maqsadli blok	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisida tanqidiy fikrlash va lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish maqsad va vazifalarini belgilash	Ta’lim maqsadi; kutilayotgan natija (tanqidiy fikrlash darajasi); o‘quv vazifalarining maqsadli yo‘nalganligi	Facione CT taksonomiyasi
2.Mazmun-metodik blok	O‘quv matni va pragmatik intensiyalar tizimini tanlash, matn mazmunini metodik jihatdan tashkil etish	Badiiy matnlar (Chopin, Kincaid); 6 ta pragmatik intensiya turi; leksik-diskursiv birliklar ro‘yxati	Ashurovaning 6 turli lingvopragmatik tipologiyasi; Fairclough CDA
3. Texnologik-protsessual blok	Vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish texnologiyasini belgilash	4 bosqichli vazifa tizimi: 1) skimming / scanning jadvali; 2) diskurs markerlarini aniqlash; 3) pragmatik intensiyani aniqlash; 4) 8 ta tanqidiy fikrlash savoli	Hymes kommunikativ kompetensiya nazariyasi; Austin nutq akti nazariyasi
4.Natija-baholash bloki	Erishilgan natijalarni uch darajali rubrika asosida baholash	4 ta mezon (har biri 25 ball) = 100 ball; qoniqarli (56–70) / o‘rta (71–85) / yuqori (86–100) darajalari	Mezonga asoslangan baholash (criterion-referenced assessment)

Modelning “Natija-baholash bloki” uch darajali mezonga asoslangan rubrika orqali amalga oshiriladi. Har bir daraja uchun mezon tavsifi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

TPDP baholash rubrikasi (100 ballik tizim, 4 mezon × 25 ball)

Daraja	Ball oralig‘i	Tavsif
Qoniqarli	56–70	Talaba matnni yuzaki tahlil qiladi, pragmatik intensiyalarni qisman aniqlaydi, tanqidiy fikrlash savollariga ibtidoiy javob beradi
O‘rta	71–85	Talaba diskurs markerlarini to‘g‘ri aniqlaydi, pragmatik intensiyalarning ko‘pchiligini asoslay oladi, tanqidiy fikrlash savollariga mustaqil, ammo cheklangan chuqurlikda javob beradi
Yuqori	86–100	Talaba matnni to‘liq lingvopragmatik tahlil qiladi, barcha 6 turdagi pragmatik intensiyani aniq asoslaydi, tanqidiy fikrlash savollariga chuqur, argumentlashtirilgan javob beradi

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari Tanqidiy-Pragmatik Diskurs Portfeli (TPDP) modelining bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash va lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Modelning to‘rt blokli tuzilishi – maqsadli, mazmun-metodik, texnologik-protsessual va natija-baholash bloklari – nazariy jihatdan asoslangan va amaliyotda qo‘llash uchun qulay tizim yaratadi.

Kelgusi tadqiqotlar uchun quyidagilar tavsiya etiladi: TPDP modelini boshqa til va janrlarga (masalan, ilmiy-publitsistik matnlar) moslashtirish; modelning raqamli ta’lim platformalarida (LMS) avtomatlashtirilgan versiyasini ishlab chiqish; modelni magistratura bosqichida ham sinovdan o‘tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Facione P.A. (1990). Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report). California Academic Press.

(2). Fairclough N. (1995). Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. Longman.

(3). Hymes D. (1972). On Communicative Competence. In J.B.Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics: Selected Readings. Penguin.

(4). Austin J.L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.

(5). Ashurova D.U. (2019). Cognitive Modeling of Fictional Text. Springer.
(6). Chopin K. (1897). A Pair of Silk Stockings. Vogue.
(7). Kincaid J. (1978). Girl. The New Yorker.
(8). Levinson S.C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.

Bakirov Feruz Sayfulla o‘g‘li (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti doktoranti; feruzbakirov@gmail.com; https://orcid.org/0009-0007-6640-2845)

BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONANING SHAXSIY NAMUNASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida ota-onaning shaxsiy namunasi yetakchi tarbiyaviy omil sifatida tahlil qilinadi. Oiladagi kundalik ekologik xulq-atvor, resurslardan oqilona foydalanish, tabiatga ehtiyotkor munosabat va chiqindilar bilan muomala qilish kabi amaliy odatlarning bola ongiga ta’siri yoritiladi. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, ekologik tizimlar yondashuvi hamda barqaror rivojlanish uchun ta’lim tamoyillari asosida ota-onaning so‘z va amali o‘rtasidagi uyg‘unlikning tarbiyaviy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, oilada ekologik mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy usullar va ota-ona–bola hamkorligining samarali shakllari taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, oila, ota-ona, shaxsiy namuna, ekologik xulq-atvor, ekologik mas’uliyat, barqaror rivojlanish.*

ЛИЧНЫЙ ПРИМЕР РОДИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ

Аннотация. *В статье личный пример родителей рассматривается как один из ведущих воспитательных факторов формирования экологической культуры у детей. Анализируется влияние повседневного поведения в семье – бережного использования воды и энергии, ответственного обращения с отходами, заботы о растениях и окружающей среде – на становление экологических привычек ребёнка. На основе идей социального научения, экологического подхода к развитию личности и принципов образования в интересах устойчивого развития раскрывается значение согласованности между словами и поступками родителей. Предлагаются практические формы семейной деятельности, направленные на развитие экологической ответственности детей.*

Ключевые слова: *экологическая культура, экологическое воспитание, семья, родители, личный пример, экологическое поведение, ответственность, устойчивое развитие.*

THE PERSONAL EXAMPLE OF PARENTS IN FORMING ECOLOGICAL CULTURE IN CHILDREN

Annotation. *This article examines parental personal example as a key educational factor in the formation of ecological culture in children. It discusses how everyday family practices–careful use of water and energy, responsible waste handling, respect for plants and the surrounding environment–shape children’s ecological habits. Drawing on social learning theory, ecological approaches to human development, and education for sustainable development, the article highlights the importance of consistency between what parents say and what they actually do. Practical forms of parent–child cooperation aimed at strengthening ecological responsibility are also proposed.*

Keywords: *ecological culture, environmental education, family, parents, personal example, ecological behavior, responsibility, sustainable development.*

Kirish. XXI asrda ekologik muammolar faqat tabiatshunoslik yoki atrof-muhitni muhofaza qilish doirasidagi masala bo‘lib qolmay, insonning kundalik turmushi, qadriyatlari va xulq-atvori bilan bevosita bog‘liq ijtimoiy-pedagogik muammoga aylandi. Suv va energiyadan foydalanish, maishiy chiqindilar miqdori, iste’mol madaniyati, yashil hududlarga munosabat singari ko‘plab ekologik natijalar odamlarning har kuni takrorlanadigan qarorlaridan tarkib topadi. Shu sababli ekologik ta’limning samarasi bolaga nechta ekologik tushuncha o‘rgatilgani bilangina emas, balki ushbu bilimlar kundalik odatlarga qay darajada aylangani bilan ham belgilanadi [1].

Bolalik davrida xulq-atvor me’yorlari, munosabat shakllari va qadriyatlar ko‘p jihatdan oila muhitida o‘zlashtiriladi. Bola kattalar aytgan fikrlarni tinglash bilan birga, ularning real hayotdagi harakatlarini muntazam kuzatadi, takrorlaydi va asta-sekin o‘zining odatiy xatti-harakatiga aylantiradi. Shu ma’noda ota-onaning tabiatga munosabati ekologik tarbiyaning yashirin, ammo kuchli dasturi vazifasini bajaradi. Uyda suvni keraksiz oqizmaslik, chiroqni bekorga yoqib qo‘ymaslik, chiqindini tartibli yig‘ish, oziq-ovqatni isrof

qilmaslik yoki daraxt va gullarni parvarishlash kabi oddiy odatlar bola uchun ekologik mas'uliyatning amaliy mazmunini ochib beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ota-onaning shaxsiy namunasining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish, uning psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini yoritish hamda oilada qo'llash mumkin bo'lgan samarali amaliy yo'llarni asoslashdan iborat.

2. Keys-stadi texnologiyasi. Keys-stadi ekopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim texnologiyalardan biridir. Ekologik mazmundagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida talabalar real hayotiy holatlarni o‘rganadi, muammoning sabab va oqibatlarini aniqlaydi hamda ekologik jihatdan maqbul qarorlarni ishlab chiqadi. Ushbu texnologiya tanqidiy va ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, kasbiy vaziyatlarga moslashish hamda o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Loyiha texnologiyasi. Loyiha faoliyati ekologik bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Talabalar ekologik muammolarni aniqlash, ularni o‘rganish, muammoni hal qilishga qaratilgan loyiha ishlab chiqish, uni amalga oshirish va natijalarni taqdim etish bosqichlarida faol ishtirok etadi.

Ekologik loyihalar talabalarning tashabbuskorligi, ijodkorligi, hamkorlikda ishlash qobiliyati va ekologik mas’uliyatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

4. STEAM texnologiyasidan foydalanish. STEAM elementlaridan foydalanish ekologik mazmunni tabiiy-ilmiy, texnologik, muhandislik, san’at va matematik bilimlar bilan integratsiyalash imkonini beradi. Natijada ekologik muammolarni kompleks ko‘rib chiqish va amaliy yechimlarni ishlab chiqish uchun sharoit yaratiladi.

5. Raqamli pedagogik texnologiyalar. Takomillashtirilgan metodik modelda multimedia taqdimotlari, elektron ta’lim resurslari, virtual ekologik laboratoriyalar, interaktiv testlar va raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish muhim yo‘nalish sifatida belgilanadi.

Raqamli vositalar ekologik jarayonlarni vizual namoyish etish, virtual tajribalarni tashkil etish, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash va talabalarning individual faoliyatini tashkil etish imkonini beradi.

6. Mustaqil va ijtimoiy-ekologik faoliyat. Metodik modelda mustaqil va ijtimoiy-ekologik faoliyatga ham alohida e’tibor qaratiladi. Bunda ekologik mavzularda esse yozish, tezis va maqolalar tayyorlash, annotatsiya yozish, ekologik loyihalar ishlab chiqish, ilmiy manbalarni tahlil qilish, elektron portfoliolar yaratish, refleksiv topshiriqlar bajarish, “Yashil makon” loyihalarida ishtirok etish, ekologik aksiyalar, volontyorlik, ekoforum va ekoklublar, mahalla va maktab hamkorligi hamda tabiatni muhofaza qilish tadbirlarida qatnashish kabi faoliyat turlaridan foydalanish mumkin. Natijada nazariy bilim, amaliy faoliyat, ijodiy izlanish va refleksiya jarayonlarini birlashtiruvchi yaxlit metodik tizim shakllanadi.

Ekopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalarining umumlashtirilgan tasnifi

№	Texnologik yo‘nalish	Asosiy metodlar	Shakllantiriladigan kompetensiyalar
1	Nazariy-ta’limiy	Ma’ruza, tushuntirish, hikoya, namoyish	Ekologik bilim
2	Interaktiv	Aqliy hujum, klaster, debat, munozara	Kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar
3	Muammoli	Muammoli ta’lim, ekologik vaziyatlar tahlili	Tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish
4	Keys-stadi	Ekologik keyslar	Amaliy va kasbiy kompetensiyalar
5	Loyihaviy	Ekologik loyihalar	Tashabbuskorlik va amaliy faoliyat
6	STEAM	Integrativ topshiriqlar	Integrativ va ijodiy kompetensiyalar
7	Tadqiqotchilik	Kuzatish, monitoring, kichik tadqiqot	Tadqiqotchilik kompetensiyasi
8	Raqamli	Multimedia, elektron resurslar, virtual laboratoriya	Raqamli va axborot kompetensiyasi
9	Refleksiv	Portfolio, esse, refleksiv topshiriqlar	Refleksiv kompetensiya
10	Ijtimoiy-ekologik	Ekoklub, volontyorlik, ekologik aksiyalar	Ekologik mas’uliyat va fuqarolik faolligi

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish faqat ekologik bilimlarni berish bilan cheklanmasligi kerak. Ekologik bilimlarning amaliy faoliyat, qadriyat, kommunikativ hamkorlik, mustaqil izlanish va refleksiya bilan bog‘lanishi metodikaning yaxlitligini ta’minlaydi.

An’anaviy reproduktiv ta’limda talabaning tayyor ma’lumotlarni o‘zlashtirishiga ustuvorlik berilsa, takomillashtirilgan modelda talabaning faol subyekt sifatidagi mavqei kuchayadi. Bu esa ekologik muammolarni mustaqil tahlil qilish, turli qarashlarni solishtirish, ekologik jihatdan maqbul qarorlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo‘llash uchun imkoniyat yaratadi.

Mazkur metodik modelning muhim jihatlaridan biri uning integrativ xarakterga ega ekanligidir. Ekologik mazmun pedagogika, psixologiya, tabiiy-ilmiy bilimlar va raqamli texnologiyalar bilan o‘zaro bog‘lanadi. Shu orqali ekologik ta’lim alohida mavzu sifatida emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatini tashkil etuvchi tarkibiy komponent sifatida qaraladi.

Shuningdek, metodikada mustaqil va ilmiy-ijodiy faoliyatning mavjudligi talabalarning tadqiqotchilik, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Esse, tezis, maqola, loyiha va ilmiy muhokamalardagi ishtirok orqali talaba ekologik masalalarga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantiradi va uni kasbiy faoliyat bilan bog‘lashni o‘rganadi.

Shu nuqtayi nazardan, ekopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasining samaradorligi metodlarning alohida qo‘llanilishidan ko‘ra, ularning o‘zaro integratsiyasiga bog‘liq. Nazariy bilimlar interaktiv metodlar orqali faollashtirilishi, amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlanishi, loyiha va tadqiqot faoliyati orqali rivojlantirilishi hamda refleksiya orqali baholanishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida ekopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi mazmunini takomillashtirishda kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, interaktiv va integrativ yondashuvlardan foydalanish muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot materiallarini tizimlashtirish asosida ekopedagogik ta’lim metodlari uch guruhga: nazariy-ekologik bilimlarni shakllantiruvchi, amaliy-ekopedagogik faoliyatni rivojlantiruvchi hamda ijodiy, kommunikativ va refleksiv faoliyatni rivojlantiruvchi metodlarga ajratildi.

Muammoli ta’lim, keys-stadi, loyiha, aqliy hujum, klaster, munozara, SWOT tahlil, STEAM, kichik guruhlarda ishlash va boshqa interaktiv metodlarning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi talabalarning ekologik bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga imkon beradi.

Raqamli pedagogik vositalar – multimedia, elektron ta’lim resurslari, virtual ekologik laboratoriyalar, interaktiv testlar va raqamli platformalar ekopedagogik ta’limning zamonaviy axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman, takomillashtirilgan metodik modelda bilim → amaliy faoliyat → ijodiy izlanish → hamkorlik → refleksiya uzviyligining ta’minlanishi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida ekologik bilim, qadriyat, amaliy ko‘nikma, ekologik madaniyat va kasbiy mas’uliyatni kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

– boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi fanlar mazmuniga ekologik va ekopedagogik mazmundagi amaliy topshiriqlarni tizimli kiritish;

–ekologik keyslar, loyihalar va muammoli vaziyatlar bankini yaratish;

–STEAM va raqamli texnologiyalar asosida ekologik mazmundagi integrativ topshiriqlarni ishlab chiqish;

–talabalarning ekologik faoliyatini elektron portfolio va refleksiv topshiriqlar asosida baholash;

– oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ekoklub, ekologik loyiha va volontyorlik faoliyatlarini rivojlantirish;

–bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik qo‘llanmalar va elektron ta’lim resurslarini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-farmoni.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-farmoni. Toshkent, 2019.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-qarori. 2019-yil 31-dekabr.

(4). O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-637. Toshkent, 2020.

(5). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5024-farmoni. Toshkent, 2017.

(6). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-farmoni. Toshkent, 2025.

(7). Nishonboyeva M.G. Biologiya darslarida ekologik tarbiya. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 104-bet.

(8). Ayubova I.X. Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish tizimlari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent, 2019, 149-bet.

Tillayev Azamat Ibragimovich (O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD; tillayev1@mail.ru)

KRIPTOGRAFIYA FANINING “KRIPTOGRAFIYANING MATEMATIK ASOSLARI” BO‘LIMI UCHUN MULTIMEDIALI DASTURIY TA’MINOT ISHLAB CHIQISH VA UNDAN FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. *Maqolada kriptografiya fanining “Kriptografiyaning matematik asoslari” bo‘limi uchun multimediali dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va undan o‘quv jarayonida foydalanishni tashkil etish masalalari yoritilgan. Dasturiy ta’minot ADDIE modeli asosida loyihalangan bo‘lib, nazariy, animat-*

sion, virtual laboratoriya, nazorat va yordamchi modullardan iborat. Multimedia dizaynining kognitiv tamoyillari, modul arifmetikasi, Evklid algoritmi va modul bo'yicha darajaga ko'tarish mavzularini visuallashtirish yondashuvlari, dasturdan auditoriya, laboratoriya, mustaqil va masofaviy ta'limda foydalanish shakllari hamda samaradorlikni baholash tajribasining dizayni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *kriptografiya, sonlar nazariyasi, modul arifmetikasi, Evklid algoritmi, Eyler funksiyasi, multimediali dasturiy ta'minot, animatsiya, virtual laboratoriya, ADDIE.*

Тиллаев Азамат Ибрагимович (доцент Национального университета Узбекистана, PhD; tillayev1@mail.ru)

РАЗРАБОТКА МУЛЬТИМЕДИЙНОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДЛЯ РАЗДЕЛА «МАТЕМАТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КРИПТОГРАФИИ» ДИСЦИПЛИНЫ «КРИПТОГРАФИЯ» И ОРГАНИЗАЦИЯ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье рассмотрены вопросы разработки мультимедийного программного обеспечения для раздела «Математические основы криптографии» дисциплины «Криптография» и организации его использования в учебном процессе. Программное обеспечение спроектировано на основе модели ADDIE и включает теоретический, анимационный, лабораторный, контрольный и справочный модули. Обоснованы принципы мультимедийного дизайна, подходы к визуализации модулярной арифметики, алгоритма Евклида и возведения в степень по модулю, формы использования программы и дизайн педагогического эксперимента.*

Ключевые слова: *криптография, теория чисел, модулярная арифметика, алгоритм Евклида, мультимедийное программное обеспечение, виртуальная лаборатория, ADDIE.*

Tillayev Azamat Ibragimovich (Associate Professor of the National University of Uzbekistan, PhD; tillayev1@mail.ru)

DEVELOPMENT OF MULTIMEDIA SOFTWARE FOR THE "MATHEMATICAL FOUNDATIONS OF CRYPTOGRAPHY" SECTION OF THE "CRYPTOGRAPHY" COURSE AND ORGANIZATION OF ITS USE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. *The article addresses the development of multimedia software for the "Mathematical Foundations of Cryptography" section of the Cryptography course and the organization of its use in teaching. The software is designed according to the ADDIE model and consists of theory, animation, virtual laboratory, assessment and reference modules. Multimedia design principles, approaches to visualizing modular arithmetic, the Euclidean algorithm and modular exponentiation, forms of classroom and distance use, and the design of a pedagogical experiment are substantiated.*

Keywords: *cryptography, number theory, modular arithmetic, Euclidean algorithm, multimedia software, virtual laboratory, ADDIE.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasi o'quv jarayoniga raqamli ta'lim resurslarini joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [1,2]. Zamonaviy kriptografik tizimlarning kriptobardoshliligi to'liq matematik asoslarga tayanadi. RSA algoritmi butun sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratish murakkabligiga, Diffi–Xellman kalit almashish protokoli diskret logarifmlash masalasining murakkabligiga asoslangan [5]. O'zbekiston Respublikasining O'z DSt 1092:2009 (elektron raqamli imzo) va O'zDSt 1105:2009 (ma'lumotlarni shifrlash algoritmi) davlat standartlari ham modul arifmetikasi va chekli maydonlar nazariyasini qo'llaydi. Shu sababli "Kriptografiyaning matematik asoslari" bo'limi kriptografiya kursining tayanch qismi hisoblanadi.

Amaliyotda ushbu bo'limni o'qitish bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Birinchidan, sonlar nazariyasi tushunchalari (taqqoslamalar, qoldiqlar halqasi, multiplikativ guruh, chekli maydon) abstrakt xarakterga ega va talabalar ularni kriptografik algoritmlar bilan bog'lashda qiynaladi. Ikkinchidan, kriptografiyada ishlatiladigan sonlar yuzlab xonali bo'lib, ular bilan qo'lda hisoblash imkonsiz, kichik sonlardagi misollar esa algoritmlarning samaradorligi haqida to'g'ri tasavvur bermaydi. Uchinchidan, Evklidning kengaytirilgan algoritmi yoki Xitoy qoldiqlar teoremasi kabi ko'p bosqichli protseduralarni doskada tushuntirishda talabalar oraliq natijalar orasidagi bog'lanishni yo'qotadi. Multimediali dasturiy ta'minot matn, grafika, animatsiya, video va interaktiv hisoblash vositalarini yagona muhitda birlashtirib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi [9].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kriptografiyaning matematik asoslari N.Koblitsning sonlar nazariyasi va kriptografiyaga bag‘ishlangan kursida, A.Menezes va hammualliflarning amaliy kriptografiya bo‘yicha qo‘llanmasida, shuningdek V.Stallings hamda K.Paar va Y.Pelsl darsliklarida tizimli bayon etilgan. Ushbu manbalarda modul arifmetikasi, Evklid algoritmi, Eyler funksiyasi, Ferma va Eyler teoremalari, Xitoy qoldiqlar teoremasi, tublik testlari va chekli maydonlar kriptografik algoritmlarning zaruriy nazariy asosi sifatida qaraladi. Tublikni ehtimoliy tekshirish algoritmlari G.Miller va M.Rabin ishlarida asoslangan [5,6].

Multimediali o‘quv resurslarini loyihalashning nazariy asosini R.Mayerning multimediali o‘rganishning kognitiv nazariyasi tashkil etadi. Unga ko‘ra, inson axborotni ko‘rish va eshitish kanallari orqali alohida qayta ishlaydi, har bir kanalning sig‘imi esa cheklangan. J.Svellerning kognitiv yuklama nazariyasi o‘quv materialining ortiqcha elementlari ishchi xotirani band qilib, o‘rganishni qiyinlashtirishini ko‘rsatadi [3,4].

Elektron o‘quv resurslarini ishlab chiqishda ADDIE modeli (tahlil, loyihalash, ishlab chiqish, joriy etish, baholash) keng qo‘llaniladi. Dasturiy ta’minot sifatini baholash uchun ISO/IEC 25010 xalqaro standartidagi sifat modeli, elektron o‘quv kurslarini LMS platformalariga integratsiya qilish uchun esa SCORM spetsifikatsiyasi asos bo‘lib xizmat qiladi. Kriptografiyani o‘qitishda CrypTool va SageMath kabi vositalar qo‘llaniladi, biroq ular o‘zbek tilidagi o‘quv mazmuni bilan integratsiyalashmagan va o‘quv mashg‘ulotining metodik tuzilmasini hisobga olmaydi. Mazkur holat o‘zbek tilida, bo‘lim dasturiga to‘liq mos, multimedia dizayni tamoyillariga asoslangan dasturiy ta’minot ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi [10,11].

Dasturiy ta’minot ADDIE modeli asosida ishlab chiqildi. Tahlil bosqichida fan dasturi, talabalarning dastlabki tayyorgarligi va tipik xatolari o‘rganildi. Loyihalash bosqichida bo‘lim mazmuni o‘quv modullariga ajratildi va har bir mavzu uchun multimedia elementlari tanlandi. Ishlab chiqish bosqichida dasturiy ta’minot HTML5 va JavaScript texnologiyalari asosida yaratildi. Joriy etish va baholash bosqichlarida dastur o‘quv jarayonida sinovdan o‘tkazildi [7].


Natijalar va muhokama. Bo‘lim mazmuni va multimedia elementlarini tanlash. Bo‘lim mazmuni yetti mavzuga ajratildi. Har bir mavzu uchun uning tabiatiga mos multimedia elementi tanlandi: bosqichli protseduralar animatsiya, sonli qonuniyatlar interaktiv kalkulator va jadvallar, ehtimoliy jarayonlar esa simulatsiya orqali ifodalandi (1-jadval).

1-jadval

Bo‘lim mavzulari va ularga mos multimedia elementlari

Mavzu	Asosiy tushunchalar	Multimedia elementi
Modul arifmetikasi	Taqqoslamalar, qoldiqlar halqasi $\mathbb{Z}_n$	“Soat siferblati” animatsiyasi, modul kalkulatori
EKUB va Evklid algoritmi	Bo‘linish, Bezu munosabati, teskari element	Qadamli animatsiya, jadval generatori
Eyler funksiyasi, Ferma va Eyler teoremalari	$\varphi(n)$, multiplikativ guruh $\mathbb{Z}_n^*$	Guruh jadvali vizualizatsiyasi, tajriba kalkulatori
Xitoy qoldiqlar teoremasi	Taqqoslamalar tizimi	Bosqichli yechuvchi, animatsiya
Modul bo‘yicha darajaga ko‘tarish	Kvadratga oshirish va ko‘paytirish usuli	Bitlar bo‘yicha qadamli animatsiya, grafik
Tublik testlari	Ferma testi, Miller–Rabin testi	Ehtimoliy simulyatsiya, statistika grafigi
Chekli maydonlar	GF(p), GF(2^n), ko‘phadlar arifmetikasi	Qo‘shish va ko‘paytirish jadvallari

2. **Dasturiy ta’minotning tuzilmasi.** Dasturiy ta’minot boshqaruv qobig‘i va unga ulangan oltita moduldan iborat (1-rasm). Boshqaruv qobig‘i navigatsiyani, talabaning o‘quv trayektoriyasini va natijalarini saqlashni ta’minlaydi. Nazariy modul gipermatnli ma’ruzalar, qisqa videofragmentlar, formulalar va isbotlarni o‘z ichiga oladi. Animatsiyalar moduli algoritmlarni bosqichma-bosqich ko‘rsatadi, virtual laboratoriya esa talabaga ixtiyoriy kattalikdagi sonlar bilan mustaqil hisoblash o‘tkazish imkonini beradi.



1-rasm. Multimediali dasturiy ta'minotning tuzilmasi.

Nazorat moduli adaptiv testlar va hisoblash topshiriqlarini avtomatik tekshiradi: hisoblash topshiriqlarida har bir talabaga tasodifiy parametrlar asosida alohida variant generatsiya qilinadi. Yordamchi modul o'zbek, rus va ingliz tillaridagi atamalar glossariysini va ma'lumotnoma jadvallarini o'z ichiga oladi. Dastur brauzerda internet aloqasisiz ishlaydi, SCORM paketi ko'rinishida esa Moodle kabi LMS platformalariga joylashtiriladi. Katta sonlar bilan aniq hisoblash JavaScript tilining ixtiyoriy aniqlikdagi BigInt tipi yordamida amalga oshirilgan [8].

3. Matematik mazmunni vizuallashtirish. Dasturda har bir mavzu formal ta'rif, animatsiyali misol va interaktiv tajriba ketma-ketligida bayon qilinadi. Modul arifmetikasining asosiy tushunchasi – taqqoslama:

$$a \equiv b \pmod{n} \iff n \mid (a - b). \tag{1}$$

Evklid algoritmi $r_{i+1} = r_{i-1} \bmod r_i$ rekurrent munosabati asosida ishlaydi, uning kengaytirilgan varianti esa Bezu munosabatini qanoatlantiruvchi koeffitsiyentlarni topadi:

$$a \cdot s + b \cdot t = EKUB(a, b). \tag{2}$$

Agar EKUB $(a, n) = 1$ bo'lsa, (2) dan a ning n modul bo'yicha teskarisi $a^{-1} \equiv t \pmod{n}$ kelib chiqadi. Dasturda kengaytirilgan Evklid algoritmi jadval ko'rinishida animatsiya qilinadi: har bir qadamda yangi qator paydo bo'ladi va hisoblashda qatnashgan kataklar rang bilan ajratiladi. 2-jadvalda RSA algoritmining o'quv adabiyotlarida keng qo'llaniladigan misoli uchun $e = 17$ ning $\varphi(n) = 3120$ modul bo'yicha teskarisini topish jarayoni keltirilgan.

2-jadval

Kengaytirilgan Evklid algoritmi: $17^{-1} \bmod 3120$ ni hisoblash

i	r_i	q_i	s_i	t_i
0	3120	–	1	0
1	17	183	0	1
2	9	1	1	−183
3	8	1	−1	184
4	1	8	2	−367

Jadvaldan $3120 \cdot 2 + 17 \cdot (-367) = 1$ ekani kelib chiqadi, demak, $17^{-1} \equiv -367 \equiv 2753 \pmod{3120}$. Talaba virtual laboratoriyada $17 \cdot 2753 = 46801 = 15 \cdot 3120 + 1$ tengligini tekshirib, natijaning to'g'riligiga ishonch hosil qiladi.

Eyler funksiyasi va Eyler teoremasi RSA algoritmining to'g'riligini asoslaydi:

$$\varphi(n) = n \cdot \prod_{p \mid n} (1 - 1/p), \quad a^{\varphi(n)} \equiv 1 \pmod{n}, \quad EKUB(a, n) = 1. \tag{3}$$


Xitoy qoldiqlar teoremasi o‘zaro tub modullar bo‘yicha taqqoslamalar tizimining yagona yechimini beradi:

$$x \equiv \Sigma\, a_i \cdot M_i \cdot y_i \ (mod\ M), \quad M = \prod m_i, \quad M_i = M/m_i, \quad y_i \equiv M_i^{-1} \ (mod\ m_i). \tag{4}$$

Modul bo‘yicha darajaga ko‘tarish mavzusida algoritmlar samaradorligini vizual taqqoslash muhim didaktik ahamiyatga ega. Daraja ko‘rsatkichi ikkilik ko‘rinishda $e = \Sigma\, e_i \cdot 2^i$ yozilsa, kvadratga oshirish va ko‘paytirish usulida ko‘paytirishlar soni quyidagiga teng:

$$N(e) = (\lfloor \log_2 e \rfloor) + (w(e) - 1), \tag{5}$$

bu yerda $w(e)$ – e ning ikkilik yozuvidagi birlar soni. Ketma-ket ko‘paytirishda esa $e - 1$ ta ko‘paytirish talab etiladi. 2-rasmda turli daraja ko‘rsatkichlari uchun (5) formula bo‘yicha hisoblangan qiymatlar keltirilgan. Masalan, RSA da keng qo‘llaniladigan $e = 65537$ uchun tez usul 17 ta ko‘paytirishni talab qiladi, ketma-ket usul esa 65536 tani.



2-rasm. Modul bo‘yicha darajaga ko‘tarishda ko‘paytirishlar soni (logarifmik shkala).

4. Multimedia dizayn tamoyillarini amalga oshirish. Dasturiy ta’minot interfeysi va mazmuni R. Mayerning multimediali o‘rganish tamoyillari asosida loyihalandi (3-jadval). Ularning maqsadi – talabaning kognitiv yuklamasini kamaytirib, e’tiborini matematik mohiyatga qaratish.

3-jadval

Multimedia dizayn tamoyillarining dasturda amalga oshirilishi

Tamoyil	Mazmuni	Dasturda amalga oshirilishi
Bo‘laklash	Murakkab materialni talaba boshqaradigan qismlarga ajratish	Animatsiya “Keyingi qadam” tugmasi bilan boshqariladi
Signallash	Muhim elementlarni ajratib ko‘rsatish	Joriy qadamdagi sonlar va formulalar rang bilan belgilanadi
Fazoviy yaqinlik	Matn va tasvirni yonma-yon joylashtirish	Izoh animatsiyaning bevosita yonida chiqadi
Modallik	Tasvirni og‘zaki izoh bilan birga berish	Videofragmentlar ovozli izoh bilan ta’minlangan
Ortiqchasiz bayon	Mavzuga aloqasiz elementlarni olib tashlash	Bezak elementlarisiz minimalistik interfeys

5. Dasturiy ta’minotdan foydalanishni tashkil etish. Dasturiy ta’minotdan o‘quv jarayonining to‘rt shaklida foydalanish ko‘zda tutilgan.

Ma’ruza mashg‘ulotida o‘qituvchi animatsiyalar moduli yordamida algoritmlarni bosqichma-bosqich namoyish etadi va har bir qadamdan oldin talabalarga keyingi natijani bashorat qilish savolini beradi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida talabalar virtual laboratoriyada individual variantlar bo‘yicha hisoblashlarni bajaradi va natijalarni qo‘lda bajarilgan hisoblar bilan solishtiradi. *Mustaqil ta’limda* nazariy modul va adaptiv testlar mavzuni takrorlash hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun ishlatiladi. *Masofaviy ta’limda* dastur SCORM paketi ko‘rinishida LMSga joylashtiriladi, o‘qituvchi esa guruh statistikasi asosida qiyin mavzularni aniqlaydi [9].

Natijalar multimedia dizayni tamoyillariga asoslangan o‘quv resurslarining samaradorligi haqidagi xalqaro tadqiqotlar xulosalariga mos keladi. Dasturning asosiy afzalligi – sonlar nazariyasining abstrakt tushunchalarini kriptografik algoritmlar bilan bevosita bog‘lashidir: talaba Evklid algoritmini alohida mashq

sifatida emas, balki RSA kalitini yaratishning zaruriy qadami sifatida o‘zlashtiradi. Virtual laboratoriyada katta sonlar bilan ishlash imkoniyati esa algoritmlarning hisoblash murakkabligi haqida aniq tasavvur shakllantiradi, 2-rasmda ko‘rsatilgan taqqoslash buning yaqqol misolidir. Shu bilan birga, dasturiy ta’minotdan foydalanishda ayrim cheklovlarni hisobga olish lozim. Animatsiyalarni passiv kuzatish talabaning faol fikrlashini almashtirmasligi kerak, shu sababli har bir animatsiya bashorat savollari va mustaqil hisoblash topshiriqlari bilan birga qo‘llaniladi. Shuningdek, talabalarning qo‘lda hisoblash ko‘nikmalarini saqlab qolish uchun nazorat ishlarining bir qismi dastursiz bajariladi. Tadqiqot ishi AL-9624115223-sonli “Kriptografiya” fani bo‘yicha elektron o‘quv qo‘llanma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarildi.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, “Kriptografiya”ning matematik asoslari” bo‘limini o‘qitishdagi asosiy qiyinchiliklar tushunchalarning abstraktligi, katta sonlar bilan qo‘lda hisoblashning imkonsizligi va ko‘p bosqichli protseduralarni idrok etishning murakkabligi bilan bog‘liq. Ikkinchidan, ADDIE modeli asosida ishlab chiqilgan, nazariy, animatsion, virtual laboratoriya, nazorat va yordamchi modullardan iborat multimediali dasturiy ta’minot bu qiyinchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Uchinchidan, R.Mayerning multimedia dizayn tamoyillarini qo‘llash kognitiv yuklamani kamaytiradi, dasturdan ma’ruza, laboratoriya, mustaqil va masofaviy ta’limda tizimli foydalanish esa bo‘lim bo‘yicha o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Ishlab chiqilgan dasturiy ta’minot va metodikani kriptografiya fanining boshqa bo‘limlarini, shuningdek, diskret matematika va sonlar nazariyasi fanlarini o‘qitishda ham qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-farmoni. www.lex.uz.

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O‘zbekiston–2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-farmoni. www.lex.uz.

[3]. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. New York, Cambridge University Press, 2009, 304 p.

[4]. Branch R.M. Instructional Design: The ADDIE Approach. New York, Springer, 2009, 203 p.

[5]. Stallings W. Cryptography and Network Security: Principles and Practice. 7th ed. Pearson, 2017, 767 p.

[6]. Paar C., Pelzl J. Understanding Cryptography: A Textbook for Students and Practitioners. Berlin, Springer, 2010, 372 p.

[7]. Tillayev A.I. Videoma’ruzalar tayyorlashning zamonaviy dasturiy vositalari yordamida o‘quv video materiallarini ishlab chiqish. “O‘zMU xabarlari”, 2025, 1-son/12, 206–209-betlar.

[8]. Tillayev A.I. Oliy ta’limda videoma’ruzalar tayyorlashning umumiy qoidalari. “Ilm sarchashmalari” UrDU ilmiy jurnali, 2025, 12-son/2, 138–141-betlar.

[9]. Azamat Tillaev. Development of An Electronic Training Manual on Cryptographic Methods Using Modern Multimedia and Artificial Intelligence Technologies. International Journal of Pedagogics, 6(05), USA, 2026, p. 463–466.

[10]. CrypTool: e-learning platform for cryptography and cryptanalysis [elektron resurs]. URL, https:/ /www. cryptool.org.

[11]. SageMath: open-source mathematics software system [Elektron resurs]. URL: https://www.sagemath. org.

Melliyeva Dilfuza O‘ralovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi; Email:d.meliyeva@.dtpi.uz;ORCID ID:0009-0005-7397-5233)

O‘QITUVCHINING O‘Z-O‘ZINI ANGLASHI, O‘QUV FAOLIYATINI REJALASHTIRISHI, MONITORING QILISHI VA BAHOLASH QOBILIYATLARINING KASBIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda metakognitiv kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda uni rivojlantirish imkoniyatlari kompetensiyaviy, fanlararo integrativ va refleksiv-faoliyatli yondashuvlar asosida tahlil qilingan. J.Flavell, G. Schraw va L.S.Vigotskiyning metakognitiv rivojlanish, kognitiv monitoring hamda rivojlantiruvchi ta’limga oid ilmiy qarashlari metodologik asos sifatida belgilangan. Tadqiqot jarayonida metakognitiv didaktik modullar, integrativ o‘quv klasterlari, fanlararo topshiriqlar, muammoli-amaliy vaziyatlar, refleksiv keyslar va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari o‘rganilgan. Olingan natijalar mazkur metodik vositalarning bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z bilish faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish, boshqarish, baholash va refleksiv tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatgan. Tadqi-*

qot asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *metakognitiv kompetensiya, metakognitsiya, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, metakognitiv bilim, kognitiv monitoring, o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya, fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv-faoliyatli yondashuv, integrativ topshiriqlar, metakognitiv didaktik modullar.*

РОЛЬ СПОСОБНОСТЕЙ УЧИТЕЛЯ К САМОПОЗНАНИЮ, ПЛАНИРОВАНИЮ, МОНИТОРИНГУ И ОЦЕНКЕ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ

Аннотация. *В статье освещаются теоретико-методологические и практические основы развития метакогнитивных компетенций будущих учителей начальных классов. Содержание и структурные компоненты метакогнитивной компетенции, а также возможности её развития анализируются на основе компетентностного, междисциплинарно-интегративного и рефлексивно-деятельностного подходов. В качестве методологической основы исследования определены научные взгляды Дж.Флавелла, Г.Шроу и Л.С.Выготского на метакогнитивное развитие, когнитивный мониторинг и развивающее обучение. В ходе исследования изучены возможности использования метакогнитивных дидактических модулей, интегративных учебных кластеров, междисциплинарных заданий, проблемно-практических ситуаций, рефлексивных кейсов и механизмов самооценки. Полученные результаты показали значимость данных методических средств для развития у будущих учителей навыков планирования, мониторинга, регулирования и оценки собственной познавательной деятельности, а также её рефлексивного анализа. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации, направленные на совершенствование методики развития метакогнитивных компетенций будущих учителей начальных классов.*

Ключевые слова: *метакогнитивная компетенция, метакогниция, будущий учитель начальных классов, метакогнитивные знания, когнитивный мониторинг, саморегуляция, рефлексия, междисциплинарная интеграция, компетентностный подход, рефлексивно-деятельностный подход, интегративные задания, метакогнитивные дидактические модули.*

THE ROLE OF TEACHERS' SELF-AWARENESS AND THEIR ABILITIES TO PLAN, MONITOR, AND EVALUATE LEARNING ACTIVITIES IN PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Annotation. *This article examines the theoretical, methodological, and practical foundations for developing the metacognitive competencies of prospective primary school teachers. The content and structural components of metacognitive competence, as well as opportunities for its development, are analyzed through competency-based, interdisciplinary-integrative, and reflective-activity approaches. The theoretical perspectives of J.Flavell, G.Schraw, and L.S.Vygotsky on metacognitive development, cognitive monitoring, and developmental education serve as the methodological foundation of the study. The research explores the potential of metacognitive didactic modules, integrative learning clusters, interdisciplinary tasks, problem-based practical situations, reflective case studies, and self-assessment mechanisms. The findings demonstrate the significance of these methodological tools in developing prospective teachers' abilities to plan, monitor, regulate, evaluate, and reflectively analyze their own cognitive activities. Based on the findings, practical recommendations have been developed to improve the methodology for fostering metacognitive competencies among prospective primary school teachers.*

Keywords: *metacognitive competence, metacognition, prospective primary school teacher, metacognitive knowledge, cognitive monitoring, self-regulation, reflection, interdisciplinary integration, competency-based approach, reflective-activity approach, integrative tasks, metacognitive didactic modules.*

Kirish. Pedagogik amaliyotga zamonaviy kasbiy taraqqiyot yondashuvlarini tatbiq etish xorijiy tadqiqotlarda ham ko‘p yillik nazariy-metodologik izlanishlarni taqozo etgan. Xususan, dastlabki ilmiy konsepsiyalarda mutaxassisning faoliyatini umumiy ta’limiy talablar doirasida tashqaridan yo‘naltirish va an’anaviy metodik ko‘mak ko‘rsatish ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy bosqichda mazkur jarayon bevosita ichki kasbiy moslashuvchanlik hamda pedagogik faoliyatni individual traektoriya asosida optimallashtirish tamoyillariga yo‘naltirilmoqda [1;28-b.].

Quyida xorijiy davlatlarda o‘qituvchining o‘z-o‘zini boshqarish madaniyati, dars jarayonini monitoring qilish va kasbiy hamkorlik mexanizmlarining amaliyotga tatbiq etilish tajribasini tahlil qilamiz.

Xorijiy tajriba. Pedagogik refleksiya, darsni tahliliy monitoring qilish va kasbiy hamkorlik modellari Tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda o'qituvchining kasbiy o'sishini faqat tashqi ma'muriy nazorat yoki an'anaviy tekshiruvlar orqali ta'minlash samarasiz ekanligi o'tgan asrning 70–80-yillaridayoq o'z isbotini topgan [2;124–128-b.]. Natijada ta'lim sifatini oshirishning hal qiluvchi omili sifatida o'qituvchilarning bevosita ish joyida o'z faoliyatini tahlil qilish, darslarni birgalikda rejalashtirish va monitoring mexanizmlarini yo'lga qo'yish tizimiga o'tildi [3;100–105-b.]. Dastlabki yillarda pedagogik tahlil tizimsiz va qat'iy mezonlarsiz shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik, bu jarayon institutsional tus oldi hamda o'qituvchi faoliyatini kompleks qo'llab-quvvatlashning quyidagi ustuvor mexanizmlari amaliyotga joriy etildi:

Jamoaviy pedagogik rejalashtirish va moslashuvchan yondashuv. O'quv jarayonini rejalashtirish faqat yakka tartibdagi majburiyat emas, balki fan o'qituvchilari, metodistlar va amaliyotchi psixologlardan iborat pedagogik guruhning hamkorlikdagi prognostik faoliyatiga aylandi. Dars rejalari o'quvchilarning real o'zlashtirish sur'ati va aqliy imkoniyatlarini oldindan prognoz qilgan holda, muqobil o'qitish ssenariylari asosida tuzila boshlandi.

Sinfdagi dars jarayonini interaktiv monitoring qilish. Dars xonasida o'quvchilar sonining me'yorlashtirilishi hamda fanni o'qitishda ikki nafar pedagogning (yetakchi mutaxassis va koordinator-o'qituvchining) hamkorlikdagi faoliyati yo'lga qo'yilishi har bir o'quvchining kognitiv faolligini bevosita darsning o'zida aniq monitoring qilish imkonini berdi. Bu esa o'qituvchiga dars o'rtasida o'qitish metodikasini zudlik bilan qayta moslashtirish (operativ korreksiya) imkonini yaratdi. Refleksiv tahlil va o'zaro kasbiy ko'mak madaniyati: Maktablarda bir martalik rasmiy attestatsiyalardan ko'ra, o'qituvchilarning darslarini muntazam kuzatish, o'zaro tajriba almashish va tahliliy muhokama qilish doimiy amaliyotga kiritildi [7;5–31-b.]. O'qituvchi o'z darsidagi kamchiliklarni ochiq anglab yetishi, xatolarini kasbiy o'sish imkoniyati sifatida qabul qilishi uchun qulay psixologik muhit shakllantirildi [8;135–146-b.].

Mezonli baholash va uzluksiz malaka oshirish tizimi. Pedagoglarning faoliyatini baholash faqat o'quvchilarning yakuniy baholari orqali emas, balki o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan kasbiy maqsadlariga erishish dinamikasi, portfolio tahlili va amaliyotdagi tadqiqotchilik ko'nikmalari asosida mezonlashtirildi [7;20–23-b.]. Shu bilan birga, maktab rahbarlari va pedagoglar uchun bevosita ish jarayonidan uzilmagan holda har yili qat'iy belgilangan soatlarda maxsus refleksiv treninglar hamda mahorat darslaridan o'tish amaliy normaga aylantirildi [8;223–224-b.]. Tajriba shuni ko'rsatadiki, pedagogning kasbiy rivojlanishi tashqi ma'muriy bosim bilan emas, balki uning o'z faoliyatini anglash darajasi, prognostik rejalashtirish salohiyati, dars jarayonidagi doimiy monitoringi hamda o'z ish natijalarini mezonli baholay olish layoqati bilan bevosita belgilanadi [5;148-b.].

O'qituvchining o'z-o'zini anglashi. Kasbiy «Men» konsepsiyasining konseptual asosi va strukturaviy sathlari. Pedagogik faoliyatni metakognitiv boshqarish tizimida o'qituvchining o'z-o'zini anglashi uning kasbiy «Men» konsepsiyasini shakllantiruvchi va uzluksiz rivojlanish trayektoriyasini belgilovchi tayanch didaktik-psixologik poydevor hisoblanadi. Tadqiqotimiz doirasida o'qituvchining o'z-o'zini anglashi deganda, pedagogning o'z kasbiy-qadriyatli qarashlari, faoliyat motivatsiyasi, metodik kompetensiyalarining real holati (kuchli va zaif jihatlari), hissiy-emotsional barqarorligi hamda ta'lim oluvchilar bilan subyekt-subyekt munosabatlarini xolisona idrok etish, tahlil qilish va baholashga qaratilgan integral intellektual salohiyati tushuniladi [7;155–157-b.].

Xalqaro pedagogik amaliyotda I.A.Zimnyaya va uning hammualliflari ta'kidlaganidek, ta'lim muassasalarida yuqori sifat va samaradorlikka erishish uchun o'quv jarayonini uzluksiz kasbiy o'sish muhiti tamoyillariga muvofiq takomillashtirish zarur [6;34–42-b.]. Ushbu muhit, o'z navbatida, murakkab fanlar kesimida ta'lim berishda pedagogning shaxsiy intellektual hamda amaliy-ijrochilik salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishga qaratilgan yaxlit va moslashuvchan didaktik maydon yaratilishini ifodalaydi, o'qituvchi faoliyatidagi ichki to'siqlarni bartaraf etish hamda dars jarayonini yaxlit loyihalashtirish kabi ilg'or mexanizmlarning joriy etilishi o'z-o'zidan yuzaga kelmasdan, jahon tajribasida uzoq yillar davomida shakllangan xalqaro konseptual va me'yoriy poydevorga tayanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Pedagogning kasbiy rivojlanishi, o'z-o'zini anglashi, refleksiv faoliyati hamda pedagogik faoliyatni metakognitiv boshqarish masalalari zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo doirasidagi ilmiy izlanishlarda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish faqatgina tashqi metodik ta'sir va malaka oshirish bilan cheklanmasligi, balki pedagogning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoji bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi.

Pedagogik refleksiya muammosini o‘rgangan tadqiqotchilar o‘qituvchining o‘z faoliyatini kuzatishi, amalga oshirilgan pedagogik harakatlarning natijalarini tahlil qilishi va keyingi faoliyatini shu tahlil asosida qayta tashkil etishini kasbiy rivojlanishning muhim sharti sifatida ko‘rsatadilar. Shu nuqtayi nazardan, refleksiya pedagogning o‘z faoliyatiga tashqi kuzatuvchi sifatida qarashi, mavjud muammolarni aniqlashi va ularni bartaraf etishning maqbul usullarini izlash imkonini beruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Siz keltirgan manbalarda ham o‘qituvchilarning darslarini muntazam kuzatish, o‘zaro tajriba almashish va tahliliy muhokama qilish kasbiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim omillar sifatida qayd etilgan [7;5–3-1-b.].

O‘qituvchining kasbiy rivojlanishini tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda pedagogik faoliyatni individual va jamoaviy rejalashtirishning ahamiyati alohida ko‘rsatiladi. Jumladan, pedagogik rejalashtirishni faqat individual majburiyat sifatida emas, balki fan o‘qituvchilari, metodistlar va boshqa mutaxassislarning hamkorlikdagi faoliyati sifatida tashkil etish zarurligi ta’kidlangan [4;17–40-b.]. Bunday yondashuv o‘qituvchiga ta’lim oluvchilarning real ehtiyojlari, o‘zlashtirish sur’ati va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda darsning muqobil ssenariylarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Pedagogik monitoring masalasiga oid ilmiy qarashlarda dars jarayonini muntazam kuzatish va o‘quvchilarning faoliyatini tahlil qilish o‘qituvchining operativ pedagogik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etiladi. Xususan, dars jarayonidagi o‘quvchilarning kognitiv faolligini kuzatish orqali pedagog o‘qitish strategiyasini bevosita ta’lim jarayonining o‘zida qayta moslashtirishi mumkinligi ko‘rsatilgan [5;75–79-b.]. Mazkur yondashuv pedagogik faoliyatni statik emas, balki doimiy tahlil va korreksiyani talab qiladigan dinamik jarayon sifatida qarash imkonini beradi.

O‘qituvchining kasbiy rivojlanishida mezonli baholash va uzluksiz malaka oshirish masalalari ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda pedagog faoliyatini faqat ta’lim oluvchilarning yakuniy natijalari asosida baholash yetarli emasligi, balki o‘qituvchining individual kasbiy maqsadlarga erishish dinamikasi, metodik faoliyati, portfolio natijalari va tadqiqotchilik kompetensiyalarini ham hisobga olish zarurligi asoslanadi [7;20–23-b.]. Bunday yondashuv pedagogning kasbiy rivojlanishini muntazam va uzluksiz jarayon sifatida tashkil etishga xizmat qiladi.

Pedagogning kasbiy rivojlanishida o‘z-o‘zini anglash masalasi psixologik va pedagogik tadqiqotlarda ham muhim o‘rin egallaydi. I.A.Zimnyaya va uning hammualliflari ta’lim jarayonini uzluksiz kasbiy o‘sish muhitida tashkil etish zarurligini ta’kidlaydilar [7;34–42-b.]. Mazkur yondashuv pedagogning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarini, balki uning intellektual, shaxsiy va amaliy-ijrochilik imkoniyatlarini ham rivojlantirishni nazarda tutadi.

O‘qituvchining kasbiy “Men” konsepsiyasini shakllantirishga oid qarashlarda esa pedagogning o‘z kasbiy imkoniyatlari, qadriyatlari, motivlari, kompetensiyalari va pedagogik munosabatlarini anglash qobiliyati muhim omil sifatida qaraladi. Ushbu nuqtayi nazardan, o‘z-o‘zini anglash pedagogning mavjud kasbiy holatini xolis baholashi, kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqlashi hamda shaxsiy kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilashiga imkon beruvchi psixologik-pedagogik mexanizm hisoblanadi.

Metakognitiv yondashuv doirasidagi tadqiqotlarda ham o‘qituvchining o‘z faoliyatini rejalashtirish, kuzatish, nazorat qilish va natijalarni baholash qobiliyatlari kasbiy faoliyat samaradorligining muhim tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. Shu jihatdan, pedagogik refleksiya va metakognitiv boshqaruv bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar bo‘lib, o‘qituvchiga o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarish, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va tegishli pedagogik strategiyalarni tanlash imkonini beradi.

Xorijiy pedagogik tajribaga oid manbalarda o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda jamoaviy rejalashtirish, darsni kuzatish, o‘zaro tahlil, kasbiy hamkorlik, refleksiv muhokama va uzluksiz malaka oshirish mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Siz keltirgan tadqiqotlarda ham o‘qituvchining kasbiy o‘sishini faqat tashqi ma’muriy nazorat vositalari orqali ta’minlashdan ko‘ra, uning o‘z faoliyatini anglash va takomillashtirishga yo‘naltirilgan ichki kasbiy faolligini qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilishi qayd etiladi [74;124–128-b.; 26;100–105-b.].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili pedagogning kasbiy rivojlanishi ko‘p komponentli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Unda o‘z-o‘zini anglash, pedagogik refleksiya, metakognitiv boshqaruv, dars faoliyatini monitoring qilish, individual kasbiy rejalashtirish, hamkasblar bilan hamkorlik va uzluksiz malaka oshirish mexanizmlari o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ushbu komponentlarning ayrim jihatlari alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni o‘qituvchining kasbiy “Men” konsepsiyasi va individual kasbiy rivojlanish traektoriyasi bilan yagona tizim sifatida bog‘lash masalasi yanada chuqurroq metodologik asoslashni talab qiladi. Mazkur holat tadqiqotning dolzarbligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini pedagogning kasbiy rivojlanishi, pedagogik refleksiya, o‘z-o‘zini anglash, metakognitiv boshqaruv hamda kasbiy hamkorlik jarayonlariga oid psixologik-pedagogik yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda o‘qituvchining kasbiy taraqqiyoti tashqi metodik ta’sir va ma’muriy nazorat bilan chegaralanmaydigan, balki pedagogning o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga yo‘naltirilgan uzluksiz jarayon sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasida shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga yo‘naltirilgan, refleksiv va metakognitiv yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanildi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv pedagogning individual kasbiy ehtiyojlari, imkoniyatlari, motivlari va rivojlanish yo‘nalishlarini hisobga olishni nazarda tutsa, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini real pedagogik faoliyat jarayonida shakllantirish va takomillashtirishga asoslanadi.

Refleksiv yondashuv doirasida pedagogning o‘z faoliyatini kuzatishi, dars jarayonidagi pedagogik qarorlarini tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi va aniqlangan muammolar asosida keyingi faoliyatini takomillashtirishi tadqiqotning muhim metodologik yo‘nalishi sifatida belgilandi. Bunda refleksiya o‘qituvchining kasbiy tajribasini qayta anglash va undan keyingi pedagogik faoliyatni takomillashtirish vositasi sifatida talqin qilindi.

Metakognitiv yondashuv asosida o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish, nazorat qilish, baholash va korreksiya qilish jarayonlari o‘rganildi. Mazkur yondashuv pedagogga o‘zining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini xolis baholash, mavjud kuchli va zaif jihatlarini aniqlash hamda individual kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilash imkonini beruvchi mexanizm sifatida qaraldi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot doirasida pedagogning zamonaviy kasbiy taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik va metodik yondashuvlar tahlil qilindi. O‘rganilgan ilmiy qarashlar va xorijiy pedagogik tajribalarni umumlashtirish natijasida o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi faqat tashqi nazorat, attestatsiya yoki an’anaviy malaka oshirish jarayonlari bilan cheklanmasligi, balki pedagogning o‘z faoliyatini anglash, muntazam tahlil qilish, monitoring qilish va natijalarga muvofiq faoliyatini korreksiyalash jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi.

Tahlil natijalari pedagogik kasbiy rivojlanishning asosiy mexanizmlari sifatida o‘z-o‘zini anglash, pedagogik refleksiya, metakognitiv boshqaruv, faoliyat monitoringi va kasbiy hamkorlikni ajratish imkonini berdi. Mazkur komponentlar alohida jarayonlar sifatida emas, balki o‘qituvchining uzluksiz kasbiy taraqqiyotini ta’minlovchi yagona tizimning o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi navbatda, pedagogik refleksiya o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida tayanch mexanizm sifatida belgilandi. Refleksiv faoliyat orqali pedagog o‘z darsining mazmuni, qo‘llagan metodlari, ta’lim oluvchilarning faolligi va erishilgan natijalarni tahlil qiladi. Bunday tahlil o‘qituvchiga mavjud kamchiliklarni aniqlash bilan bir qatorda, keyingi darslarni takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik qarorlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shu sababli refleksiya kasbiy faoliyat yakunidagi oddiy baholash emas, balki keyingi pedagogik faoliyatni loyihalashtirishga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda dars jarayonini monitoring qilish pedagogik faoliyatni operativ boshqarishning muhim sharti sifatida qaraldi. O‘qituvchining dars davomida ta’lim oluvchilarning faolligi, o‘zlashtirish darajasi, qiyinchiliklari va individual ehtiyojlarini kuzatib borishi ta’lim jarayonini vaziyatga mos ravishda qayta tashkil etish imkonini beradi. Bu esa pedagogga dars jarayonining o‘zida metodik yondashuvlarni o‘zgartirish, qo‘shimcha tushuntirish berish yoki muqobil topshiriqlardan foydalanish imkonini yaratadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, jamoaviy pedagogik rejalashtirish ham kasbiy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Darsni faqat individual rejalashtirish bilan cheklanib qolmasdan, fan o‘qituvchilari, metodistlar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda muhokama qilish pedagogik faoliyatni turli nuqtayi nazardan baholash imkonini beradi. Hamkorlikdagi rejalashtirish jarayonida o‘quvchilarning real imkoniyatlari, o‘zlashtirish sur’ati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda muqobil pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyati kengayadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kasbiy hamkorlik va o‘zaro tajriba almashish o‘qituvchining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Hamkasblarning darslarini kuzatish, o‘zaro fikr almashish, dars jarayonlarini tahliliy muhokama qilish pedagogga o‘z faoliyatini boshqa professional nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish imkonini beradi. Natijada o‘qituvchining o‘z faoliyatiga tanqidiy va konstruktiv munosabati shakllanadi.

